

NASHR KO'RSATKICI 1404



URGANCH  
INNOVATION  
UNIVERSITETI



SERGEY TOLSTOV

# INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT



URGANCH INNOVATION UNIVERSITETI

Ijtimoiy tarmoqlari va manzili



@urganch\_iu



@uriu.uz



(91) 436-20-22  
(90) 436-20-22



@uriu



Xorazm viloyati Urganch  
shahri "Mustaqillik" MFY  
Gurlan ko'chasi, 2-uy



2024 (5)



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI NTM

***INNOVATSIYA  
VA  
TARAQQIYOT***

*Ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy*  
***JURNAL***

**2024-yil 5-son**

**Urganch-2024**

**Bosh muharrir:**

*M.J.Eshmurodov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

**Mas'ul kotib:**

*U.Bekimmetov – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

**Tahrir hay'ati:**

*Z.Do'simov – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*S.K.Salayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

*S.E.Normamatov – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*G.U.Pardayev – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*A.D.O'razboyev – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*D.Q.G'ayipov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.*

*A.I.Primov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

*R.Y.Xudoyberganov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

*S.E.Samandarova – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

*D.I.Yo'ldashev – Filologiya fanlari doktori, dotsent.*

*S.M.Sariyev – Filologiya fanlari doktori, dotsent.*

*R.B.Maxmudov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.*

*M.M.Masharipov – Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD).*

*M.Salayeva – Pedagogika fanlari doktori, professor.*

*Ch.A. Sabirova – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

*D.A.O'razboyeva – Psixologiya fanlari doktori, dotsent.*

*I.Abdullayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

*D.Xudayberganov – Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent.*

*S.R.Davletov – Tarix fanlari doktori, professor.*

*O'I.Abdullayev – Tarix fanlari doktori, professor.*

*G.Durdiyeva – Arxitektura fanlari doktori, dotsent.*

*Q.Y.Masharipov – Tarix fanlari doktori, dotsent.*

*N.R.Matyakubov – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*B.M.Satimov – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*M.S.Xajiyeva – Falsafa fanlari doktori, professor.*

*B.I.Abdullayev – Fizika-matematika fanlari doktori, (UrDU rektori).*

*R.Y.Ro'ziboyev – Tibbiyot fanlari doktori, professor, (TTA UF direktori).*

*A.R.Matnazarov – Fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent*

*Almaz Ulviy – Filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon).*

*H.H.Tadjiyev – Turkologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Qozog'iston).*

*J.R.Yarmetov – Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.*

*J.S.Iskandarov – Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

*O.Radjabov – Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.*

**ISSN 3030-3206**

Innovatsiya va taraqqiyot: ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal.  
№ 5 (15), Urganch innovatsion universiteti, 2024-yil.

## MUNDARIJA:

### TARIX

|                                                                                                                       |    |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>R.ABDIRIMOV.</b> Xorazmshohlar davlatining poytaxti .....                                                          | 4  |
| <b>U.SUYUNOVA O‘.XASANOV.</b> Mahmud az-Zamaxshariyning “Muqaddimat al-adab” lug‘atining mo‘g‘ulcha tarjimasi .....   | 11 |
| <b>M. SALIMOV.</b> Xorazmda XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi qozilik hujjatlari. (tarixiy hujjatlar asosida) ..... | 15 |
| <b>S. KUZIYEVA.</b> Xorazmlik nemislar .....                                                                          | 22 |
| <b>U.BEKMUHAMMAD.</b> S.P.Tolstov ilmiy faoliyati va arxeologik ekspeditsiyasining tarix fanida tutgan o‘rni .....    | 27 |

### FILOLOGIYA

|                                                                                     |    |
|-------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>U.AXMEDOVA.</b> O‘zbek va ingliz maqollarining umuminsoniy xususiyatlari .....   | 44 |
| <b>S.SAMANDAROVA, U. BEKMUHAMMAD.</b> Ma’rifatparvar jadid Tavallo she’riyati ..... | 49 |

### FALSAFA

|                                                                                                                                |    |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>I.BABAJOV.</b> Ibn Sino asarlarida ijtimoiy-axloqiy qarashlar. ....                                                         | 54 |
| <b>O.RADJAPOV.</b> Ilmiy intellektual faoliyatni rivojlantruvchi muhim omillar. ....                                           | 60 |
| <b>Z.ASQAROVA, N.MATYAKUBOVA, M.KAMOLOVA.</b> Shum bola qissasini o‘qitishda zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish. .... | 68 |

### IQTISODIYOT

|                                                                                             |    |
|---------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>D.SAPORBOYEV.</b> Iqtisodiy imkoniyatlarni yuzaga chiqarishda ehtiyojlarning o‘rni. .... | 74 |
|---------------------------------------------------------------------------------------------|----|

**TARIX****XORAZMSHOHLAR DAVLATINING POYTAXTI****UO‘K 570.511**

**Razzoqberdi  
ABDIRIMOV**

**Urganch innovatsion  
universiteti dotsenti, tarix  
fanlari nomzodi.**

**Annotatsiya:** maqolada o‘rta asrlarda buyuk Xorazmshohlar davlatining markazi bo‘lgan Ko‘hna Urganch (Ko‘na Urganch) shahrining vujudga kelishi, shakllanishi, rivojlanishi, tarixi, shahar tarixiga hamda turli davrlarga oid manbalardagi ma‘lumotlar yoritib o‘tilgan.

**Аннотация:** в статье описано возникновение, становление, развитие, история города Кохна Ургенч (Кона Ургенч), который был центром великого государства хорезмшахов в средние века, а также сведения из источников, связанных с историей города и разных периодов.

**Annotation:** the article describes the history of the emergence, formation and development of Old Urgench, which was the center of the great Khorezmshah state in the Middle Ages, from the sources of various periods of the city's history.

**Kalit so‘zlar:** V.V.Bartold, Y.G‘.G‘ulomov, A.Y.Yakubovskiy, Z.Buniyatov, Gurganch, Anushteginiylar, Qirqmulla, Daryolik, Alouddin Takash, Faxriddin Roziy, Al-Maqsudiy, Yoqut, Al-Istahriy

**Ключевые слова:** В.В.Бартольд, Я.Г.Гуломов, А.Ю.Якубовский, З.Буниятов, Гурганч, Ануштегиний, Кыргмулла, Дарьялик, Алоуддин Такаш, Фахриддин Рази, Аль-Максуди, Якут, Аль-Истахри.

**The keywords:** V.V.Bartold, Y.G.Gulomov, A.Y.Yakubovskiy, Z.Bunyodov, Gurganch, Anushteginis, Kirkmulla, Daryalik, Alouddin Takash, Fakhriddin Razi, Al-Maksudi, Yakut, Al-Istahri

X asrdan keyin Urganch mavqeyining yanada oshganligini uning Xorazmshohlar davlatining poytaxti maqomini olganligida ko‘rish mumkin. Ayniqsa, uning rivojlanishi XII-XIII asr boshlarida yanada ko‘proq namoyon

bo‘lib, buyuk davlatning markaziga aylandi. XIII asr boshida Xorazm juda keng maydonni egallagan buyuk davlat edi. Uning shimoliy-g‘arbiy chegarasi Orol va Kaspiy dengizi sohillaridan janubi-g‘arbda Iroqqa qadar borar edi. Janubi-sharqiy hududlari G‘azna viloyatidan, shimoli-sharqiy chegarasi esa Yettisuv va Dashti Qipchoqdan o‘tar edi. Shu vaqtda Xorazmshohlar davlati tarkibiga Movaraunnahr, Xuroson, Mozandaron, Kirmon, Fors Iroqi, Ozarbayjon, G‘azna kabi ko‘plab mamlakatlar va viloyatlar kirgan edi. XII asr oxiri – XIII asr boshlarida Sharqning eng yirik va qudratli davlati Xorazm saltanati edi [1]. Anushtegin Xorazmshohlar davrida (1097 – 1231-yillar) Urganch (Gurganch) ulkan imperiya poytaxti bo‘lishi bilan birga savdo, hunarmandchilik markazi ham sanalgan. Anushtegin avlodi bo‘lgan Xorazmshohlarni akademik V.V.Bartold “Eng porloq sulola” deb atagan edi.

Bu ulkan davlatning poytaxti Urganch shahri edi. Bu davrda, ayniqsa, poytaxt Sharqning mashhur yirik shaharlaridan biriga aylandi. XII-XIV asr boshlariga tegishli Urganchdagi yirik inshootlar sanalgan Tekesh, Faxriddin Roziy mavzoleyari, Juma mecheti va boshqalarni keltirib o‘tish mumkin.

N.N.Vakmurskaya tadqiqotlariga qaraganda Qadimgi Urganch shahri hududi 400 gektardan iborat bo‘lgan [2]. X.Yusupov izlanishlarga ko‘ra, 640 gektarga yaqin bo‘lishi mumkin [3].

Shaharning shimoli-sharqida joylashgan Qirqmulla deb nomlanuvchi tepalik o‘sha hududning eng qadimgi qismi sanaladi. U yerda o‘tkazishgan arxeologik tadqiqotlar natijasida yaxshi saqlangan minora va mudofaa devoriga ega bo‘lgan to‘rtburchak shakldagi xom g‘ishtlardan bunyod etilgan antik davrga (mil.avv. IV – III asrlar) oid qadimgi inshoot xarobalari topildi. Bu yerdan ham o‘z vaqtida Amudaryodan chiqarilgan kanal tarmoqlari o‘tgan bo‘lib, chap qirg‘oqda joylashgan Xorazm yerlarini suv bilan ta‘minlab turgan [4].

Qirqmulla tepaligini qazish vaqtida mil.avv V-II asrlarga oid qal‘a devorlari qoldiqlari topilgan [5]. Qirqmulla tepaligidagi arxeologik tadqiqotlarda faol qatnashgan X.Yusupov va Sergey Bolelov ma‘lumotlariga ko‘ra, bu yerda ilk o‘rta asrlarga oid buyumlar ham ko‘plab uchraydi. Urganch shahrining keyingi rivojlanish bosqichi VIII asr boshlariga oid bo‘lib, bu davrda Xorazm arab istilochilari tomonidan bosib olingach, shahar poytaxt maqomini olgan.

O‘tkazilgan tadqiqotlar o‘rganilayotgan manzillar joylashgan yerlarda Daryolik irmog‘i miloddan avvalgi IV – II asrlardan to eramizning IV asrigacha bo‘lgan davrlarda mamlakat hududining shimoli-g‘arbida joylashgan ko‘plab manzilgohlarni suv bilan ta‘minlab turganligini ko‘rsatdi [6].

Urganch xarobalari yonidagi Daryolik chap qirg‘og‘idagi ancha katta hudud IX – XIII asrlarda, ehtimol, shu shaharning davomi bo‘lgan, chunki o‘n

kilometrdan ortiqroqni tashkil qilgan bu yerda o'sha davr imoratlarning izlari, pishgan g'isht, sopol parchalari ko'plab uchraydi [7]. Shuning uchun, balkim, Yoqut Urganch haqida "Uning barcha viloyatlarida yurasanmi, yo bozorlarida yurasanmi – buning farqi yo'q. O'ylaymanki, Xorazm singari bepoyon va keng yer, shu singari aholisi ko'p yurt dunyoda bo'lmasa kerak", – deb yozgan [8].

Urganch (Gurganch yoki arab tilidagi manbalarda Jurjoniya) deb atalmish qadimgi shahar yodgorligini dastlab arxeologik jihatdan ilmiy o'rganish ishlari 1928 – 1929-yillarda E.Y.Yakubovskiy boshchiligida olib borilgan [9]. Urushdan keyin Urganch (Ko'hna Urganch) xarobalarini arxeologik jihatdan o'rganish Sobiq ittifoq Fanlar akademiyasi Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan olib borilgan. Shundan so'ng Ko'hna Urganch shahri qoldiqlarini arxeologik nuqtayi nazardan o'rganish 1980-yillarga qadar deyarli to'xtab qolib, yana qayta yo'lga qo'yilgani kuzatiladi.

1988 – 1993-yillarda ushbu shahar hududida Sh.Botirov nomidagi Turkmaniston Fanlar akademiyasi tarix instituti Ko'hna Urganch arxeologik ekspeditsiyasi X.Yusupov rahbarligida arxeologik qazish, tadqiqot ishlarini olib borib, Qirqmulla tepaligidan miloddan avvalgi V-II asrlarga oid madaniy qatlam izlari aniqlagan [10].

Gurganch – hozirda Turkmaniston Respublikasi Toshhovuz viloyatining Ko'hna Urganch tumani markazi sifatida mavjud. Shaharning qurilishi eramizdan avvalgi V-IV asrlarga oid bo'lib, to'rtburchakli rejalashtirilgan. IX-X asrlarda Gurganch, (arab manbalarida – Jurjoniya) Urganch, XVI asrning 70-yillaridan keyin Ko'hna Urganch, sho'rolar tuzumi davrida mahalliy aholi o'rtasida Ko'na nomi bilan ma'lum. Arab sayyohlari va geograflaridan bo'lgan at-Tabariy, al-Belozuriy asarlarida Gurganch to'g'risida dastlabki ma'lumotlar uchraydi. VIII asrga oid arab adabiyotlarida Jurjoniya shahri qayd etiladi. Gurganch shahri Xazar va Xurosonga yo'nalgan savdo yo'lida joylashganligi, ayniqsa, siyosiy markazga aylanganidan keyin ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan ravnaq topgan. Gurganch X asrda markazlashgan ma'muniylar davlatining siyosiy markazi bo'lib, fan va madaniyat, hunarmandchilik, savdo-sotiq taraqqiy etgan shahar bo'lgan. IX-X asrlarda Xorazm vohasida tarixiy va siyosiy vaziyat tinch bo'lganligi sababli ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish ro'y bergan. Shaharsozlik madaniyati ravnaq topdi, qishloqlarda aholi gavjumlashdi. Mizdahkon va Gurganch kabi shaharlar iqtisodiy va madaniy jihatidan rivojlanib, siyosiy markazlar sifatida namoyon bo'lgan. Shaharlarning me'moriy topografik tuzilishi, mudofaa tizimi ajdodlarimizning aniq fanlarni to'la egallab olganliklarini isbotlaydi va bu bilimlarni me'morchilik, muhandislik qurilish uslubi texnikasi, harbiy bilimlarda to'la namoyon etib, madaniy-ma'rifiy sohada yuksak ma'naviyatga ega bo'lganlar. Mizdahkon va Ko'hna Urganchda

hozirgacha saqlanib qolgan me'moriy obidalar ijodkor xalqning ma'naviy saviyasini, estetik tuyg'usini o'zida mujassam etgan. IX – XIII asrlar boshida Xorazm vohasida shahar madaniyati ravnaq topgan. Shu davrning yirik shaharlari Ko'hna Urganch, Vazir, Kat, Darg'on, Xiva, Hazorasp kabi shaharlar iqtisodiy, madaniy, diniy markazlar ham bo'lgan. Amudaryoning chap sohilida Xorazmshohlar davriga oid yirik shaharlardan biri Gurganchdir. V.V.Bartold, A.Y.Yakubovskiy Gurganchning dastlabki qurilishi davrini miloddan avvalgi I asr bilan ko'rsatgan. Y.G'.G'ulomov esa milodning IX asri bilan belgilaydi. 995-yildan Gurganch Xorazmshohlar davlatining poytaxti bo'lgan. Shahar to'g'risidagi ma'lumotlar o'rta asr arab sayyohlari va geograflari Al-Istahriy, Al-Maqdisiy va Yoqut asarlarida uchraydi. Yoqut shahar to'g'risida shunday yozadi: "Boylklarning mo'lligi va poytaxtning kattaligi, aholisining ko'pligi, yaxshilikka yaqinligi hamda din va mazhab buyurgan narsalarni bajarish jihatidan dunyoda Xorazmning bosh shahriga o'xshash shahar bo'lmasa kerak".

1952-yilda Xorazm-arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi xodimlari Ko'hna Urganchda arxeologiya qazish ishlarini olib bordi, natijada IX asrdan XVII asrgacha bo'lgan madaniy qatlam o'rganildi. Shahar Buyuk ipak yo'lida joylashib, iqtisodiy, madaniy, harbiy, siyosiy, diniy markaz bo'lgan.

Shahar XI-XIII asrlarning boshlarida siyosiy, ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy jabhalarda faollik ko'rsatib, Markaziy Osiyoning eng katta va kuchli qal'asiga aylangan. Shu davrda Gurganch shahri Xorazmshohlar davlatining poytaxti bo'libgina qolmay, Ipak yo'li ustidagi Sharq bilan G'arbni bog'lab turgan savdo markazi hisoblangan. Shu davrlarda qurilgan binolardan biri qal'adagi Jome masjidi va minorasi (1011-yil), Xorazmshoh El-Arslon (Faxriddin Roziy nomi bilan ham yuritiladi), Alouddin Takash maqbaralaridir. Gurganchda yuzlab hunarmandlar faoliyat ko'rsatganlar.

Urganch shahri to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlarni Xitoy manbalarida uchratamiz. Katta Xan tarixida boshqa shahar va o'lkalar qatorida Yuye-gan (Gurganch yoki Urganch) to'g'risida xabar berilgan. Ushbu xabarlar eramizning I asriga oiddir. Undan keyingi davrlarga oid ma'lumotlar Xitoyning VII asrlarga oid tarixida keltirilgan. X asr o'rtalaridagi Urganch haqida Istahriy yozib qoldirgan. "Urganch poytaxt – Qiyotdan keyin Xorazmdagi eng katta shahar, savdo-sotiq joyi, u yerdan Jurjoniya, Xazar, Xuroson o'lkalariga savdo karvonlari qatnaydi", – deb yozadi. Urganch haqida sal keyinroq ibn Havqal ham qo'shni davlatlar bilan savdo yo'llari to'g'risida yozgan. Istahriy Xorazm savdogarlarini Xurosonning ko'plab shaharlarida uchratish mumkinligini aytib o'tgan. Albatta, o'rta asrlarda Urganch savdo karvonlarining katta qismi yaxshi imkoniyatlar, muhiti tufayli Itil bo'ylari, Bulg'oriya, Sharqiy Yevropaga ham muntazam

qatnagan.

Urganch shahri bozorlarida Eron, Movarounnahr, Turk, Xazar va Bulg‘or savdogarlarini uchratish mumkin edi. X asr so‘ngida yashagan Maqdisiy Xorazm bozorlari orqali tashilgan tovar mahsulotlari ro‘yxatini keltirib o‘tgan.

Xorazmshohlar Ma‘muniylar davrida qurilgan ajoyib saroy, inshootlar, ma‘muriy binolar so‘nggi davrlargacha saqlanib qolmagan. Afsuski, XI asrlardan to XIII asr boshlaridagi mo‘g‘ullar bosqiniga qadar bo‘lgan davrdagi Urganch topografiyasi, undagi qurilishlar-binolar, saroylar haqida yozma manbalarda deyarli hech qanday ma‘lumotlar uchramaydi, shu tufayli bu davr haqida faqat arxeologik ma‘lumotlarga tayanish mumkin. Bizga ma‘lumki, Xorazm Anushtegin – Xorazmshohlar davrida (1097 – 1230-yillar) musulmon Sharqidagi eng katta davlat bo‘lgan. Mo‘g‘ullar hujumi arafasida Xorazmshohlar davlati poytaxti Urganchda bo‘lgan mashhur geograf-olim Yoqut: “Bunday buyuk, katta, boy va go‘zal shaharni ko‘rmaganman”, – deb yozadi. O‘z davrida Xorazmning eng katta qal‘alardan biri deb hisoblangan.



Urganchdagi ayrim tepaliklar bugungi kunda Oqqal‘a, Doshqal‘a va boshqa nomlar bilan ma‘lum. Gurganch qal‘asining eng qadimgi qismi (Qirqmulla) 1988 – 1992-yillarda o‘tkazilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida qurilish davri mil. avv V-IV asrlarga tegishli ekanligi aniqlangan. Qal‘a mudofaa devorlari bilan o‘rab olingan. Uning to‘rt darvozasi bo‘lib, shulardan uchtasining nomi qo‘lyozma manbalarda mavjud: shimolda Xajjijash, janubda Aqbilan yoki Kabilan, sharqda Tinchlik darvozasi. Qal‘a bir necha mahallalarga bo‘lingan. Gurganchning bu qismi mahalliy aholi tilida hozirda Oqqal‘a nomi bilan yuritiladi. Qal‘a mudofaa devorlari bilan o‘rab olingan. X asrning oxirlariga tegishli bo‘lgan, muallifi noma‘lum geografik asar – “Hudud al-olam” bo‘lib, u fors tilida yozilgan.

Asarda Gurganch haqida quyidagi ma‘lumot beriladi: “Gurganch qal‘asi

ilgari xorazmshohlarga qaragan. Hozir uning boshqa podshosi bor – uni Gurganch amiri deb atashadi. Qal’a juda boy, u Turkiston darvozasi, savdogarlar yig’iladigan yer. Shahar ikki qismidan iborat: Ichon qal’a va Deshon qal’a. Uning aholisi o’zining mardligi bilan mashhur, yana ular o’q yoy otishda mohir”.

X asrdan boshlab Gurganch ilm fan va madaniyat markazi sifatida ham mashhur bo’lgan. 1004 – 1017-yillarda Gurganchda Xorazmshoh Ma’mun II tomonidan Majlisi ulamo yoki Dorul-hikma (Donishmandlar uyi), ya’ni Ma’mun akademiyasi faoliyat ko’rsatgan. Bu ilmiy dargohining ustunlari Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sinolarning ustozlari Abu Nasr ibn Iroq o’z davrining o’ta bilimdon olimi edi. U tirikligidayoq o’z davrining Ptolomeyi degan laqabni olgandi. Undan tashqari Beruniyni ham o’z xonadonida tarbiyalab, voyaga yetkazgan. Ana shu ikki buyuk siymo tufayli Gurganch saroyida ilm ahli uchun qulay sharoitlar yaratiladi. Bu ikki shaxs yaqin va o’rta sharqdagi ko’plab olimlar bilan shaxsiy yozishmada edilar. Ibn Iroq va Beruniyning takliflari bilan 1004-yildan boshlab Nishopur, Balx va Buxorodan va hatto arab Iroqidan ham olimlar Gurganchga kela boshladilar. Shu tariqa Gurganchda Dorul-hikma nomini olgan ilmiy muassasa to’liq shakllanadi. Bu ilmiy muassasada xuddi Bag’doddagi Baytul-hikmadagi kabi ilmning barcha sohalarida tadqiqot va izlanishlar olib boriladi. Beruniy keltirgan ma’lumotlarga ko’ra, bu yerda suryon va yunon tillaridan ba’zi tarjimalar ham bajarilgan, keyin anushtegeniylar davrida Gurganch shahri yanada har tomonlama rivojlanib, yirik siyosiy va savdo markaziga aylandi [11]. 1221-yilda Chingizxon boshchiligidagi mo’g’ul qo’shinlari 7 oylik qamaldan keyin Gurganch shahrini egallab, vayron qildilar. Mo’g’ullar istilosidan keyin ham Urganch mamlakat poytaxti bo’lib, XIII-XV asrlarda katta savdo markazi sifatida bir muddat yashagan. Shaharga Yevropaning Ispaniya, Italiya mamlakatlaridan ham savdogarlar kelishgan. Shu davrlarda shaharda Najmiddin Kubro maqbarasi kabi o’nlab ajoyib ma’moriy inshootlar qad ko’targan. Marokashlik arab sayohatchisi ibn Battuta 1333-yili Urganchda bo’lib, qal’ada katta bozor, Qutlug’ Temurning saroyi, qozi uyi ichining bezatilishi, qal’a ichida va atrofida xonaqalarning ko’pligi va go’zalligi haqida hayrat bilan yozib qoldirgan [12].

Yuqorida qarab chiqilganidek, Xorazmshohlar davlatining poytaxti – yuragi hisoblangan Urganchdagi antik davrdan boshlab hayot davom etganligini kuzatamiz. Albatta, kelgusida keng miqyosda arxeologik izlanishlar olib borilib, ushbu shaharning arxaik davrda paydo bo’lganligi isbotlansa ajab emas.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Buniyodov Ziyο. Anushtegin Xorazmshoxlar davlati (1097-1231). Toshkent, 1998. 3 – 250-betlar
2. Вактурская Н.Н. Раскопки городиша Куня-Ургенч в 1952 г. - ТХАЕЕ. 1958. т.2 с.471
3. Юсупов Х. Путеводитель по археолого-архитектурным памятникам Ташаузской области. Аш., 1989, с 24
4. Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. Таш., 1957, с 125.
5. Юсупов Х. Сердце древнего Хорезма. Аш., 1993
6. Вайнберг Б.И. История обводнения Присарыкамышской дельты Амударьи в древности в свете археологических работ последних десятилетий. - Аральский кризис (историко-географическая ретроспектива) М., 1991, с 123
7. Я. Ғ.Ғуломов. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Тошкент - 1959, 139-бет
8. Ёқут. Китоб ал-булдон, м-ИИ, 481-484-бетлар
9. Якубовский А.Ю. Развалины Ургенча - ИГАИМК 1930. т. 6, вып 2
10. Юсупов Х. Сердце древнего Хорезма. Ашх. 1993, 25 б
11. Abdirimov R. Sadullayev B. Raximov Sh. Uygʻonish davri Xorazm shaharlari. Xalqaro ilmiy konferensiyasi materiallari. Xiva 2023-yil 4-may, 145-147-betlar
12. Ibroximov N.I. Ibn Battutaning Oʻrta Osiyoga sayohati - Т., 1992, Xorazm tafsiloti qismi

## TARIX

### MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING “MUQADDIMAT AL-ADAB” LUG‘ATINING MO‘G‘ULCHA TARJIMASI

UO‘K 570.511



**Umida  
SUYUNOVA**



**O‘tkur  
XASANOV**

Samarqand  
shahridagi  
59-sonli “Nurli  
maskan” maktabi  
o‘qituvchilari

**Annotatsiya:** Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimat al-adab” kitobi o‘zida minglab mo‘g‘ulcha so‘zlarni jamlagani bilan farqlanib turadi. Sharqshunoslikda Zamaxshariyning bu asari to‘rt tilli lug‘at (arab – fors – turk – mo‘g‘ul) sifatida mashhurdir. Lug‘atning mo‘g‘ul tilidagi qismi – bu o‘sha davrda Movarounnahrda mo‘g‘ul tilining mavqeyi qay darajada bo‘lganligidan darak beradi.

**Аннотация:** книга Махмуда Замахшари «Мукаддимат аль-Адаб» отличается тем, что содержит тысячи монгольских слов. В востоковедении этот труд Замахшари известен как словарь на четырех языках (арабско-персидско-турецко-монгольский). Монгольская часть словаря показывает статус монгольского языка в Моваруннахре в то время.

**Annotation:** Makhmud Zamakhshari's book “Muqaddimat al-Adab” is notable for containing thousands of Mongolian words. In oriental studies, this work of Zamakhshari is known as a dictionary in four languages (Arabic-Persian-Turkish-Mongolian). The Mongolian part of the dictionary shows the status of the Mongolian language in Movarunnahr at that time.

**Kalit so‘zlar:** Zamaxshariy, Muqaddimat al-adab, mo‘g‘ul tili, turkiy til, Xorazm.

**Ключевые слова:** Замахшари, Мукаддимат ал-адаб, монгольский язык, турецкий язык, Хорезм.


**Key words:** Zamakhshari, Muqaddimat al-adab, mongolian language, turkish language, Khorezm.

XIII asr boshlarida katta tarixiy sahnaga chiqqan mo‘g‘ul qabilalari markazlashgan davlatga asos solganlaridan keyin O‘rta Osiyoning madaniyati boy xalqlari bilan to‘qnash kelishdi. Bu davlat tarkibini Mo‘g‘ulistondan tashqari, Xitoy va Markaziy Osiyoning boy hududlari tashkil qilar edi.

Mo‘g‘ullar tomonidan istilo etilgan hududlarning mo‘g‘ullar davlati tarkibiga qo‘shilganidan keyingi ijtimoiy va iqtisodiy hayotidagi umumiy

o'zgarishlar mazkur mamlakatlarning ilmiy hayotiga ham ta'sir ko'rsatdi. Oldin yuqori darajada bo'lgan ko'plab ilm-fanlar, masalan, geografiya, tarix va tilshunoslik kabi ilm-fanlar garchi oldingidek bo'lmasa ham, mo'g'ullar istilosidan so'ng biroz bo'lsa-da, rivojlanishda davom etdi (asosan, ijtimoiy fanlar).

Ma'lumki, tilshunoslik musulmon ilm-fani tarixida juda muhim o'rin tutadi. Musulmon olimlari nafaqat arab tiliga, balki boshqa tillar, xususan, mo'g'ul tiliga oid ko'plab qimmatli asarlarga egadir. Mo'g'ul tiliga oid eng qadimiy asar 1245-yilga (hijriy 643 y) oid "Tarjimon" asari hisoblanadi<sup>1</sup>. Bu asar mo'g'ul tiliga oid materiallar bilan birgalikda XIII asrdagi turkiy tillardan o'g'uz-qipchoq tillari bo'yicha juda qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga qamrab oladi. Shuningdek, juda ko'plab mo'g'ul so'zlari Rashid ad-din qalamiga mansub "Jome at-tavorix" (1310-1311) asarida ham uchraydi.



1926-yilda musulmon ilm-fan dunyosida mashhur bo'lgan Mahmud az-Zamaxshariyning "Muqaddimat al-adab" asarining qo'lyozmasi topilganligi keng jamoatchilikka ma'lum bo'ladi. Mahmud Zamaxshariy 1143-yilda vafot etgan bo'lib, u o'z asarini xorazmshoh Alovuddin Otsizga (vafoti 1156-yil) bag'ishlab yozgan. Mahmud Zamaxshariyning "Muqaddimat al-adab" kitobi yuqoridagi asarlardan o'zida minglab mo'g'ulcha so'zlarni jamlagani bilan farqlanib turadi. Sharqshunoslikda Zamaxshariyning mazkur asari to'rt tilli lug'at (arab – fors – turk – mo'g'ul) sifatida mashhurdir. Lug'atning mo'g'ul tilidagi qismi ancha kechroq, 1492-yilda

boshqa muallif tomonidan tuzilgan bo'lib, bu o'sha davrda Movarounnahrda mo'g'ul tilining mavqeyi qay darajada bo'lganligidan darak beradi.


"Muqaddimat al-adab"ning mo'g'ulcha qo'lyozma nusxasi, shubhasiz, bizgacha yetib kelgan barcha shunga o'xshash asarlar ichida sifat va miqdor jihatidan eng qimmatlisi sifatida e'tirof etilishi kerakki, bu lug'atda takrorlanmaydigan mo'g'ulcha so'zlarning o'zi mingtani tashkil qiladi. "Muqaddimat al-adab"da tilga olingan o'rta mo'g'ul tili XIII-XIV asrlarga to'g'ri

<sup>1</sup> Tarjumon – XIV asr yozma obidasi. Toshkent, 1980

kelib, O'zbekistonda XV asr oxirida (1492-yil) ham mo'g'ul tili o'z ahamiyatini saqlab qolganligi qiziqdir.

Tilshunos olim N.N. Poppe nuqtayi nazarida, “Muqaddimat al-adab”dagi mo'g'ul tili umumiy xususiyatlariga ko'ra XIII-XIV asrlarda Markaziy Osiyoda mavjud bo'lgan mo'g'ul tilining aynan o'zi hisoblanadi<sup>2</sup>.

Rus sharqshunosi akademik V.V.Bartold fikriga ko'ra esa, XIII-XIV asrlar mo'g'ul tili va biz ko'rib chiqayotgan asarning tili bitta guruhga mansub bo'lib, bu tilda XIV asr o'rtalarida Movarounnahrda hukm surgan jaloyir va barlos qabilalari so'zlashgan<sup>3</sup>.



Arab adabiyotining mo'g'ul tiliga oid asarini birinchi marta rus tilida N.N.Poppe 1938-yilda chop ettirgan kitobida tilga oladi. Yapon olimi Y.Saito o'z asarlari asosida mo'g'ulcha so'zlarning lug'atini yaratishga kirishadi. 2008-yilda yapon va o'zbek olimlarining qo'shma guruhi Yaponiyada lug'atning mo'g'ulcha matni transkripsiyasi va mo'g'ulcha so'zlar indeksi ko'rsatilgan kitobni nashr etadi. “Muqaddimat al-adab” lug'atining mo'g'ulcha tarjimasi fotonusxasi hozirda Toshkentdagi Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyida saqlanmoqda.

N.N. Poppe so'zlari bilan aytganda, “Muqaddimat al-adab”da tilga olingan o'rta mo'g'ul tili lahjasi Movarounnahrda XIV asr boshlaridan o'rtalarigacha bo'lgan davrda muomalada bo'lgan. Quyida XIV asrda O'zbekistonda amalda bo'lgan chig'atoy (o'zbek) tiliga mansub “Muqaddimat al-adab” lug'atidan mo'g'ulcha so'zlar keltirilgan. So'zlarning bir-biriga mutanosibligi o'rta asrlarda

<sup>2</sup> Поппе Н.Н. Монгольский словарь Мукаддимат ал-адаб. М.-Л., 1938. С. 7

<sup>3</sup> Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. Ленинград, 1927. С. 91

o‘zbek va mo‘g‘ul tillari o‘rtasida o‘xshashlik bo‘lgan, degan xulosaga kelishga yordam beradi.

**“Muqaddimat al-adab”dagi ba’zi mo‘g‘ulcha so‘zlar**

| English        | “Muqaddimat al-adab”<br>(XIV-XV) | Transcription | Turkish (Uzbek)<br>language<br>(XIV) | Modern Mongolian |
|----------------|----------------------------------|---------------|--------------------------------------|------------------|
| body           | بيە                              | beye          | böi                                  | бие              |
| I              | بى                               | bi            | men                                  | би               |
| slave          | بول                              | böl           | qul                                  | боол             |
| sable          | بولغان                           | bulgan        | kiş                                  | булга            |
| desert         | چول                              | çöl           | çöl                                  | цөл              |
| below,<br>down | دوره                             | dora          | astin                                | доор             |
| fourty         | دوجين                            | döçin         | qirq                                 | дөчин            |
| disease        | ابجين                            | ebeçin        | ağriq                                | өвчин            |
| father         | ايچيكه                           | eçige         | ata                                  | эцэг, аав        |
| mother         | ايكه                             | eke           | ana                                  | эх, ээж          |
| drug           | ايم                              | em            | merhem                               | эм               |
| chicken        | تاقيه                            | taqi’a        | tavuş                                | тахиа            |

## TARIX

### XORAZMDA XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDAGI QOZILIK HUJJATLARI.

(tarixiy hujjatlar asosida)

UO‘K 570.511



**Matyusuf  
SALIMOV**

**Yangibozor tumani  
1-son kasb-hunar  
maktabi o‘qituvchisi**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada qozilik tarixi, XIX asr ikkinchi yarmidan XX asr boshlarigacha Xorazmda qozilik lavozimida faoliyat olib borgan qozilar ismlari va qozilik tarixiy hujjatlar haqida ayrim ma’lumotlarga to‘xtalib o‘tamiz.

**Аннотация:** в статье мы остановимся на некоторых сведениях об истории судебной власти, именах судей, работавших судьями в Хорезме со второй половины XIX до начала XX века, а также на исторических документах судебная власть.

**Annotation:** in this article, we will dwell on some information about the history of the judiciary, the names of the judges who worked as judges in Khorezm from the second half of the 19th century to the beginning of the 20th century, and the historical documents of the judiciary.

**Kalit so‘zlar:** mutavalli, rais, mudarris, muftiy, qoziaskar, qozikalon, xattot, oxund, Gurlan, madrasa, sahhof, Ojiz.

**Ключевые слова:** кази, кази уль-кузат, казискар, домла, эшан, ахунд, ходжа, махдум, ибро, медресе, фундамент.


**Key words:** qozi, qozi ul-quzot, qoziskar, domla, eshon, akhund, khoja, makhдум, ibro, madrasa, foundation.

Ma’lumki, qozilik lavozimi islom dinida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. “Qozi” so‘zi arab tilidagi “qazo” so‘zidan olingan. Lug‘aviy ma’nosi “kesish”, “ajratish” va “hukm qilish” ma’nolarini anglatadi. Hanafiy ulomalarning ta’rifiga ko‘ra, o‘ziga xos yo‘l bilan xusumatlarni ajratish va nizolarni kesish “qazo” deb yuritilgan.

Zamonaviy tadqiqotlarda “qozilik” deganda mahkama, ya’ni “sud” muassasasi tushuniladi. Turk tilida qozi “yorug‘chi” deb atalgan. Islomda huquqshunoslik jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishda muhim

o‘rin egallagan. Shu sababli qozilik faoliyati o‘ziga xos ravishda rivojlanib borgan. Shu jumladan Xorazm vohasiga islom dini kirib kelgandan keyin to 1920-yillargacha qozilik faoliyati yuritilgan. Hattoki Xorazm Respublikasi davrida ham davom etgan. Bu davrlarda boshqa davlatlardagi qozilik faoliyati singari asrlar mobaynida rivojlanib borgan.

Dastlabki qozilarni xalifa Umar ibn Xattob Madina, Basra va Kufada tayinlagan. Shundan keyin qozilar yirik shaharlar va viloyatlarda, harbiy yurish vaqtlarida qo‘shinlarda ham tayinlana boshladi. Qozilarni faqat xalifa tayinlashi mumkin edi, u oliy huquqiy, yuqori nufuzli odam hisoblanar edi. Qozining hukmi ustidan faqat xalifaga arz qilish mumkin edi. Bunday shikoyat natijasida qozi ishdan bo‘shatilishi ham mumkin edi. IX asr ikkinchi yarmida qozi ul-quzot lavozimi joriy qilindi. Unga xalifa nomidan xalifalikdagi barcha qozilarni tayinlash va ularning hukmi yuzasidan da‘volarni qabul qilish huquqi berildi.



Xorazmda Qo‘ng‘irotlilar sulolasi taxtga kelgan vaqtlar ham qozilik faoliyati ancha kengayib, rivojlangan davrlardan hisoblanadi. Chunki XIX asrda Xiva xonligida qozilik ish yuritish faoliyati ancha takomillashgan hisoblanadi. U davrda qozi, qozi ul-quzot (qozikalon), qozi askar, xos qozilar markaziy shaharlarda ish olib borgan. Bekliklar markazida, qishloq va ovullarda, masjid qavmlarda qozilar, qozi raislar va qozi noiblar ish olib borgan. Qozikalon, qozi askar, xos qozi va beklikdagi qozilarni xonning o‘zi farmon bilan tayinlangan bo‘lsa, qozi noiblarini qozikalon yoki qozi askar tayinlagan, ayrim hollarda beklikdagi qozilarni ham qozikalon tayinlagan. Shu bilan birga bekliklarda raislik vazifasi ham qozilarga yuklatilgan. Buni qozilarning muhrlarida

ko‘rishimiz mumkin. Markaziy shaharlarda qozixona yonida muftiixonalar ham

bo'lgan, chunki muftiylar har xil arizalarni, rivoyatlar tuzish vazifasi bo'lgan, ya'ni har xil so'rovlarga ko'ra yozma xulosalar tuzish vazifasi bo'lgan. Bekliklarda muftiylar tayinlanmagan, muftiy vazifasini beklik qozilarining o'zi bajarganlar. Xonlikdagi qozilarni qozikalon nazorat qilgan bo'lsa, muftiylarni a'lam nazorat qilgan. Qozilar va muftiylarni tayinlashda uning bilimi, rostgo'yligi, kelib chiqish nasabi kabi ko'p jihatlari e'tiborga olingan. Shuning uchun ko'plab qozilar ismlariga domla, oxund, qori, eshon, xo'ja, sayid kunyalari qo'shib atalgan va yozilgan. Yana qozilarning kiygan kiyimlariga ham e'tibor qilishgan.

Qozilik tarixiy hujjatlarda asosan, mol-mulk, qarz, ibro (o'z haqqidan kechish), nikoh, taloq, savdo-sotiq, ijaraga olish, voyaga yetmagan sag'ir bolalar haqqi, vaqf va fuqarolarning haq-huquqlari bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqilganligini ko'rishimiz mumkin.

Quyidagi qozilik tarixiy hujjatlarni ko'rib chiqsak:

1-hujjat.

**Tarix ming ikki yuz yuz yetmish olti mohi shavvalning yettilanchi kuni iqrор muta'barri sharri qildi Adhamboy qaro namo rang qoshli, ochuq qoshli, o'rta bo'yli, qo'ng'ir saqol, taxminan yigirma olti yoshar, valad Xolniyoz iqrори shari'at bila durust bo'lgan holida, bu jumlag'a kim, o'tdim Boboniyoz maxzum valad Nurveys maxzumdga har da'voi va xusumatim bo'lsa, kulli va jazoi moli va g'ayri moli har vajidin va har sababdin bo'lsin, xususan, uch tilloyi bir misqoli kim berub edim, mazkurga badal solih va jihatidin oning da'vosini o'tdim, bu kundin so'ng, shul vajidin mazkurg'a da'vo qilsam, shul da'vom mandin botil bo'lsin...**

**Hisor majlis: mullo Qilich, Avazmurod xalifa va Muhammadberdi xalifa.**

**Muhr: qozi askar domla Abdusattor oxund ibn domla Otaniyoz maxdum.**

Demak bu guvohlar ishtirokidagi majlisda tuzilgan hujjat bo'lib, hijriy 1276-yil shavval oyining 7-kuni, milodiyda 1860-yil 28-aprelda bitilgan bo'lib, Adhamboy Xolniyoz o'g'li Boboniyoz maxdum Nurveys maxzumdан o'z haqqi – 3 tillo 1 misqoli pul mablag'idan voz kechganligi keltirilgan. Guvohlar ismi ham qayd qilingan. Hujjatda qozi askar domla Abdusattor oxund domla Otaniyoz maxdum o'g'li muhr bosgan, demak Xiva xonligida 1860-yil qozi askar vazifasida domla Abdusattor oxund domla Otaniyoz maxdum o'g'li faoliyat olib borgan.

**2-tarixiy hujjat.**

Tarix hijriy ming ikki yuz to‘qson yettida mohi rabbi al soniyning yigirma yettisinda iqrar mu‘tabar sharri qildi, domla Pirmuhammad Badrxonli Boboboyning masjid qavmidin, ellik uch yoshar, o‘rta bo‘yli chol saqol, qo‘y ko‘zli, ochiq qoshli valad Boboboy, mazkur Pirmuhammadboy va mamot Oyjanbika bint Abduvaliboboning tarafindin endi mazkur bo‘lur, guvohi domla Xo‘janiyoz valad Ollohbergan va guvohi Sa‘dulloh valad domla Shermuhammad har biri ma‘daldurlar bu jumlag‘ki, sotdim uzul kesil bi‘a fazalozim sharri bila Sayidimboy valad Abduvali mazkurg‘a, hamki bir kishida bir tanob mazkuraning mulki koinadur, mavze mazkurda, hududi sharqo yo‘l va shimoli Karimquli va g‘arbi Xonishbika Ro‘zbika va janubi kafraba, barcha huquqi bila mablag‘ qirq tillog‘a, har biri to‘qquz tanga vazn...

**Hisor majlis. Guvohlar: Rohmanquli va Erniyozboy va Bolta so‘fi.**

**Muhr: qozi qozi ul-quzot Abdurahim ibn qozi Muhammadsharif eshon. 1290-yil.**

Bu tarixiy hujjat 1880-yil 8-aprelda tuzilgan Badrxon qishlog‘idagi Boboboy masjid qavmida yashovchi Pirmuhammad Boboyning o‘g‘li va Oyjanbika Abduvalibobo qizining guvohlari tarafindan Sayidimboy Abduvali o‘g‘liga bir tanob yerini 40 tilloga, tilloning har biri 9 tanga vaznga uzil-kesil sotganligi keltirilgan. Guvohlar Rohmanquli va Erniyozboy va Bolta so‘fi, ya‘ni guvohlar ishtirokidagi majlis. Qozikalon Abdurahim qozi Muhammadsharif eshon o‘g‘li muhri bilan tasdiqlagan. Demak 1880-yilda Xiva qozikaloni Abdurahim qozi Muhammadsharif eshon o‘g‘li bo‘lgan.

A.Urinbayev, T.Xorikova, T.Fayziyev, G.Djurayeva, K.Isogaylarning «Каталог Хивинских казийских документов XIX начала XX вв» Toshkent – Kioto – 2001 chop qilingan katalogidan, tarixiy hujjatlar va boshqa adabiyotlar yordamida Xiva xonligidagi qozikalonlar va qozi askarlarning ismlari ro‘yxatini jadval ko‘rinishida keltiramiz.

Xiva xonligida qozikalonlari ro‘yxati (1858 – 1920-yillar):

| TT/r. | Qozilik yillari | Ismi                   | Otasining ismi             | Necha yil qozikalon bo‘lganligi |
|-------|-----------------|------------------------|----------------------------|---------------------------------|
| 1.    | 1858-1882       | Abdurahim              | Qozi Muhammad Sharif eshon | 25                              |
| 2.    | 1883-1884       | Ibrohim                | Qozi Muhammad Sharif eshon | 2                               |
| 3.    | 1885-1888       | Inayatulloh oxund      | Nasrulloh maxdum           | 3                               |
| 4.    | 1889-1892       | Muhammad Sodiq xo‘ja   | Qozi Muhammad Siddiq       | 4                               |
| 5.    | 1892-1898       | Domla Ollohberdi oxund | Mullo Bobo                 | 7                               |

|     |           |                            |                         |    |
|-----|-----------|----------------------------|-------------------------|----|
| 6.  | 1899-1900 | Domla Muhammad Amin        | Domla Rahmatulloh oxund | 2  |
| 7.  | 1900-1916 | Domla Muhammad Salim oxund | Muhammad Said maxdum    | 17 |
| 8.  | 1916-1917 | Domla Xudaybergan oxund    | Nizomiddin xatib        | 2  |
| 9.  | 1918-1920 | Domla Hikmatullo oxund     | Sulton xo'ja            | 3  |
| 10. | 1920      | Eshon xo'ja oxund          | Ayyub xo'ja             | 1  |

Xiva xonligida 1855-yildan 1920-yilgacha bo'lgan qozi askarlar ro'yxati.

| T.r | Yillari   | Qozi askar ismi            | Otasining ismi             | Qozi askarlik davri |
|-----|-----------|----------------------------|----------------------------|---------------------|
| 1.  | 1855-1859 | Abdurahim                  | Qozi Muhammad Sharif eshon | 4                   |
| 2.  | 1860-1863 | Domla Abdusattor oxund     | Domla Atoniyaz maxdum      | 3                   |
| 3.  | 1864      | Domla Abdurazzoq           | qozi Abdug'ofur            | 1                   |
| 4.  | 1865-1866 | Domla Muhammad Nazar oxund | Domla Gayibnazar           | 2                   |
| 5.  | 1866-1868 | Eshmurod oxund             | Mullo Odina Muhammad       | 3                   |
| 6.  | 1869-1877 | Muhammad Latif oxund       | Eshniyoz oxund             | 8                   |
| 7.  | 1878-1884 | Domla Abdulloh oxund       | Domla Abdumumin oxund      | 7                   |
| 8.  | 1885      | Inayatulloh oxund          | Nasrulloh maxdum           | 1                   |
| 9.  | 1886-1888 | Domla Muhammad Solih       | Qozi Muhammad Muso xo'ja   | 3                   |
| 10. | 1888-1889 | Domla Muhammad Salim oxund | Muhammad Said              | 2                   |
| 11. | 1889-1891 | Do'stmuhammad oxund        | Mullo Muhammad Murod       | 3                   |
| 12. | 1891-1897 | Domla Muhammad Amin        | Domla Rahmatulloh oxund    | 7                   |
| 13. | 1897-1900 | Domla Muhammad Salim oxund | Muhammad Said              | 4                   |
| 14. | 1900-1903 | Domla Abdumalik oxund      | Qozi Muhammad Karim        | 4                   |
| 15. | 1904-1916 | Domla Hikmatulloh oxund    | Sultonxo'ja                | 13                  |
| 16. | 1917-1920 | Domla Ibrohim oxund        | Muhammad Aziz oxund        | 4                   |

Bu keltirilgan ma'lumotlar va jadvallar asosida Xiva xonligida XIX asr ikkinchi yarmidan 1920-yillargacha qozikalon va qozi askarning ismlarini,

faoliyat davrini aniqlash mumkin. Yana bu qozilar tomonidan madrasa bino qilganlar, ular domla Muhammad Salim oxund 1905-yilda va domla Hikmatulloh oxund (qozi askarlik vaqtida, bizgacha yetib kelmagan) 1916-yilda. Demak, xonlikdagi qozilar ta'lim-tarbiyaga befarq bo'lmagan, qurbi yetgani madrasa bino qilsa, deyarli hamma qozilar qozilik faoliyati bilan birgalikda madrasalarda dars berib, mudarrislik ham qilgan. Bularning hammasi yurtining kelajagi uchun xizmat qilgan.





Xiva xonligida XX asr boshlarida qozikalonlar kiygan chopon. Belidan yuqori qismida va yengida Qur'on suralari va oyatlari bitilgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Z.Husniddinov tahriri ostida. Islom ensiklopediyasi. A-H. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat milliy nashriyoti – 2004.
2. А.Уринбаев, Т.Хорикова, Т.Файзиев, Г.Джураева, К.Исогай. "Каталог Хивинских казийских документов XIX начала XX вв". Тошкент – Киото – 2001.
3. Davlatyor Rahim. Shixnazar Matrasul. Shoh va shoir qismati. Toshkent 1991-yil.
4. N.Mirzayev. XIX-XX asrlarda Markaziy Osiyo qozilik mahkamalarida oilaviy masalalarning hal qilinishi. Toshkent, 2014-yil.
5. Nizomiddin oxund Muhammad Salim oxund o'g'li kundaligi. Shaxsiy arxiv.
6. Abdullo Boltayev. Ko'k hoshiyali daftar. Avlodlari shaxsiy arxiv.

TARIX**XORAZMLIK NEMISLAR.****UO‘K 540.10**

**Sevara  
KUZIYEVA**

**Urganch davlat  
universiteti talabasi**

**Annotatsiya:** maqolada niderlandiyalik dinshunos Menno Simonsning XVI asrda xristian dinini isloh qilib, o‘z mazhabini yaratganligi va keyinchalik nemislarning bir qismi bu mazhabni qabul qilishlari hamda “mennonit”lar deb ataluvchi nemislarning paydo bo‘lishi to‘g‘risida so‘z boradi. Nemis mennonitlari yangi mazhab talablarini ado etishdagi ayrim taqiqlar sabab uzoq yillar davomida bir hududdan boshqasiga ko‘chib yurishga majbur bo‘lganliklari turli tarixiy manbalar asosida tahlil etilgan.

**Аннотация:** в статье упоминается о том, что голландский богослов Менно Симонс в XVI веке реформировал христианскую религию и создал свою секту, а позднее эту секту приняли и некоторые немцев, называемых «меннонитами». На основе различных исторических источников проанализирован тот факт, что немецкие меннониты были вынуждены на протяжении многих лет переселяться из одной местности в другую из-за определенных запретов в выполнении требований новой секты.

**Annotation:** in the article, the Dutch theologian Menno Simons reformed the Christian religion in the 16th century and created his sect, and later some Germans accepted this sect, and the emergence of Germans called "Mennonites", some prohibitions in fulfilling the requirements of the new sect. the reason that they were forced to move from one area to another for many years is analyzed based on various historical sources.

**Kalit so‘zlar:** mennonit, Menno Simons, “anabaptizm”, Marionburg, Yekaterina II, Chernigov, Odessa, Saratov, Samara, Voronej, “Genrix Bilsfeld”, “Karl Shtreyba”, “Krauze Shtraux”, “Georg Frik”, “Yakob Neyfeld”, “Mitrepol”, Turkiston, Zirabuloq, Qipchoq qishlog‘i.

**Ключевые слова:** меннониты, Менно Симонс, «Анабаптизм», Марионбург, Екатерина II, Чернигов, Одесса, Саратов, Самара, Воронеж, «Генрих Бильфельд», «Карл Штрайба», «Краузе Штраух»,

«Георг Фрик», «Якоб Нойфельд», «Митреполь», Туркестан, Зирабулок, село Кипчак.

**The keywords:** mennonite, Menno Simons, "Anabaptism", Marionburg, Catherine II, Chernigov, Odessa, Saratov, Samara, Voronezh, "Heinrich Bielfeld", "Karl Streiba", "Krauze Strauch", "Georg Frick", "Jacob Neufeld", "Mitropol", Turkestan, Zirabulok, Kipchak village.

Insoniyat tarixi qadim zamonlardan ko‘chishlar bilan bog‘liq, ibtidoiy davrda odamlar ozuqaga boy makonlarga ko‘chib yurgan bo‘lsalar, keyinchalik aloqa yo‘llari o‘tgan yer-suvga ega hududlarga ko‘chib o‘tib o‘troqlashganlar. Ilk davlatlarning vujudga kelishi va hokimiyat uchun urushlarda mag‘lub bo‘lgan etnik guruhlar majburan bir hududdan boshqasiga ko‘chishga majbur bo‘lgan. Yangi davrda ham xalqlarning ko‘chishi yoki ko‘chirilishi siyosati davom etgan. Ana shunday etnik guruhlardan biri, shubhasiz, mennonit nemislari hisoblanadi.

Mennonit nemislari dastlab Niderlandiya va Shveytsariya hududlarida paydo bo‘la boshlagan. Niderlandiyalik dinshunos Menno Simons XVI asrda xristian dinini isloh qilib, o‘z mazhabini yaratgan. Uning mazhabiga ko‘ra, qo‘lga qurol olib, urushlarda qatnashish, odam o‘ldirish, yomonlikka qurol kuchi bilan qarshilik ko‘rsatish, g‘ayriinsoniy, g‘ayridiniy holat, mudhish jinoyat va gunoh deb hisoblangan.


Aynan Menno Simons ta’limoti izdoshlari “mennonitlar” deb hisoblangan. Xristian dinining “anabaptizm” mazhabidan XVI asrda ajralib chiqqan protestantlik oqimidagi hozirgi Germaniyaning Marionburg shahridan bo‘lgan nemislar esa “mennonit nemislari” deb atalgan. Taqdir taqozosi bilan ular Xiva xonligi hududiga kelib joylashadilar va xonlik hayotiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadilar. Shu jihatdan olganda mennonit nemislarining Xiva xonligidagi xo‘jalik faoliyatini tadqiq qilishda ularning kelib chiqishi, turmushidagi urf-odat va an’analarini bilish maqsadga muvofiqdir va bu hol ishning dolzarbligini yanada oshiradi.<sup>4</sup>

Mennonitlar anabaptizm mazhabining davomchilari hisoblanib, bugungi kunda jamoa tarzida Kanada, Germaniya va AQSH kabi davlatlarda saqlanib qolgan. XVI asrda nemislarning asosiy qism xristian dinining katolik oqimiga e’tiqod qilishgan. Katolik dini qo‘lga qurol olib, urushlarda qatnashishni cheklamagan.

Mennonitlar ma’naviy qadriyatlarga qattiq amal qilib, nemislardan yopiq jamoa sifatida ajralib yashashgan. Nemislar asosan savdo-sotiq bilan

<sup>4</sup> <https://uz.englishlib.org/dictionary/uz-en/mennonitlari.html>

shug‘ullangan bo‘lsa, mennonit nemislarining asosiy mashg‘uloti dehqonchilik bo‘lib, ular jamoa manfaati uchun zarur bo‘lgan ishlarda beg‘araz mehnat qilishgan. Mennonitlarning yopiq jamoa ko‘rinishida yashaganliklari ularda savdo-sotiqning rivojlanishiga to‘sqinlik qilib kelgan. Mennonitlar qo‘lga qurol olishdan, harbiy xizmatni o‘tashdan va davlat ishida ishlashdan bo‘yin tovlashgan.



An'anaviy cherkov Menno va uning g'oyalarini tan olmagan. Mennonitlar bid'atchi va xurofotchi deb e'lon qilinib, quvg'in va qatl etilgan. Oqibatda ularning ko'pchiligi Shimoliy Germaniya va Prussiya hududlariga qochishgan.<sup>5</sup>

XIX asrning 60-yillarida Prussiya hukumatining urushga tayyorgarlik ko'rishi asnosida, mennonit nemislarini ham harbiy xizmatga jalb qilishga urinishi ularning vatanlari – Marionburgni tashlab ketishlariga majbur qildi.

Rossiya imperatoriga mennonit nemislaridan tushgan taklif – ularning rus sarhadlariga kirib kelishiga ijozat so'rashlari

ijobat bo'ladi. Shu tariqa ular XIX asrning 60-yillarida Volga bo'ylariga joylashib, nemis qishloqlarini tashkil qilishadi. Nemis millatiga mansub kishilarning Rossiya sarhadlariga ilk qadam qo'yishi Yekaterina II hukmronlik davridan boshlangan.

Hatto Yekaterina II 1763-yil 22-iyulda maxsus manifest e'lon qilib, xorijliklarning Rossiyaga ommaviy ravishda ko'chib kelishini rasmiylashtirishini ma'lum qiladi. Shu farmonga ko'ra nemislar qayerda yashashni istashsa, o'sha joydan maxsus yer ajratib beriladigan bo'ldi. Ular o'n yil davomida soliqlardan ozod qilindilar. Har bir ko'chib kelgan xonadonga 30 desyatina yer-mulk sifatida berildi. Asosiysi – Yekaterina II mennonitlarni harbiy xizmatdan ozod qilgan edi.

Ana shu imtiyozlar tufayli Sharqiy Prussiyadagi ko'plab nemis oilalari Rossiyaning Chernigov, Odessa, Saratov, Samara, Voronej guberniyalari va Peterburg shahri atroflariga ko'chib kela boshlashadi.<sup>6</sup>

<sup>5</sup> <https://kun.uz/news/2021/11/17/xorazmni-ozgartirgan-nemislar-xiva-xonligida-yashagan-mennonitlar-hayoti-va-ogir-qismati>

<sup>6</sup> U. Bekmuhammad. Xorazmda yashagan nemislar. – Urganch: Xorazm, 2019. – 6 b.

Shu tarzda Rossiyada sohiblari nemis bo‘lgan “Genrix Bilfeld”, “Karl Shtreyba”, “Krauze Shtraux”, “Georg Frik”, “Yakob Neyfeld”, “Mitropol” kabi firmalar faoliyat ko‘rsata boshlaydi.

Ular XVIII-XIX asrlarda Ural konlari, Sibir o‘rmonlari, Kavkaz neftining xo‘jayinlariga aylandilar. Ana shu tarzda Rossiyada faoliyat ko‘rsatayotgan nemislar safiga mennonit millatdoshlari kelib qo‘shilishdi.



Mennonitlarning Rossiyadagi tinch hayoti 1874-yilgacha davom etdi. Chunki o‘sha yili Rossiyadagi barcha dindagi erkaklarni harbiy xizmatga jalb qilish to‘g‘risida qonun qabul qilinib, qonun 1880-yildan kuchga kirishi e‘lon qilindi.<sup>7</sup>

Biroq mennonit nemislari katta imtiyozlar berilganiga qaramay, bu gal ham e‘tiqodlariga amal qilib, harbiy xizmat qilishdan bosh tortib yana sarson-sargardonchilikni boshlashga tayyorlana boshladilar. Badavlat mennonitlar Kanadaga ko‘chib ketishdi.

Shu vaqtlari mennonit nemislari orasida katta mavqega ega bo‘lgan Yantsen Turkiston general-gubernatori fon Kaufman bilan tanishib qoladi. Nemis zodagoni oilasiga mansub bo‘lgan fon Kaufman Yantsenga Turkistonga ko‘chib borishni taklif qiladi. Tag‘in millatdoshlarini 25 yil davomida harbiy xizmatdan ozod qilishga va‘da beradi. Bu taklif mennonit nemislari tomonidan 1879-yilda samimiy qabul qilinadi. 1880-yili Samara guberniyasidan Turkiston tomon 18

<sup>7</sup>U. Bekmuhammad. Xorazmda yashagan nemislar. – Urganch: Xorazm, 2019. – 7 b.

aravadan iborat mennonit nemislari yo'lga chiqishadi. Nemislar 18-oktabrda Toshkent yaqinidagi Koplonbekka joylashtiriladi.<sup>8</sup>

Mennonit nemislarining keyingi taqdirida yanada murakkabliklarni ko'rishimiz mumkin. Sababi 1881-yildan Turkistonda ham majburiy harbiy xizmat joriy etilishi, ularni Toshkentdan Buxoro amirligiga qarashli bo'lgan Zirabuloqdan panohtopishiga majbur qiladi.

Amir Muzaffar dastlab mennonitlarni o'z fuqaroligiga olishga rozilik beradi. Ammo ularning soni ko'pligi va hayot tarzi o'zgacha ekanini ko'rgach, xavotirlanib, fikrini o'zgartiradi.

“Mennonitlar tilimizni bilmaydi, yerga ishlov berolmaydi, ayollarining esa yuzi ochiq, bu yerdagilarga yomon o'rnak bo'ladi”, – deydi amir.

Shundan so'ng mennonitlar Xiva xonligidan yordam so'rashadi. Mennonit vakillari va Xiva xoni o'rtasida Xiva shahrida muzokara bo'lib o'tadi. Nemislarning Xorazmga kelishiga rozi bo'lgan Muhammad Rahimxon II faqat cho'chqa boqmaslikni iltimos qiladi. Nemislarning yashash joyi sifatida esa Amudaryoning 160 chaqirim quyi qismidagi kemalar yuradigan Lavzon kanali bo'ylari (hozirda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Amudaryo tumanidagi Qipchoq qishlog'i) ajratib berilishini ma'lum qiladi.

Mennonitlar jamoalari XVI asrdagi “Radikal islohot” dan kelib chiqqan. Mennonitlar protestantlardan ozod cherkovdir. Prussiya hukumatining mennonit nemislarini harbiy xizmatga jalb qilishga urinishi ularning o'z vatanini tashlab Rossiya hududlariga ko'chib ketishga majbur qilgan. Chunki mennonitlarning e'tiqodi qo'lga qurol olib urushishni taqiqlagan edi. Rus imperatori Aleksandr II tomonidan o'tkazilgan harbiy islohotga ko'ra nemis mennonitlari ham armiya safida xizmat qilishlari kerak edi. Bu islohot nemislarning noroziligiga sabab bo'ladi va ular Markaziy Osiyo, Amerikaga ko'chib keta boshlaydilar. Shuni xulosa qilib aytish mumkinki, son jihatdan ozchilik bo'lgan mennonit nemislari o'zlarining e'tiqodlari va turli tarixiy sharoit sababli bir necha asrlar davomida bir qancha joylarga ko'chib o'tishga majbur bo'lishgan va Xorazmda ham bir muddat qo'nim topishgan.

<sup>8</sup> <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/154>

## TARIX

### S.P.TOLSTOV ILMIY FAOLIYATI VA ARXEOLOGIK EKSPEDITSIYASINING TARIX FANIDA TUTGAN O'RNI

UO'K 540.20



**Umid  
BEKMUHAMMAD**

**Tarix fanlari bo'yicha  
falsafa doktori**

**Annotatsiya:** maqolada professor S.P.Tolstovning hayoti va ilmiy faoliyati tahlil qilinadi. Shuningdek, u boshchiligidagi arxeologik ekspeditsiyaning izlanishlari va yaratilgan asarlarining tarix fanida tutgan o'rni yoritib beriladi.

**Аннотация:** в статье анализируется жизнь и научная деятельность профессора С.П. Толстова. Также будет освещена роль исследований и работ археологической экспедиции под его руководством в исторической науке.

**Annotation:** the article analyzes the life and scientific activity of Professor S.P.Tolstov. Also, the role of the researches and works of the archaeological expedition under his leadership in the science of history will be highlighted.

**Kalit so'zlar:** arxeologiya, etnografiya, ekspeditsiya, qal'a, Xorazm, Sankt-Peterburg, Moskva, muzey.

**Ключевые слова:** археология, этнография, экспедиция, крепость, Хорезм, Санкт-Петербург, Москва, музей.

**Key words:** archeology, ethnography, expedition, fortress, Khorezm, St. Petersburg, Moscow, museum.

Zardusht, Al-Xorazmiy, Beruniy, Abulg'oz, Munis, Ogahiy va Bayoniydek Xorazmda tavallud topib, ushbu azim o'lka dovrug'ini dunyoga taratib o'tgan ajdodlarimiz soni ancha. Shu bilan birga esa, o'zi Xorazmda tug'ilib o'smagan bo'lsa-da, qadim vohaga mehr bog'lagan, shu o'lkaning tabiati, tarixi, madaniyati va san'atiga ixlos qo'ygan insonlar ko'p. Bunga esa Ibn Batuttadan tortib Vamberi-yu, A.Kunni, P.Ivanov singari xorijlik, yaqin tariximizdan oladigan bo'lsak esa S.P.Tolstov, Yahyo G'ulomov va Muhammadjon Yo'ldoshev kabi tarixchilarni aytish mumkin. Bular ichida Sergey Pavlovich Tolstov alohida ajralib turadi. Chunki, S.P.Tolstov Xorazmning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini, islomgacha bo'lgan davrda, qolaversa miloddan avval va milodning boshlaridagi voha hayotini o'z asarlarida yaratib butun dunyoga namoyish qildi. Bu esa osonlikcha kechgani yo'q...

1873-yil 29-mayda chorizm qo‘shini Xiva xonligini zabt etdi. Turkiston general-gubernatori fon Kaufman bu o‘lkada g‘alaba nashidasini surayotgan damda, Germaniyadan dunyoni lol qoldirgan shov-shuv tarqaldi. “Shlemen Troya qal’asini topdi”, “Uch ming yillik nodir qurol-aslahalar Turkiyadan Berlinga keltirilib, muzeyga qo‘yildi”. Bunday xabarlar Xorazmdagi bosqinchi amaldorlarni ham xuddi Shlemen singari nodir topilmalarni topishga undadi...

Nemis arxeologi Xenrix Shlemen bolalik chog‘idan Homerning “Iliada” va “Odisseya” dostonlarini yod olgan, qadimiy Troya urushining qahramonlarini hamisha ko‘z oldida gavdalantirib, tarix bilan oshno bo‘lib, voyaga yetdi. Vaqt o‘tib, Shlemen arxeologlik kasbini egalladi. Eramizdan ming yillar oldin Egey dengizi bo‘ylarida yuz bergan qonli voqealar tarixini kashf etdi. Bir so‘z bilan aytganda, afsona tarixiy haqiqatga aylangan edi.

Fon Kaufman ham ana shu shov-shuvni “Moskovskiye vedomosti” gazetasida o‘qidi. So‘ng Amudaryoning har ikkala qirg‘og‘idagi qadimiy Xorazm qal’alarida tadqiqot olib borish uchun Turkiston arxeologiya jamiyatini tuzish lozimligini ko‘ngliga tugib qo‘ydi. Negaki, fransuzlar Misrda, nemislar Turkiyada, inglizlar Hindistonda tarixiy yodgorliklarni tekshirib, ko‘pgina boyliklarga ega bo‘lishayotgandi. Chor Rossiyasi Turkistonda ham shu kabi ishlarni amalga oshirishni, topiladigan bor moddiy, ma’naviy buyumlarni Peterburg, Moskvaga tashishni istab qoldi. Shu niyatda Fon Kaufman topogrof, etnograf, geograf olim-zobitlardan qadim qal’alar aks etgan tarixiy va jug‘rofiy ma’lumotlar xaritasini tayyorlab berishni iltimos qildi. Ammo “yarim poshsho” Fon Kaufman, ilm-fan masalalarini harbiy va siyosiy masalalar kabi “bir zarb” bilan hal qilish mumkin emasligini anglamadi. Zero, necha ming yillik qal’a va makonlarni qum barxanlari ostidan izlab topishdek ishni bajarish uchun mustahkam e’tiqod, xudo bergan iqtidor, fan yo‘lidagi fidoyilik zarurligini bosqinchi chor generali o‘ylab ham ko‘rmagandi. Shu bois fon Kaufmanning orzusi armon bo‘lib qoldi.

Oradan yillar o‘tib esa, qadimiy Xorazm qal’alari sirini ochib, Henrix Shlemendek dovrug‘ taratish, fon Kaufmanga nisbatan butunlay boshqacha dunyoqarashdagi yana bir Rossiyalik kishiga nasib etdi.

Shaxsga sig‘inish avjga chiqqan 1937-yil bahor fasli boshlarida bir guruh tadqiqotchilardan iborat ekspeditsiya Amudaryoning janubiy sohillari bo‘ylab Xorazm vohasiga kirib keldi. Ekspeditsiya ixtiyorida o‘ttiz to‘rt nafar ilmiy xodim, bitta mashina, o‘n ikkita tuya, yigirmata ot, eshaklar va boshqa kerakli asbob-uskunalar bor edi.

“1907-yil 25-yanvarda Peterburgdagi harbiy zobit Pavel Tolstov va to‘qimachi Mariya Ivanovna Badayeva oilasida tug‘ilgan Sergey Tolstov bolaligidan sharq tarixiga mehr qo‘ydi. Shu bois Moskva davlat universitetining

tarix fakultetiga kirib o‘qidi. Moddiy madaniyat tarixi davlat akademiyasining aspiranturasida ham tahsil oldi. Dastlab Moskvadagi muzeylardan birida faoliyat yuritdi. Keyin esa bolaligidan ertag-u afsonalar orqali o‘zini maftun qilgan Xorazm tarixini o‘rganishga kirishdi. Birinchi marotaba u 1929-yilda ilk bora Xorazmga kelgan edi” [1].

S.Tolstovning Xorazmga qiziqishiga sabab – birinchidan, u talabalik davridayoq Volga bo‘yi xalqlari etnografiyasi bilan shug‘ullangan, bu xalqlarning moddiy va ma‘naviy madaniyatlarini o‘rganish jarayonida, bu madaniyatning talaygina jihatlari qadimgi zamonlarda uning O‘rta Osiyo bilan aloqalari bo‘lganligidan dalolat berardi. Bu esa Sergey Pavlovichni Xorazmga maftun qilib qo‘ydi. Ikkinchidan o‘sha davrda ilmda urfga aylangan g‘arbparast olimlarning sharq xalqlari taraqqiyotini inkor qiluvchi, sharq mamlakatlari azaldan sira barataraf qilib bo‘lmaydigan turg‘unlikka mahkumdur, degan da‘vosi, S.Tolstovning o‘zi 1963-yil 22-iyunda yozganidek, uning g‘azabini qo‘zg‘atgandi. Bunday qarashlarni o‘zgartirish uchun S.Tolstov yozganidek, *“Sharq xalqlari ham murakkab taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tganliklaridan, ular ham ayni o‘sha ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarni boshlaridan kechirganliklaridan, tarix Sharq boshqa-yu, G‘arb boshqa degan gapni bilmassligidan dalolat beruvchi rad qilib bo‘lmaydigan hujjatlar topish kerak edi-vazifa ana shundan iborat edi! Bu vazifani hal qilishda Xorazm materialiga zo‘r umid bog‘ladik”* [2]. Natijada ana shu umid bilan u barcha mashaqqatlarni yengib, 1937-yilda Xorazm arxeologiya va etnografiya ekspeditsiyasini tashkil qildi. Bu vaqtda u endigina o‘ttiz yoshga kirgan, g‘oyatda ziyrak va teran mulohazali yigit edi.

S.Tolstov Xorazmni boy tarixga ega hudud deb hisoblar, turkiy va forsiy tillarda bemalol gapira olar, har qanday kishi bilan darhol til topishib ketardi. Qariyalar bilan “Qur‘on” suralari xususida, xalq dostonlari to‘g‘risida so‘zlashar, ayollar bilan esa alla, yor-yor qo‘shiqlari haqida gurunglashardi. Mahalliy aholidan yo‘lboshlovchilar, ishchilarni ekspeditsiya ishiga jalb qilardi. Natijada bir paytning o‘zida Ko‘zali, Guldursun va Ayozi, Chilpiq, Kat, Devqal’a, Qo‘yqirilganqal’a hamda Tuproqqal’ada tadqiqot ishlari boshlab yuborildi.

U arxeologiyada birinchi bo‘lib topografik suratga olish ishlarida aeroplardan keng foydalandi. Olib borilgan dastlabki tekshirishlaridayoq topilgan ashyoviy dalillar Tolstovning ilmiy farazlari to‘g‘riligi – qadim qal’alar qum barxanlariga o‘z sirlarini bekitib olganini ko‘rsatdi. Shu tariqa 1937-1940-yillarda ekspeditsiya ko‘plab qal’alarni o‘rgandi. Ammo...

Ammo 1941-yilning iyunida boshlangan urush ishni orqaga surdi. Sergey Tolstov ham ko‘ngilli bo‘lib urushga jo‘nadi. Og‘ir artilleriya kapitani S.Tolstov

Moskva atroflaridagi janglardan birida oyogʻidan yaralangach, Moskva davlat universitetida ilmiy-pedagoglik faoliyatini davom ettirdi. Urushdan soʻng esa Xorazmga qaytib kelib, shogirdlari bilan ham tadqiqotlarini davom ettirdi. Urush tugagach, yaratilgan imkoniyat – Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasining faoliyat koʻrsatishi bilan Sergey Pavlovich tarix ummoniga butunlay shoʻngʻib ketdi. Toʻrtkoʻllik keksa pedagog, fidoyi oʻlkashunos, Qoraqalpogʻistonda xizmat koʻrsatgan madaniyat xodimi Ismoil Jumaniyozov Tolstov bilan uchrashganlarini shunday eslagan edi:

*“... Men Sergey Pavlovich bilan 1945-yilning yozida tanishdim. Oʻshanda rayon firqa qoʻmitasida boʻlim mudiri edim. Bir kuni sarkotibimiz Mahkam Mirzaahmedov meni oʻz xonasiga chaqirdi. Borsam u yerda baland boʻyli, yirik gavgali bir rus kishi oʻtirgan ekan. Stol ustida mis tangalar, sopol haykalchalar, yozuvli xum sinigʻi terib qoʻyilgandi. Bular Qoʻyqirilganqalʼadan topilgan ashyolar ekan. Shu kuni Tolstov bilan tanishdim. Mahkam aka arxeologiya ishlarini, Toʻrtkoʻlda faoliyat olib borayotgan ekspeditsiya holidan xabar olib turish, yordam berishni mening zimmamga yukladi. Bu vaqtda ekspeditsiyada oltmish-yetmish nafar kishi ishlardi. Sergey Pavlovich ularning salomatligini muhofaza qilish uchun shifokor ajratishni soʻradi. Shu tariqa arxeologlarga tajribali shifokor Seytmambet Oqnezarov biriktirildi” [3].*

Sergey Tolstov oddiy, kamtar kishi boʻlib, ekspeditsiyaning chodirdan tiklangan oshxonasida hamma qatori ovqatlanar, rahbarman deya manmanlikka berilmasdi. Ishni ham barcha qatori bajarardi. Ana shu kamtarinlik va fidoyilik Tolstovni akademik, yetuk olim darajasiga chiqardi. U 1946-yil 4-iyulda Moskvada boʻlib, Fanlar akademiyasiga Xorazmda ish olib borayotgan ekspeditsiyaga doir hisobot berdi: *“Shu davrgacha nomaʼlum boʻlgan 200 ta qalʼa siri ochildi. Oʻn bir ming kvadrat maydonda, yer qaʼrida 15-20 ming yil yotgan antropologik, arxeologik ashyoviy dalillar, ibtidoiy jamoa, quldorlik davri, qadimiy Xorazm davlatining paydo boʻlishi, yuksalishi va yemirilishiga doir ashyoviy topilmalar tarix fanida yangilik boʻldi. Qizilqum barxanlari ostida qolib ketayotgan, balandligi oʻn metrli Tuproqqalʼaning islomgacha boʻlgan davrda bunyod etilganligi aniqlandi. Bu yerdan katta qasr, qurol-aslaha ustaxonasi, podshohlar maskani, “harbiylar zali”, “gʻalaba va tantanalar zali” kabi ikki xonali koshonalar topildi”...*

Qalʼa qabrlaridan topilgan qulchilik davrining mahsuli – oltin, kumush, tanga pullar, bilaguzuk, zirak, boʻyinga osiladigan toshlardan ishlangan bezaklar dunyo tarix fanida katta shov-shuvga aylandi. Bu osori atiqalar ayrim olimlar orasida tarqalgan irqiy konsepsiyani, shuningdek, “sharq madaniyati” gʻarb sivilizatsiyasining aks-sadosi” degan shovinistik fikrni chippakka chiqardi.

Qolaversa, ekspeditsiya izlanishlari natijasida gʻarb bilan sharqni bogʻlab kelgan “Buyuk ipak yoʻli”ning Xorazm orqali oʻtgani aniqlandi.

Sergey Tolstovning Toʻrtkoʻl shahridan ikki chaqirim shimoliy-sharqda joylashgan, astronomik kuzatishlarga moslashtirilgan (eramizdan avvalgi IV asrdagi) minorali Qoʻyqirilganqalʼaning istehkomli devorlarini topgani ham fanda koʻpgina tafsilotlarni oydinlashtirdi. Chunki mazkur qalʼa geometriya, geodeziya, astronomiya fanlarining mohir bilimdonlari tomonidan bunyod etilganligi oy, quyosh, kun, yil hisoblari, dehqonchilik madaniyati belgilari bilan ajralib turardi. Ana shunday koʻplab topilmalarni oʻrganayotgan ekspeditsiya 1947-yil yana bir boy manbaga ega boʻldi. Shu yili avgustda Moskvadagi moddiy madaniyat yodgorliklari ilmiy tekshirish institutiga uzoq Qoraqum sahrosidan yoʻllangan telegramma yuqoridagi manba qandayligini koʻrsatadi: “Xorazmiy yozuvi topildi. Arxeologik ishlar davom ettirilmoqda. S.P.Tolstov. 1947-yil avgust. Toʻrtkoʻl”.

Tuproqqalʼadan arxeologlar topgan eng noyob topilma, shubhasiz, qadimgi Xorazm alifbosida yozilgan 100 dan ortiq hujjatlardir. Tuproqqalʼadagi ikkinchi qavatda podsho arxivi joy olgan boʻlib, paxsaning vaqt taʼsirida yemirilishi sabab ushbu hujjatlar birinchi qavatga tushib, koʻmilib qolgandi. Topilgan hujjatlardan 18 tasi yogʻoch taxtachalarda boʻlib, juda yaxshi saqlanib qolgan. Loy taxtachalarga yozilgan hujjatlarda yozuvlar deyarli koʻrinmasdi. Qadimgi Xorazm yozuvini S.P.Tolstov, undan keyin I.M.Dyakonov va V.A.Livshislar oʻqiganlar.

Professor S.P.Tolstovning taʼkidlashicha, ushbu topilgan hujjatlarda Tuproqqalʼada odamlar yashab turgan davrda hukmron kishiga tobe xonadon aʼzolari va odamlarning roʻyxatlari yozilgan. Boshqa hujjatlarda boʻlsa harbiy chaqiriq, soliq, aholi jon roʻyxatlari bitilgan. Hujjatlardan ayon boʻlishicha, ijtimoiy tabaqaning nufuzli kishilar bilan birga ularga tegishli qullar ham qayd etilgan.

XV – XIX asrlardagi hujjatlarda esa Tuproqqalʼa hukmdori omborlariga qabul qilingan don, xoʻjalik asbob-uskunalari, bir oʻrinda esa gʻildiraklar, ularning taqsimlab berilishi haqidagi tilxat-roʻyxatlar rasmiylashtirilgan. Bundan koʻrinadiki, Tuproqqalʼadagi ushbu hujjatlar davlatga tegishli hujjatlar boʻlgan. Hujjatlar singari qalʼadan har xil tangalar ham topilib, eramizning I asrida tangalar misdan, keyinroq kumushdan tayyorlanganini koʻrsatardi.

S.P.Tolstov ushbu tangalarni ham tadqiq qilib, ulardagi yozuv va belgilarga qaragan holda, ularni qaysi podsholik davrida ishlatilganini aniqlab berdi. S.P.Tolstovning aniqlashicha, tangalar “eng qadimgi Xorazm tangasi”, “nomsiz

Xorazm podshosi tangasi”, “Artav tangasi”, “Artamux tangasi”, “Vazamar tangasi” deya nomlangandi.

Tangalarda aks etgan hukmdorlik tasviri tushirilgan ramziy qiyofa-otliq chavandoz tasviriga qarab, S.P.Tolstov uni qadimgi Xorazm podsholariga mansub Siyovush sulolasidan bo‘lsa kerak, deya ta’kidlagandi.

S.P.Tolstov boshlab bergan ilmni I.M.Dyakonov, V.A.Livshislardan keyin Mirsodiq Is’hoqovdek tariximiz fidoyisi davom etdirdi. Uning ko‘p yillik sinchiklab o‘rgangan izlanishlari sabab, qadimiy Xorazm yozuvi, alifbo sifatida shakllanishi, o‘qilishi va yozilishi tadqiq etildi.

S.P.Tolstov va uning shogirdlari qal’adan Xorazmiy yozuvidan tashqari, devorlarga bitilgan monumental tasvirlar, uzum va olma terayotgan go‘zal qiz rasmi, alibastrdan ishlangan Gretsiya va Rim haykallari bilan raqobat qilaoladigan yodgorliklar ham topishdi. Xorazmga hukmdorlik qilgan er-xotin Vazamaralarning byusti, oq marmardan ishlangan burgut, marmar toshdan yasalgan habash haykali, oltin, kumush, mis tangalar va boshqa noyob topilmalar Moskvadagi sharq xalqlari muzeyi va Nukus san’at muzeylarining faxriga aylandi.

1951-1957-yillarda S.P.Tolstov boshchiligidagi arxeologlar Qo‘yqirilganqal’ada tadqiqot ishlarini olib, shu davrga oid ko‘plab ma’lumotlarni aniqlashtirishdi. Qal’aning ichki aylanasi 42, sirtqi aylanasi 87,5 va balandligi 8 metr bo‘lgan. Sirtqi devor bo‘ylab bir-biridan ma’lum masofa uzoqligidagi 9 burj qad ko‘tarib turgan. Arxeologlarning aniqlashiga ko‘ra, sirtqi aylanadagi xonalarda xizmatkor va qullar, ichki aylanadagi xonalarda – Arkda hukmron tabaqa kishilari yashashgan. Ark ikki qavatdan iborat bo‘lgan.

Qal’aning yumaloq markaziy minorasining balandligi 8 metrcha bo‘lgan. Quyi qavatdagi binolar devorning tomga tutash burchak qismida joylashgan derazalar orqali yoritilgan, deraza tokchalarining chuqurligi 7 metrga yetgan. Negaki, umumiy diametri 42 metrli minorani o‘rab olgan mustahkam devorning qalinligi ana shuncha bo‘lgan. Markazda joylashgan binolar tashqaridan 15 metrdan ortiqroq masofada mudofaa maqsadlarida qurilgan 9 ta minorali aylana devor bilan o‘rab olingan. Ushbu devor bilan markaziy minora orasidagi masofaga turarjoy, ombor, ustaxonalar qurilgan. Shunisi e’tiborliki, arxeologlarning aniqlashiga ko‘ra, tashqi doirada joylashgan binolarda markaziy minorada hayot to‘xtab qolgandan keyin ham hech bo‘lmaganda yana 200 yil davomida hayot davom qilgan. Qal’a devorining qurilishi o‘ziga xos me’morchilik uslubida bo‘lib, arifmetik va geometrik hisob-kitoblarga asoslangan.

S.Tolstov qal’ada astronomik kuzatishlarga mo’ljallangan besh derazali xonani sinchiklab o’rganib, topilgan ayrim uskuna qoldiqlariga qarab, Qo’yqirilganqal’ada rasadxona bo’lganini isbot-dalillar bilan aniqlashtirdi.

Tariximiz fidoyilaridan biri – Samandar Ismoilovning yozishicha, “S.P.Tolstov boshchiligidagi arxeologlar Qo’yqirilganqal’ada arxeologik qazish ishlari olib borgan yillari yollanib ishlagan qirqqizobodlik Kamol ota Saparov bilan suhbatlashganimda, u kishi o’z ko’zi bilan ko’rgan va guvohi bo’lgan, tariximiz uchun juda muhim bir ma’lumotni aytib berdi. Qazish vaqtida marmardan yasalgan va juda chiroyli qilib naqsh o’yilgan mayit topilgan. Mayit ichida esa mo’miyolangan ayol jasadi va besh kilogramm chamasida oltin va qimmatbaho taqinchoqlar, bezaklar bo’lgan. Arxeologlar uni Xorazm podshosining qizi, malikaning jasadi deyishgan. Bu mayit maxsus samolyotda Moskvaga olib ketilgan. Shu vaqtgacha biz hukmdorlar va malikalar jasadini mo’miyolash faqat Misrda qo’llanilgan, deb bilar edik. Kamol og’aning guvohlik berib aytgan bu ma’lumoti bizning yurtimizda ham jasadni mo’miyolash qadimgi davridayoq qo’llanilganini isbotlaydi. Qo’yqirilganqal’aga bog’liq yana bir muhim ma’lumotni tarix fanlari nomzodi, Qoraqalpog’istonda xizmat ko’rsatgan fan arbobi Iygilik Qo’simbetov gapirib berdi. U kishi bilan xizmat yuzasidan bo’lgan suhbatimiz tarixiy obidalarimiz haqidagi suhbatga aylanib ketdi. Uning tilidan aytilgan so’zlarni aynan keltirishga harakat qilaman:

1954-yili Nukus davlat pedagogika institutining tarix fakultetida o’qib yurganimda yozgi ta’tilda o’ntacha talabani Qo’yqirilganqal’aga – arxeologlarga yordam berishga olib borishdi. Bizlar bu qal’ada ikki oycha ishladik. Bir xonani qazib, tuproqlarni chiqarib tashlaganimizdan keyin ko’rdikki, shu xona devoriga matematik, trigonometrik teoremlarning formulalari yozilgan ekan. Ayniqsa, kosinus teoremasining formulasi yozilganini aniq ko’rdik. Moskvalik arxeologlar ularni rasmga tushirishdi. Lekin bu haqda na tarix fanida, na matematika yoki trigonometriya fanlarida yozilgan”.

Men bu haqda o’ylar ekanman, miloddan avvalgi IV asrga oid Qo’yqirilganqal’a devoriga yozilgan formulalar asosan kosinus teoremasining formulasi shu davr fanida bo’lganmi yoki fanga keyin kiritilganmi, degan savol paydo bo’ldi. Kitob izlay boshladim va kollejlarda uchun 2004-yilda nashr qilingan trigonometriya darsligidan bir qancha ma’lumotlarni topdim. Unda yozilishicha, sinus atamasi dastlab miloddan avvalgi II asrda yashab o’tgan grek olimlari Gipparx va Ptolomey asarlarida uchraydi. Kosinus atamasi esa V – VIII asrlarda hind olimlari asarlarida ishlatilgan. Markaziy Osiyoda esa dastlab Abul Vafo Buzjoniy sinuslar jadvalini tuzgan. XIII asrda yashab o’tgan Nasriddin at-Tusiy “To’la to’rtburchak haqida” asarida bu atamalar haqida ma’lumot bergan. Abu

Rayhon Beruniy, Ulug‘bek, Koshiy asarlarida trigonometrik teoremlarga oid atamalar rivojlantirilgan. Yevropadagi uyg‘onish davrida ingliz olimi Broduardin (1290-1349) asarida bu atamalar ishlatilgan. Keyin nemis matematik olimi Iogan Myuller (XV asr), polyak olimi Kopernik (XIV – XVI asr), Lobachevskiy (1792-1856) asarlarida rivojlantirilgan va hozirgi zamon fani darajasiga ko‘tarilgan. Yuqoridagilardan aniq ko‘rinib turibdiki, miloddan avvalgi IV asrga oid bo‘lgan Qo‘yqirilganqal’a devoridagi trigonometrik teoremlarning formulalari, jumladan, kosinus teoremasi formulasi dunyoning boshqa joylaridagidan qariyb 900 yil oldin yaratilgan va ulardan rasadxonani qurish va ishlatishda foydalanilgan. Devoriga trigonometrik teoremlar formulalari yozilgan xonada esa talabalarga dars berilgan, deyish mumkin.

A.Portugalovning “Все гороскопы мира” asarida Zand-Avestoda belgilab berilgan taqvim dunyodagi eng qadimiy taqvim bo‘lib, bu dunyodagi barcha taqvimlar ichida eng aniq va to‘g‘ri ekanligini ko‘rsatgan. Shuningdek, bu taqvim Saturn yulduzi aylanishiga asoslanib belgilanganini ko‘rsatgan. Bu ma‘lumotlar Qo‘yqirilganqal’aning nafaqat Markaziy Osiyoda, balki butun dunyoda ilm-fan o‘chog‘i, sivilizatsiya markazlaridan biri bo‘lganini isbotlaydi.

“Qo‘yqirilganqal’a tarixining dunyoviy ahamiyatga ega ekanligiga o‘zim ham bir necha marta guvoh bo‘lganman. Keyingi yillarda Ellikqal’a tumanimizga kelayotgan martabali mehmonlar, ayniqsa tarixiy obidalarimizni o‘z ko‘zi bilan ko‘rish uchun maxsus safar bilan kelayotgan chet ellik sayyohlar Qo‘yqirilganqal’a, Tuproqqal’a va Ayoqqal’aga olib borishni so‘rashadi. 1992-yili YUNESKO tomonidan tashkil etilgan “Buyuk ipak yo‘li – muloqot yo‘li” deb nomlangan safar ishtirokchilari 30 ga yaqin mamlakatlarning tarixchi-olimlari o‘z sayohatini dastlab Qo‘yqirilganqal’adan boshlashdi. 1995-yili “O‘zbekiston – Yaponiya ipak yo‘li” deb nomlangan olimlarning ilmiy safari ishtirokchilari yaponiyalik taniqli tarixchi-arxeolog Kzyudo kato va tarixiy obidalarni kosmik tadqiqot qilish bo‘yicha rahbar Sokata dastlab Qo‘yqirilganqal’aga borishga juda shoshildilar. Qo‘yqirilganqal’aga yetib borishimiz bilan ular mendan rasadxona qayerda bo‘lganini so‘rashdi. Men ularga rasadxona qal’aning ikkinchi qavatida bo‘lgan, mana bu esa pastki qismi deb, menga Moskvalik arxeolog Y.A.Rapoport ko‘rsatgan xona o‘rnini ko‘rsatishim bilan ham videokamerada, ham fotokamerada shu joyni o‘zgacha bir tezlikda suratga tushira ketishdi. Shu zahotiyoq ular qo‘l telefonida Yaponiyalik hamkasblariga ancha gaplarni aytdilar va keyin ko‘ngillari biroz taskin topgandek bo‘ldi.

Ikki kunlik birgalikdagi safarimiz chog‘ida suhbatimiz, savol-javoblar yo‘lda ham, boshqa tarixiy qal’alarga borganda ham asosan Qo‘yqirilganqal’a haqida bo‘ldi. Bir so‘z bilan aytganda, Qo‘yqirilganqal’a qadimiy sivilizatsiya markazi bo‘lganligini juda ko‘p misollar, ilmiy asoslar bilan gapirib berishdi.

A.I.Voysexovoskiyning 2005-yil Moskvada nashr qilingan “Asrlar siri” kitobida olimlar hozirgacha sir-u asrorini bilolmayotgan dunyodagi eng qadimiy sirli tarixiy joylar, hatto yer yuzida hozirgidan oldingi hayot davriga doir turli topilmalar, sivilizatsiya o‘choqlari haqida juda muhim ma’lumotlar berilgan. Shular qatorida kitobda Qo‘yqirilganqal’adagi rasadxona qurilishi va undagi ish faoliyati sirlari haqida ancha ma’lumot bor. Bu ham Qo‘yqirilganqal’aning dunyo taraqqiyoti tarixida alohida o‘rni borligini ko‘rsatadi.

Umuman, Qo‘yqirilganqal’a topilmalari orqali qadimgi davrda Xorazm madaniyatining naqadar rivojlanganligi bilan tanishamiz. Bu o‘rinda biz yana dunyoda madaniy rivojlanishning eng dastlabki markazlari deb tan olingan Misr va Grek madaniyati hamda san’atiga Xorazm madaniyatini taqqoslaydigan bo‘lsak, Hindiston va Eronda so‘g‘d va grek madaniyati ta’siri bo‘lsa-da, Xorazm madaniyati o‘ziga xos uslubda rivojlanganligini tushunib olamiz. Demak, Xorazm ham dunyodagi eng dastlabki ilm-fan va madaniy rivojlanish markazlaridan biri bo‘lgan. Shuningdek, bu qal’a otashparastlik dini markazi, diniy va dunyoviy bilimlarni o‘zida mujassam etgan “Avesto”ning vatanidir. Qo‘yqirilganqal’a Xorazmda madaniy rivojlanishning dastlabki markazi bo‘lganligini yuqoridagi ma’lumotlar to‘la tasdiqlaydi.

Shuning uchun ham Qo‘yqirilganqal’a vohamizdagi juda katta tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan bebaho qadimiy yodgorlik, afsonaviy qal’a sifatida tilga olinadi” [4].

Tabiiyki, Qo‘yqirilganqal’aning bu darajada dunyoda mashhur bo‘lishiga asos solgan, qal’ani 1951-57 yillarda tadqiq qilgan arxeolog Sergey Tolstov edi.

Aytishlaricha, arxeolog Sergey Tolstov Xorazm vohasi qal’alaridan topilgan barcha ashyolarni Moskvada emas, Nukus va Xivadagi muzeylarda asrash fikrini bildirgan. Urganchda Saviskiy bilan yangidan tarix muzeyi barpo etish tashabbusi bilan chiqqanlar. Ammo o‘sha davrda fanda ham byurokratik to‘siq va qoliplar yasab olgan olimlar qo‘lga kiritilgan topilmalarni tekshirish bahonasida Moskva va Leningradga olib borishni ma’qul topishgan.

Ekspeditsiya vohada faoliyat olib borar ekan, ko‘plab sirli voqealargayam duch kelgan. Ana shundan voqealardan biri eramizning II – III asrlarida qurilgan Qizilqal’ada sodir bo‘ladi. Ushbu qal’a baland g‘isht poydevor ustiga solingan bo‘lib, undagi turarjoy binolari kattagina gornizonga mo‘ljallangandi. Aniqrog‘i, ushbu Qizilqal’ada Xorazm podsholarining askarlari yashaydigan harbiy kazarma, janub tomonida askarlar mashq qiladigan kattagina maydon bo‘lgan.

Qal’a Xorazmning poytaxti bo‘lgan Tuproqqal’ani va shu vohani Sulton Uvays tog‘i orqali o‘tadigan qadimgi yo‘l tomonidan hamda Amudaryo tomonidan qo‘riqlab turishga mo‘ljallab barpo etilgan. Garchi vaqt o‘tib o‘rta

asrlarda Qizilqal'a qayta qurilgan bo'lsa ham, uning me'morchiligida dastlabki ko'rinish saqlab qolingan. Arxeologlar Qizilqal'adan Tuproqqal'aga boradigan yer osti yo'li bor deyishadi. Tarixshunos Samandar Ismoilovning ta'kidlashicha, bu yo'l hozirgacha qazib o'rganilmagan va bu haqda ma'lumot yo'q.

S.P.Tolstov tadqiq qilishicha, Qizilqal'a VI – VIII asrlarda ikki marta, XII – XIII asrlarda uch marotaba ta'mir qilingan va qal'ada hayot davom etgan. Afsuski, qandaydir bosqinchilik natijasida qal'aga o't qo'yilgan va yonib ketgan.

Samandar Ismoilovning ta'kidlashicha, shu atrofda yashovchi xalq orasida "Qizilqal'ada qandaydir karomat bor, u tilsimlangan bo'lsa kerak", – degan gap-so'zlar yuradi. Bu mish-mishga sabab turli voqealar hikoya qilinadi. Ana shunday voqealardan birini Samandar Ismoilovga, S.Tolstov ekspeditsiyasida oddiy ishchi bo'lib ishlagan Rajabboy Abdishukurov aytib bergan:

1950-yilning boshida S.P.Tolstov boshchiligidagi arxeologlar, ishchilar kechga yaqin Qizilqal'a yonida chodirlar qurib, ertaga ish boshlaymiz deb yotadilar. Ertalab tursalar chodirlari, karvatlari qanday qo'yilgan bo'lsa, shundayligicha Sulton Uvays tog'i etagida ekanliklarini ko'radilar. Keyin ular Tuproqqal'a yonida joylashib, Qizilqal'ani qisman o'rganganlar, xolos. S.P.Tolstov Qizilqal'a ostidagi tilsimlangan xonaga kirish uchun "Qur'oni Karim"ni va bir qancha duolarni yod olgan, keyin bu xonaga kirishga harakat qilgan, biroq kira olmay qaytib chiqqan. U yo'lakka kirishi bilan lampochka o'chib qolgani (tashqarida esa dvijok o'chmagan), qandaydir dahshatli maxluqlar kirishga qo'ymaganligini aytib, bu tilsimli qal'ani fan-texnika rivojlanishining eng yuqori cho'qqisiga chiqqanda ochish mumkin", degan.

Ha, Qizilqal'a va boshqa Xorazmdagi qal'alardayam shu va boshqa tilsimotlar bo'lishi ehtimol.

S.Tolstov ko'plab qal'alarni tadqiq qilar ekan, topilgan buyumlar vohada qolib, muzeylarga qo'yilsa, yosh avlodda vatanparvalik hissi uyg'onar, arxeologlikka havaskor yoshlar yetishib chiqardi, degan niyatda bo'lgan.

Vaqt o'tib, Sergey Pavlovichning orzularini uning ekspeditsiyasida birga ishlagan Saviskiy qisman bo'lsada amalga oshirdi.

Xo'sh, Sergey Pavlovichning bu maslakdoshi qanday xizmatlar qildi?

Aytishlaricha, S.P.Tolstov va I.V.Saviskiy 1960-yillarda Xorazm viloyati rahbarlariga Urganch shahrida muzey barpo etish tashabbusi bilan chiqqanida, "Xivadagi muzey oblastga yetarli, yana bir muzey nega kerak?!" deya po'pisa bilan javob qaytarganini eslab achinasan kishi. O'shandan keyin qoraqalpog'istonlik rahbarlarga murojaat qilishgach, ular Tolstov va Saviskiy taklifini ma'qul topishdi. Natijada Nukus shahrida jahonga mashhur qadimiy Xorazm sivilizatsiyasi, madaniyati, san'atiga oid buyumlar jamlangan tengi yo'q muzey ochildi va unga Igor Vitalyevich Saviskiy nomi berildi. Xo'sh, nega

qoraqalpoq diyoridagi mashhur o'lkashunoslik san'at muzeyiga o'zga millat vakili nomi berilgan?

I.V.Saviskiy asli kiyevlik bo'lib, 1946-yilda Moskvadagi tasviriy san'at institutini tamomlagan edi. Biroq hayotining asosiy qismi Xorazm va Qoraqalpog'istonda kechdi. U dastlab II jahon urushi davrida Samarqandda yashagach, bu yerdagi K.Istomin, R.Falkom, N.P.Ulyanov kabi rassomlar bilan birgalikda O'rta Osiyoning betakror boy madaniy yodgorliklariga ko'ngil qo'ydi va S.P.Tolstov boshchiligidagi Xorazm tarix va etnografiya ekspeditsiyasida qatnashishi uning hayotida o'zgarish yasadi.

Dastlab 1956-yilda Qoraqalpog'iston ilmiy-tadqiqot instituti majmuasida, keyinchalik esa tarixiy o'lkashunoslik muzeyida ishlab turib, ham rassom sifatida qoraqalpoq xalqi hayotini turfa ranglarda tasvirladi, amaliy san'at durdonalarini tadqiq qilish, to'plash ustida faoliyat olib bordi. Shuningdek, ana shu asarlarni o'z ichiga oladigan san'at muzeyini ochish tashabbusi bilan chiqdi.

Xalq amaliy san'atini durdonalarini to'plash va o'rganish uchun Kegeyli, Chimboy, Qo'ng'iro't, Mo'ynoq, Taxtako'pir, Ellikqal'a, Beruniy, To'rtko'l tumanlarini, butun Qoraqalpoq diyorini, Xorazm viloyatini ham eniga, ham bo'yiga kezib chiqdi. Safar davomida to'plagan durdonalarini esa Toshkent, Moskva shaharlaridagi ko'rgazmalarda namoyish qilib, qoraqalpoq xalqini jahonga tanitish yo'lida fidoyilarcha xizmat qildi.

1965-yilda "Fan" nashriyotida "Qoraqalpoq xalq amaliy san'ati: yog'och o'ymakorligi" nomli kitobini nashr etdirib, bu borada yana bir yangilikka qo'l urdi.

Ana shundan keyingina Qoraqalpog'iston Respublikasida davlat san'at muzeyini ochish amaliy tus olib, unga ilk rahbarlik Igor Vitalyevich Saviskiydek hassos rassom va san'atshunosning zimmasiga tushdi. Natijada qisqa muddat ichida Saviskiy boshchiligida to'plangan eksponatlar soni 50 mingdan oshib ketdi. Bu haqda xorij matbuoti "Sahrodagi durdona", "Qoraqumlar oralig'idagi Luvr" sarlavhali maqolalar chop etdi.

Saviskiyning qadimgi Xorazm san'at asarlarini to'plash faoliyati tufayligina ko'plab durdonalarning yo'qolib ketishining oldi olindi va qoraqalpoq xalq amaliy hamda tasviriy san'ati rivojlanib, yuqori bosqichga chiqdi.

U tabiat manzaralari – peyzajchi rassom bo'lgani bois, K.Saipov, J.Qutimuratov, D.To'raniyozov, A.Ataboyev singari qoraqalpoq rassomlari uni ustoz deb bilishardi.

Kezi kelganda shaxsga sig'inish davri bilan bog'liq yana bir tarixiy hodisani eslamasdan o'tib bo'lmaydi. O'tgan asrning boshlarida Yevropada paydo bo'lgan avangardizm oqimi ko'plab rassomlarni o'ziga jalb etgandi.

“Xalqlar dohiysi” Stalin avangardizm yo‘nalishida ijod qiladigan barcha rassomlarni to‘plab Orol dengizidagi “Borsa kelmas” oroliga badarg‘a etadi. Ularga oila a‘zolari bilan birgalikda tashqi olam bilan aloqa uzilib qolgan muhitda ijod qilish erkinligi berilgan bo‘lib bu joy o‘ziga xos tutqinlikdagi ijod kombinati vazifasini bajaradi. Stalin vafotidan so‘ng avangardchi rassomlarga amnistiya e‘lon etiladi. Keyinchalik ular “tuzalmas moxov kasallar” shifoxonasida qolib yashaganlar. I.V.Saviskiy rahbarlarni avangardizmga doir san‘at asarlarini arzon garovga sotib olishga ko‘ndiradi. Natijada butun dunyoda bebaho antikvarga aylangan asarlar Nukus san‘at muzeyini boyitdi.

Qoraqalpog‘iston xalqi o‘z farzandidek bo‘lib qolgan I.V.Saviskiyni Berdaq nomli mukofot bilan taqdirladi. 2002-yilda muzey uchun 3 qavatli yangi zamonaviy bino qurildi va uning nomi bilan ataladigan bo‘ldi.

Ha, rassom, arxeolog va san‘atshunos I.V.Saviskiy (1915-1984)ning Qoraqalpoq xalqi oldidagi xizmatlari unutilib ketmadi. Zero, u shunday e‘zozga sazovor ishlar qilib ketgandi.

Endi yana Tolstovning xizmatlariga qaytsak.

Ekspeditsiya a‘zolari, shuningdek, o‘nlab folklor asarlari, doston, latifa, ertak va afsonalarni ham yozib olishgandi. Sergey Pavlovichning o‘zi tekshirish natijalarini xolis va haqqoniy yoritilgan “Qadimiy Xorazm”, “Qadimiy Xorazm sivilizatsiyasini izlab”, “Qadimgi Oks va Oksart daltalari bo‘ylab” kabi monografiyalarda aks ettirdi. U Moskva davlat universiteti etnografiya kafedrasini mudiri, tarix fakulteti dekani, fanlar akademiyasining etnografiya instituti direktori bo‘ldi. “Sovetskaya etnografiya” jurnali bosh muharriri, ko‘p jildli “Jahon xalqlari” kitobi mualliflaridan biri va bosh muharriri sifatida aksariyat vaqtini Moskvada o‘tkazardi. Ammo o‘zini bir umrga maftun etgan Xorazm tarixi bo‘yicha nomzodlik (1935-yilda) va doktorlik dissertatsiyalarini (1947-yilda) yoqlagan o‘lkani sog‘inib, tez-tez kelib turdi. U tashkil etgan Xorazm arxeologiya etnografiya ekspeditsiyasi esa 1980-yillarning boshlarigacha vohada faoliyat ko‘rsatdi. Ana shu faoliyatlari samarasi o‘laroq, 1952-1979-yillar orasida o‘n olti tomlik “Xorazm arxeologiya etnografiya ekspeditsiyasi faoliyati” va to‘qqiz to‘plamdan iborat “Xorazm ekspeditsiyasi hujjatlari”, besh kitobdan iborat “Nizovya Sirdari v drevnosti” nomli kitoblarni nashr ettirdi, to‘rt jildlik O‘zbekiston xalqlari tarixini tayyorlashda qatnashdi.

Moskvadagi Mikluxo-Maklay nomidagi etnografiya institutining S.P.Tolstov asos solgan Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi 1937-yildan to 1991-yilgacha nafaqat qadim qal‘alar, ularning barpo etilishi, me‘morchiligi, o‘sha davrdagi hayotni, balki sug‘orish tizimi, vohadagi xalqlar etnografiyasi, hayot tarziniyam ilmiy tadqiq qildi.

Sergey Tolstov dunyo arxeologiya va etnografiya faniga katta hissa qo'shgan tarix fanlari doktori, professor, davlat mukofot sohibi, uch yuzdan ko'proq ilmiy asarlar muallifi edi. Antropologiya va etnografiya fanlari xalqaro uyushmasining vitse-prezidenti, Germaniya Fanlar akademiyasi muxbir a'zosi, Buyuk Britaniya qirolligi antropologiya instituti a'zosi ham bo'lgan. U O'zbekiston, Tojikiston va Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi kabi unvonlar sohibi ham edi.

S.P.Tolstov boshchiligidagi ekspeditsiya a'zolari safidan ham, vaqt o'tib o'z yaratgan asarlari bilan dunyo ilmu faniga mashhur, A.P.Terenojkin, M.A.Itina, Y.A.Rapoport, Y.E.Nerazik, A.V.Vinogradov, S.A.Trudnovskaya, A.N.Gertman va ularning shogirdlari yetishib chiqishdi.

S.Tolstov O'zbekistonda arxeologiyaning fan sifatida shakllanishi va o'zbek yoshlarini arxeologlikka jalb etishga muvaffaq bo'ldiki, natijada Yahyo G'ulomov, Iso Jabborov, keyinchalik esa Rustam Sulaymonov, Ahmadali Asqarov, Amriddin Berdimurodov, Shixnazar Matrasulov, Temur Shirinov, O'ktam Mavlonov, Qurbonboy Sobirov, Razzoqbergan Abdrimov, Qudrat Masharipov, Bahrom Sa'dullayev singari o'zbek, G'ayratdin Xo'janiyozov, Mirzamurod Mambetullayev, Narimon Yusupov, M.Qodirniyozov kabi ko'plab qoraqalpoq arxeologlari yetishib chiqdiki, bularda S.Tolstovning xizmati va u yoqib ketgan ilm mash'alasining o'rni katta.

S.P.Tolstov va uning shogirdlari, undan keyingi avlodga mansub arxeologlar mehnati tufayli quyi Amudaryoning birgina o'ng sohilida, Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida, qadimiy Xorazm tarixiga oid 123 ta davlat muhofazasiga olingan tarixiy, me'moriy yodgorliklar saqlanmoqda. Sergey Pavlovich va uning shogirdlari faoliyati sabab, vohaning eramizdan avvalgi IV minginchi yillaridan, ya'ni odamlarning ovchilik va baliqchilik bilan kun kechirgan davridan tortib, to eramizning XIV-XV asrlarigacha bo'lgan qadimiy tarixini ifodalovchi qal'alar, xalqlarning hayot tarzi o'rganilib, fan uchun olamshumul ishlar qilindi.

Ma'lumki, S.P.Tolstov 1937-yili quyi Amudaryo bo'ylaridagi qal'alarni tadqiq etish, suratga tushirish, xaritaga belgilashda fotograf Y.A.Polyakovga tayangan bo'lsa, qal'alarning qanday nomlanishi bo'yicha Shobboz (hozirgi Beruniy tumani)ning "Sakson bir" ovulida yashovchi tuyakash Sansizboy O'rumovdan ma'lumot olgan. Sergey Pavlovich Sansizboy bilan tuyada yurib, kimsasizga aylanib qolgan qal'alar bag'rida bo'lib qaytadi. Shuningdek, qal'a yaqinida uchratgan insonlar, asosan chorvadorlardan ham qal'a nomi, u to'g'ridagi ma'lumotlarni izlaydi. Ma'lumki, 1937-yilga kelib, hatto undan oldinroq ham ko'plab qal'alarning haqiqiy, barpo etilgan davrdagi nomi unutilib

ketgandi. Keyinchalik mahalliy aholi atab kelgan, shuningdek, Sansizboy O‘rumov va uning tanishlari aytib bergan nomlar arxeolog S.P.Tolstov, fotograf Y.A.Polyakovlar tomonidan xaritaga tushirilib, suratga olindi. Ana shu boisdan ham qal’alarning asl nomi mavhumligidan, S.O‘rumov ularni qozoqcha aytganligi tufayli, (Jombosqal’a, Jampiqqal’a va boshqalar) fanga ushbu atamalar qozoq tilida kirib qoldi.

Biroq qal’alardagi olib borilgan arxeologik tadqiqotlar Xorazmning jahon sivilizatsiyasiga katta hissa qo‘shganini butun dunyoga ma’lum qildi.

Ammo Tolstovning faoliyatiga munosabat hamma vaqt ham silliq kechmagan. Ayrim g‘alamislar va shovinist olimlar, siyosatshunoslar uni turli bahonalar bilan ayblashgandi. Xususan, tarix fanlari doktori, Sibir universiteti professori Nikolay Matveevning eslashicha, 1949-yilda Sergey Tolstovni “Oriylar vatani qayerda u?” nomli tadqiqoti uchun sharqparastlikda, tadqiqotni yozganda masalaga ma’suliyatsizlik bilan yondashganlikda ayblashgan. O‘shanda mashhur arxeolog ilmiy muxoliflari to‘plangan majlisda yevropaparastlik eng yomon illat ekanligini gapirgan ekan. Sharq xalqlari madaniy merosiga mensimasdan qarash, yumshoqroq qilib aytganda nodonlik, ilmiy atamalar bilan aytganda esa g‘irt bilimsizlik, g‘ayirlik deb aytgan va o‘z fikrini quyidagicha ifodalagan:

*“Ovrupa sharq madaniyatiga hamisha taqlid qilib kelgan. Undan namunalar olgan. Sharq olimlari ovro‘palik olimlar tasavvurida XVIII asrgacha erishib bo‘lmas yuksaklik cho‘qqisi bo‘lib ko‘ringan. Faqat keyingi ikki-uch asr ovrupa ijtimoiy taraqqiyotini umumjahon taraqqiyotining yetakchisiga aylantirgan, xolos. Bunday qarasang, Ovrupa madaniyati asosida Sharq xalqlarining ma’naviy barkamolligi yotganligini hamma ham tushunishni istamaydi. Shu bois Ovrupa taraqqiyoti to‘laligicha sharq fani muvaffaqiyatlarini o‘zlashtirib olish hisobiga bo‘lganligini ham xolisona e’tirof etmog‘imiz lozim”.*

Shu tarzda Xorazmga bir umr bog‘lanib qolgan arxeolog mustahkam iroda bilan, tarixni xolis va haqqoniy o‘rganishga intildi. Professor Nikolay Ivanovich Matveyevning Sergey Tolstov oila a‘zolari fikridan kelib chiqib aytishicha, 1976-yil 28-dekabrda Moskvada hayotdan ko‘z yumgan arxeolog vafotidan bir kun oldin Xorazm qovunini so‘ragan, jasadini Xorazmga dafn etishni iltimos qilgan ekan. Ammo, afsuski, Xorazm tarixiga, san’ati va madaniyatiga bir umr muhabbat qo‘ygan olimning bu ikki istagi ham amalga oshmadi.

Endi bevosita kitobga qaytadigan bo‘lsak, ushbu asar o‘z vaqtida chex, fransuz, polyak, nemis, rumin, venger, urdu va boshqa tillarga tarjima qilinib, dunyo ilm ahlining e’tibori va e’tirofini qozondi. Sergey Pavlovich ushbu asarini bevosita o‘zi o‘tkazgan arxeologik tadqiqotlari asosida, shuningdek, Xorazm tarixiga doir ko‘plab qo‘lyozma manbalar, xalq o‘rtasida tarqalgan afsona,

rivoyatlarni bir-biriga taqqoslagan holda yozdi. Kitob arxeolog olim qalamiga mansub bo'lgani bilan, u faqatgina ilmiy muhohasalardangina iborat emas. Balki publitsistik uslubi ila ham o'quvchi diqqatini tortadigan yuksak tafakkuri bilan, tarixning sahifalarini qayta tiklashga e'tibor qaratadi.

Asarda olim shu sarhadda yashagan xalqlar hayotini batafsil o'rganibgina qolmay, tarix hukmi bilan boshqa joylarga ko'chgan turli xalqlar taqdiriga ham e'tiborni qaratadi. Shuningdek, qo'shni davlatlarda bo'lgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonni ham sinchkovlik bilan tadqiq qilib, shularni Xorazmda kechgan jarayonlar bilan bog'lashga urinadi. Chunki, sharq tarixi va xalqlar taqdiri bir-biriga qo'shni bo'lgan xalqlar hayoti bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois ham kitob mavzusi qadimiy Xorazmning sivilizatsiyasi bo'lgani bilan, unda insoniyat qadim izlarining madaniy tamadduni ham aks etgan.

Xullas, kitobga yana ko'plab ta'riflar bermoq mumkin. Biroq uni o'zingiz o'qiganingiz va sizda ham turlicha taassurotlar uyg'ongani ma'qul.

Tabiiyki, Tolstov shaxsga sig'inish avj olgan 1937 – 1953-yillarda Xorazmda arxeologik tadqiqotlar olib borgan uchun, qolaversa, ushbu asari 1948-yilda nashr etilgani sabab, so'zboshi va xotima qismida o'sha davr mafkurasidan kelib chiqib, zamonaga xos fikrlar bildirgan.

Bu holat, 1964-yildagi o'zbekcha tarjimada ham aks etgan. Tabiiyki, bugun o'sha so'zboshi va xulosadagi fikrlarga tanqidiy qaramoq lozim va shu bois o'shanday lavhalarni biz ushbu qayta nashrda chop etmadik.

“Fan va turmush” jurnalida ma'sul kotib bo'lib ishlagan Anvar Muhammadqulovning bunday katta asarni tarjima qilgani esa tahsinga loyiqdir. Tarjimada ham sobiq sho'ro davriga xos o'sha zamondagi mafkuraviy holatdan kelib chiqib, ruscha va boshqa baynalminal so'zlar ishlatilgan, ba'zi tahrirtalab bir gapda ikki-uch so'zning qayta ishlatilgani kabi juz'iy kamchiliklar bor ekan.

Bundan tashqari, 1948-yildagi ruscha nashr o'zbekchaga tarjima qilganda “Qadimiy Xorazm sivilizatsiyasini izlab” degan ma'noni anglatadi. Rahmatlik Anvar Muhammadqulov esa o'zbekcha nashrni o'zimi, yoki nashriyot xodimlari bilan maslahatlashibmi, “Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab” deya nomlagan ekan. Ma'lumki, sivilizatsiya madaniyatga qaraganda keng tushuncha va S.Tolstov ham asarda tasvirlanganidek, Xorazmning insoniyat sivilizatsiyasiga hissa qo'shganini tadqiq etishga harakat qilgan. Shu bois asarni S.P.Tolstov dunyoqarashidan va ruscha nashrdan kelib chiqib sarlavhani o'qiganingizdek nomladik va boshqa o'rinlardayam tarjimini qayta tahrir qilishga to'g'ri keldi. Bunda eng avvalo 1964-yildagi tarjimini 1948-yildagi asl ruscha nusxaga solishtirib chiqdik. Bu borada bizga katta yordam bergan va har ikkala nashrni

topib bergan YUNESKO qoshidagi xalqaro axborot akademiyasining akademigi, professor Xudoyor Ollayorovga minnatdorchilik bildirib qolardik.

Qolaversa, Xudoyor Ollayorov (u 1931-yilda Xivada tugʻilgan boʻlib, Samarqand tibbiyot institutini tugatgan, 1957 – 1961-yillarda Yaltadagi “Oʻzbekiston” sanatoriyasida, keyin esa Moskvadagi ilmiy tekshirish institutlarida, Moskva davlat universitetida, Sobiq ittifoq davlat teleradiokompaniyasida konsultant boʻlib ishlagan, 20 dan ziyod davlatlarda ilmiy safarlarda boʻlgan, 29 tilda 137 mamlakatda asarlari chop etilgan tibbiyot va tarix bilimdoni) Moskva davlat universitetida ishlab yurgan 1976-yilda etnograf doʻsti G.Snesaryov (Snesaryov Tolstovning ham doʻsti boʻlib, ikkalasi Xorazmda arxeologik tadqiqotlar olib borishgan – U.B.) bilan Sergey Pavlovichning kasal yotganini eshitib koʻrgani borgan, X.Ollayorovning aytishicha, oʻshanda Tolstovning ahvoli gʻoyat ogʻir ekan. Oʻsha uchrashuvdan koʻp oʻtmay, 28-dekabrda buyuk arxeolog vafot etadi.

Garchi, u jisman vafot etgan boʻlsa-da, (ilk bora 2003-yilda *“Qishloq hayoti”*, 2004-yilda *“Darakchi”* gazetalarida S.Tolstovning hayoti va ilmiy faoliyatini targʻib qilish asnosida, uning nomini Xorazmda abadiylashtirishni, 2007-yilda 100-yillik yubileyini oʻtkazishni taklif qilgan edim. Oʻsha yili esa *“Xorazm”* nashriyotida *“Tariximizning teran tadqiqotchilari”* toʻplamimni nashr ettirib, undayam S.Tolstov hayoti yoritib oʻtilgandi. 2007-yilda Xorazmlik jonkuyar oʻlkashunoslar Komiljon Nurjonov va Albert Nuriyevich Salim-Gareevlar buyuk arxeolog yubeleyini oʻtkazishga intilishdi. Qoraqalpogʻistonning Ellikqalʼa tumanidagi Boʻston shahri tarix va sanʼat muzeyiga 2007-yilda S.P.Tolstov nomi berildi va olimning byusti oʻrnatildi) arxeolog sifatida yaratgan asarlari bilan nomi hamisha boqiydir. Buni qoʻlingizdagi asar ham tasdiqlab turibdi.

S. Tolstov ushbu asarida Xorazm tarixini yaratishni oʻz oldiga maqsad qilib olmagan. Biroq Sergey Pavlovichning shu va boshqa asarlarisiz nafaqat Xorazm, balki butun Markaziy Osiyo xalqlari tarixini tasavvur etish qiyin.

Xorazmda tugʻilib ham shu oʻlka tarixini, buyuk farzandlarining hatto nominiyam bilmay yashab oʻtgan odamlar koʻp boʻlgan. Biroq Sergey Pavlovich Tolstovning faoliyatini kuzatib, uni bemalol Xorazm farzandi deya atash mumkin. Agarki, har bir xorazmlik S.Tolstovning loaqal ushbu kitobidan bir parchani oʻqiganida, oʻzida gʻurur va iftixor hissini tuyardi. Shu bois ham biz ushbu kitobni nashrga tayyorladik. “Qadimiy Xorazm sivilizatsiyasini izlab” nomli S.P.Tolstovning ushbu kitobi 2014-yilda Toshkentdagi “Yangi asr avlodi” nashriyotida 1000 nusxada nashr etildi. 50 yildan keyin qayta nashr etilgan ushbu kitobga kamina maʼsul muharrirlik qilgan, soʻzboshisini yozgandim.

Ushbu monografiya qayta chop etilgach, professor S. Roʻzimboyev, dotsent R. Yoʻldoshevlar taʼkidlaganlaridek, “S.P. Tolstov asar voqealarini ilmiy-ommabop tilda bayon qilgan. Turli afsona va rivoyatlardan oʻz oʻrnida foydalangan. Shu boisdan asar kitobxon tomonidan qiziqib oʻqiladi. Bu asarning qayta nashr qilinishi madaniy hayotimizda quvonarli voqea boʻldi” [5].

S.P. Tolstov asarining qayta nashri boʻyicha matbuot va internet saytlarida koʻplab ijobiy taqrizlar chop qilindi. Jumladan “Xorazm haqiqati” gazetasining 2014-yil 26-mart sonida tarixshunos Komiljon Nurjonovning “Qayta tiklangan asar”, shuningdek, yana shu muallifning Oʻzbekiston xalq shoiri, tarixshunos Xurshid Davron bosh muharrirligidagi h-davron.uz saytida (shoir Komil Avazning ham shu saytda maqolasi, “Gurlan hayoti” gazetasining 2014-yil 26-mart sonida “Tariximiz fidoyisi”, yana shu gazetaning oʻsha yil 30-iyul sonida psixologiya fanlari nomzodi Nigora Qodirovaning “Maʼnaviy tuhfa”, “Yangibozor koʻzgusi” gazetasining 2014-yil 10-iyul sonida Oʻzbekiston sanʼat arbobi Soliy Davletovning “Tarixiy merosning tiklanishi” sarlavhali maqolalari nashr etildi.

Bundan tashqari, qayta nashr toʻgʻrisida soʻzboshi muallifiga professor Madrahim Mahmudov, ixtirochi ratsionalizatorlar Narimon Tajaddinov, Turgʻunboy Julduzboyevlar ham oʻzlarining ijobiy fikrlarini bildirishdi.

Shuningdek, 2014-yil 27-iyundagi matbuot va ommaviy axborot vositalari kuni munosabati bilan qayta nashr maʼsul muharriri, soʻz boshi muallifi Xorazm viloyat hokimining faxriy yorligʻi va qimmatbaho sovgʻasi bilan taqdirlandi.

Xullas, shu tarzda S.P. Tolstovning kitobi voha ahlida katta qiziqish uygʻotdi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. U. Bekmuhammad “Xorazm va xorazmliklar. Birinchi kitob. “Durdona” nashriyoti, Buxoro – 2022-yil.
2. S.P. Tolstov “Qadimiy Xorazm sivilizatsiyasini izlab”, “Yangi asr avlodi” nashriyoti, Toshkent – 2014-yil.
3. I. Jumanioyov “Ullibogʻ shajarasi”, “Xorazm” nashriyoti, Urganch – 1995-yil.
4. S. Ismoilov, “Qadimgi Xorazm qalʼalari”, “Oʻzbekiston milliy kutubxonasi” nashriyoti, Toshkent – 2007-yil.
5. S. Roʻzimboyev, R. Yoʻldoshev, “Ilm sarchashmalari” jurnali, 2014-yil, 7-son.

**FILOLOGIYA****O‘ZBEK VA INGLIZ MAQOLLARINING UMUMINSONIY  
XUSUSIYATLARI**

**Ugiljon  
AXMEDOVA**

**Urganch innovatsion  
universiteti  
o‘qituvchisi**

**UO‘K 570.511**

**Annotatsiya:** maqolada o‘zbek va ingliz maqollarining umuminsoniy xususiyatlari va ularning xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlariga nisbatan o‘xshash va farqli jihatlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, ayrim o‘zbek va ingliz maqollarini tahlilga tortish orqali ularning muqobil variantlari keltirilgan hamda semantik xususiyatlari yoritib berilgan.

**Аннотация:** в статье ставится задача рассмотреть универсальные характеристики узбекских и английских пословиц, их сходства и различия по сравнению с другими жанрами народного творчества. Также путем анализа некоторых узбекских и английских пословиц представлены их альтернативные варианты и выделены их смысловые особенности.

**Annotation:** the article aims to consider the general characteristics of Uzbek and English proverbs and their similarities and differences compared to other genres of folk art. Also, by analyzing some Uzbek and English proverbs, their alternative options are presented and their semantic features are highlighted.

**Kalit so‘zlar:** maqol, paremia, xalq, folklor, mantiq, omil, janr.

**Ключевые слова:** пословица, паремия, народ, фольклор, логика, фактор, жанр.

**Key words:** proverb, paremia, people, folklore, logic, factor, genre.

Til, falsafa va badiiy ijodning o‘ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqollari folklorning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo‘lgan janridir. Har biri tilimiz ko‘rkini, nutqimiz nafosatini, aql-farosat va tafakkurimiz mantiqini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish eta oladigan bunday badiiyat qatralari xalqimizning ko‘p asrlilik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir. Bu badiiy oynada uning hayotga, tabiatga, inson, oila va

jamiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-estetik va falsafiy qarashlari, qisqasi, o'zi hamda o'zligi to'la namoyon bo'lganidir.<sup>9</sup>

Shu sababli maqollar g'oyatda keng tarqalgan bo'lib, asrlar davomida jonli so'zlashuv va o'zaro nutqiy munosabatlarda foydalanibgina qolmay, balki badiiy, tarixiy va ilmiy asarlarda, siyosiy-publitsistik adabiyotlarda ham doimiy ravishda qo'llanib kelingan hamda bugungi kunda ham juda faoldir.

Xalq paremik ijodiyoti o'ziga xos qonuniyatlar va rivojlanish tamoyillariga ega. Uning bu xususiyatlarini folklorshunoslikning paremiologiya sohasi o'rganadi. Maqollar ustida izlanishlar olib borar ekanmiz, shu o'rinda paremiologiya sohasiga murojaat qilishimiz shart. **Paremia** grekcha so'z bo'lib, **hikmat, naql, hikmatomuz obrazli ibora** ma'nolarini anglatadi. Xalq paremik ijodiyoti namunalarini to'plash va yozib olish hamda kitobat qilish bilan esa **paremiografiya** shug'ullanadi.<sup>10</sup>

Folklorida maqol janri hikmatga yo'g'rilganligi, g'oyat ixcham, lo'nda va obrazli ifodalanishi bilan xalq paremik ijodining bir qismini tashkil etadi. Biroq maqol janri bugungi kungacha alohida adabiy tur sifatida e'tirof etilmay, goh xalq nasri, goh xalq poeziyasi tarkibida mavhum holda kichik tur tarzida ko'rib kelinmoqda. Maqol xalqning ko'p asrlar mobaynida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda to'plagan tajribalari, kuzatishlari asosida yuzaga kelgan ixcham, chuqur mazmunga ega bo'lgan og'zaki ijod janrlaridan biridir. Maqol atamasi arabcha **qavlun – gapirmoq, aytmog** so'zidan olingan bo'lib, aytilib yuriladigan ifoda va iboralarga nisbatan qo'llaniladi. Barcha tomonidan deyarli bir xilda aytilib, bir xilda tushuniladigan ibora, ifodalar, asosan, maqol janrini tashkil qiladi.

Demak, xalq maqollari ommaning muayyan voqea, hodisalar haqidagi xulosalarini, hukm va tavsiyalarini o'zida mukammal tarzda mujassamlashtirgan o'ziga xos badiiy shaklga ega bo'lgan ifoda va iboralardan iboratdir.

O'zbek xalq maqollari ko'pincha **maqol, masal, matal, zarbulmasal, naql, hikmat, foyda, hikmatli so'z, tanbeh, mashoyixlar so'zi, donolar yoki donishmandlar so'zi, oqinlar so'zi va otalar so'zi** atamaları bilan el orasida mashhur. Ko'pincha ilmiy taomilda maqol atamasi iste'moldadir.<sup>11</sup> Maqollar o'z tabiatiga ko'ra xalqaro janr hisoblanadi. Dunyoda o'z maqollariga ega bo'lmagan xalqning o'zi yo'q. Chunki har bir xalq hayotiy tajribalarini maqollar shaklida avlodlarga qoldiradi. Shuning uchun ham turli xalqlar og'zaki ijodida mazmun va

<sup>9</sup> Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. – T.: Sharq, 2010. – 207-b.

<sup>10</sup> Marvin, D.E. Antiquity of Proverbs. - New York and London: G.P Putnam Sons, 1922. – 103 p.

<sup>11</sup> Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. – T.: Sharq, 2010. – 207b.

shakl jihatidan bir-biriga yaqin hamda hamohang maqollar ko‘p uchraydi. Chunki har bir xalq hayoti va tarixida juda ko‘p o‘xshashliklar, umumiyliklar mavjud.

Ingliz tilida maqol atamasi asosan **“proverb”** so‘zi orqali ifodalanadi. Ba‘zan ko‘plab adabiyotlarda: **adages, dictums, maxims, mottoes, precepts, saws, truisms** so‘zlari orqali ham maqol tushunchasini berishimiz mumkin.<sup>12</sup> O‘zbek xalq maqollari singari ingliz xalq maqollari ham ingliz folklorning eng keng tarqalgan janrlaridan biridir. Ko‘pincha tuzilishi, folklorda o‘rganilishi va yana boshqa jihatlari bilan o‘zbek maqollariga o‘xshash holda umumiy jihatlarni ko‘rsatadi.

Xalq maqollariga murojaat etganda, ulardagi tarixiylikni hisobga olish lozim. Chunki bugungi kunda nutqimizda ishlatilayotgan maqollarning ko‘pchiligi o‘tmishda yaratilganligi bilan xalq psixologiyasi, dunyoqarashidagi cheklanganlik va ziddiyatlar aniq ifodasini topgan. Binobarin, xalq maqollarini to‘plash, ularning tabiatdagi turli davrlarga xos qatlamlarini izchil sinfiylik nazaridan o‘rganish lozim. Masalan, o‘zbek xalq maqollaridan biri **“Boy boyga boqar, suv soyga oqar”** maqolini jamiyatning qaysi davrida va qanday sinf vakillari tomonidan aytilganligini anglash bir qarashda qiyin. Agar maqol mehnatkash xalqning nutqida qo‘llanilgan bo‘lsa, u shu sinf manfaatlariga xizmat qiladi yoki aksincha. Yoki ingliz maqollaridan **“A fool’s bolt is soon shot”** maqolini ko‘rib chiqsak. Maqolning tarjimasi – **ahmoqning kamon o‘qi tezda otilar**. O‘zbekcha muqobil varianti **“Ahmoqning boshiga aql yopishtirib qo‘ysang, qo‘li bilan ko‘chirib tashlaydi”**. Agar tarjimadan kelib chiqadigan bo‘lsak, maqolni uzoq o‘tmishda yaratilganligiga shubhamiz yo‘q, albatta. Chunki unda ishlatilgan **“bolt”** ya‘ni **“kamon o‘qi”** o‘tmishda, urush davrlarida yaratilgani sezilib turadi. Demak, maqollardagi konkret sinfiy funktsiya ularning nutqda qo‘llanish o‘rniga qarab belgilanadi. Ammo maqollar qaysi davrda yaratilishidan qat’iy nazar, ular yana nutqqa qaytib faollashishi mumkin. Biz bu fikrimiz bilan **“Boy boyga boqar, suv soyga oqar”** yoki **“A fool’s bolt is soon shot”** maqollarini “bugungi kunda nutqimizda faol emas” demoqchi emasmiz. Biz bu holatda maqollarning kelib chiqishi yoki yaratilishi ma’lum bir davrga, holatga bog‘liq bo‘lishini aytmoqchimiz, xolos.

Ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar bilan shartlangan holda maqollar mazmunida turli darajadagi o‘zgarishlar – torayish yoki kengayishlar yuz beradi. Mana shu faktning o‘ziyoq maqolning jamiyat hayoti, xalq turmushi bilan bevosita bog‘lanishda ekanligini ko‘rsatadi.

Demak, maqollar xalq hayotini, uning o‘tmishdagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy turmush darajasini o‘rganishda asosiy vazifani o‘taydi. Haqiqatdan ham

<sup>12</sup> Karamatova K.M., Karamatov H.S. Proverbs–Maqollar– Пословицы. – T.: Mehnat, – 2000. – 398-b.

maqollar turli ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni, xalqning etik va estetik normalarini, e'tiqodiy tasavvurlarini, maishiy turmushi va mehnat tarzini, sevgi va nafratini, orzu va intilishlarini obyektiv baholaydi. Mashhur rus yozuvchisi L.N.Tolstoy: *“Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalq siymosini ko‘raman”*, – degan edi va bu yuqorida keltirgan barcha fikrlarimizni tasdiqlay oladi.

Maqollarning yana bir muhim jihatlaridan biri ulardagi **ibratlilik**. Maqollarda har doim ibratli fikr aytiladi. Lekin har qanday ibratli fikr maqol bo‘lavermaganidek, ibratli fikrlarning maqollarga aylanishi uchun bir qancha shartlar mavjud. Ular quyidagicha:

- maqolga aylanuvchi ibratli fikr xalqning uzoq yillar mobaynidagi hayotiy tajribasida sinalgan bo‘lishidadir. Hayotiy tajribada sinalgan har qanday fikr kishini ishontira oladi;
- maqolda ifodalangan ibratli fikr alohida shaxsgagina emas, balki umuminsoniy xarakter kasb etishida;
- sinalgan umuminsoniy fikr ixcham, mukammal badiiy shaklga ega bo‘lishi shartdir.<sup>13</sup>

Aynan shu sabablar oqibatida xalq maqollari juda ham sekinlik bilan yaratilish va unutilish xususiyatiga ega. Bu xususiyatlar jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy strukturasi va bu strukturaning barqarorlik yoki beqarorlik darajasi bilan bog‘liq holda amalga oshadi.

Maqollardagi **pand-nasihat xarakteri** ularni yanada jonli va kuchli ta’sirchanligini oshiradi. Masalan: Inglizcha *“A bad excuse is better than none”* o‘zbek tiliga – xohlamasdan kechirim so‘rash, umuman so‘ramagandan yaxshi deb tarjima qilinadi. O‘zbekcha muqobil variant sifatida *“Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar, Yomon gap bilan musulmon dinidan”* maqolini keltiramiz. Ko‘rinib turganidek, ushbu maqollar pand-nasihat mazmunidagi ma’noni beradi. Ya’ni, shaxsga har doim shirin so‘zli va yaxshi kalomli bo‘lish kerakligini anglatadi. Maqolning har ikki tildagi variantlari ham bir xil ma’noni beradi.

Maqollarni o‘rganish jarayonida uning tuzilishi, qanday ko‘rinishdagi sintaktik butunliklar orqali tashkil topgani muhim omildir. Maqollar tuzilishiga ko‘ra, bir va bir necha sintaktik butunliklar asosida tashkil topgandir. Bir sintaktik butunlikdan iborat maqollar, odatda bir qismli maqollar sanalib, ko‘pincha darak gap yo‘sinida bo‘ladi. Aynan shu tomonlari bilan o‘zbek va ingliz xalq maqollari

<sup>13</sup> Marvin, D.E. Antiquity of Proverbs. - New York and London: G.P Putnam Sons, 1922. –103 p.

juda o‘xshashdir.<sup>14</sup> Quyidagi maqollar orqali fikrimizni isbotlashga harakat qilamiz.

✓ *The absent is always in the wrong – O‘zi yo‘qning – ko‘zi yo‘q.*

✓ *There is no accounting for tastes – Har kim suygan oshini ichadi.*

Aksariyat maqollar ikki qismdan tashkil topgan bo‘lib, bir qismi tasviriy mohiyatga ega, ikkinchi qismi xulosadan iboratdir:

✓ *After dinner sit a while,*

*After supper walk a mile.*

✓ *Qorning ochmasdan ovqat yegin,*

*Qorning to‘ymasdan qo‘l artgin.*

Xulosa qilib aytganda, maqollarning har ikkala tilda o‘rganilish jihatlarini solishtiradigan bo‘lsak, maqollarning to‘plam holatiga kelishi, badiiy vositalarning ishlatilish o‘rnini o‘rganish va umuminsoniy jihatlarini ko‘rsatish kabi masalalar deyarli bir xil. Biroq maqollarning nazariyalariga bag‘ishlangan asarlarning ingliz tilida o‘zbek tiliga nisbatan ko‘pligi ingliz maqollarining nazariy jihatlarini o‘zbek maqollariga nisbatan ko‘proq o‘rganilganligini ko‘rsatadi. O‘zbek tilida o‘zbek olimlari tomonidan bu ishga ko‘p marotaba qo‘l urilgan. Asosan, o‘zbek va ingliz maqollarini solishtirish uchun o‘zbekcha tarjimalarini berish, muqobil variantlarini keltirish va semantik xususiyatlarini isbotlash ishlari qilingan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Arora, S. The Perception of Proverbiality. De Proverbio. 1984. – 244 p.

2. Ирискулов М.Т. Тилшуносликка кириш. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – 256

б.

3. Karamatova K.M., Karamatov H.S. Proverbs – Maqollar – Пословицы. – Т.: Mehnat, 2000. – 398-b.

4. Marvin, D.E. Antiquity of Proverbs. - New York and London: G.P Putnam Sons, 1922. – 103 p.

5. Madayev O., Sobitova T. Xalq og‘zaki poetik ijodi. – Т.: Sharq, 2010. – 207-b.

<sup>14</sup> Karamatova K.M., Karamatov H.S. Proverbs–Maqollar– Пословицы. – Т.: Mehnat, –2000. –398 b.

## FILOLOGIYA

### MA'RIFATPARVAR JADID TAVALLO SHE'RIYATI

UO'K 40.220



**Sayyora  
SAMANDAROVA**  
Filologiya fanlari  
nomzodi, dotsent.



**Umid  
BEKMUHAMMAD**  
Tarix fanlari bo'yicha  
falsafa doktori

**Annotatsiya:** ushbu maqolada jadid shoiri Tavalloning hayoti va ijodiy faoliyati davr bilan bog'langan holda tahlil etiladi. Shoirning insoniy, ijtimoiy mavzudagi dardli she'rlari tadqiq qilinadi.

**Аннотация:** в статье анализируется жизнь и творческая деятельность современного поэта Тавалло в связи с периодом, изучаются болезненные стихи поэта на человеческие и социальные темы.

**Annotation:** in this article, the life and creative activity of the modern poet Tavallo is analyzed in connection with the period. The poet's painful poems on human and social topics are studied.

**Kalit so'zlar:** jadid, she'riyat, jurnal, maktab, madrasa, Toshkent, sovet davri, qatag'on davr.

**Ключевые слова:** джадид, поэзия, журнал, школа, медресе, Ташкент, советский период, репрессивный период.

**Key words:** jadid, poetry, magazine, school, madrasa, Tashkent, Soviet period, repressive period.

XX asr o'zbek ma'rifatparvarlik she'riyatida o'z o'rniga ega va hajviy, yumoristik she'rlari bilan xalq o'rtasida dovruc taratgan ijodkor Tavallo edi. "Tavallo taxallusi bilan ijod qilgan To'lagan Xo'jameyrov 1883-yili Toshkentning Ko'kcha dahasida tug'ilgan. Uning hayoti oq va qizil mustamlakachilik hukm surgan davrga to'g'ri kelgani bois, azob-uqubatlar bilan o'tdi. Tavallo o'ziga to'q, mulkdor otasi Xo'jame'yor Jiyanboyevning yer-suvidan foydalanib, savdo tashvishlari bilan hayotini o'tkazishi ham mumkin edi" [1].

Shu tarzda umri boyvachchalarnikidek o'tmasa-da, o'rtahol zamondoshlariniki kabi bir maromda kechgan bo'lardi. Ammo Yaratgan Egam unga tug'ma ijodiy qobiliyat tuhfa qilgan edi. Ijodga oshnollik, xalq hayotiga yaqinlik esa ijtimoiy turmushga faol aralashishga undadi. Qorasoch, qo'yko'z,

bo'yi atigi bir yarim metr bo'lgan bu inson fidoyi bo'lmaganida, balki umri kuzatuv ostida o'tmas, 1938-yilda otilib ketmasdi.

“To'lagan Xo'jame'yorov dastlab eski maktabda, keyin “Beklarbegi” madrasasida, rus-tuzem maktabida tahsil oldi. Oldiniga Toshkentdagi bir fabrikantning qo'lida, 1900-yildan esa otasining maslahati bilan Prjevalskga borib bir tadbirkor tanishining qo'lida ishlaydi. Rus tilini mukammal o'rganadi, tijorat va hayot saboqlarini oladi. 1909-yilda otasi vafot etgani sababli Toshkentga qaytib keladi. Bu paytlar 20 asr boshida chor mustamlakachiligi asoratidagi o'lkalarda milliy uyg'onish kuchayotgan davr edi. Aql-idrokli hammaslamlari bo'lgan Munavvar qori, Husanxo'ja Dadaxo'jayev, Saidabdullo Saidazimboyev, Komilbek Norbekov, Yusuf Saryomiy, Avloniylar bilan birga, Tavallo ham imperiya changalidan ozod bo'lishga imkoniyat yuzaga kelayotganini sezib, turli nashriyot, gazeta, jamiyatlar tuzish orqali avomni “uyqudan uyg'otish”ga intildi” [2].



Bu orada 1917-yil oktabridagi davlat to'ntarishi bo'lib, mustamlakachilik bolsheviklar tusidagi qizil rangga o'zgardi, xolos. Shunday bo'lsa-da Tavallo yoshlarning ma'rifatli bo'lishini istab, 1918-yilda Toshkentda yangi maktab tashkil etishga bosh bo'ladi. Shuningdek, o'z mahallasida kambag'alxona tashkil qilib, davr sabab och-nahor, yetim-yesir bo'lib qolganlarga oziq-ovqat, kiyim-bosh tarqatishgayam harakat qildi. Bu paytda Tavallo bolsheviklarning mustamlakachiligi avjiga chiqayotganligidan doimo zorlanardi. Bu holatni “avom xalq

o'zaro nifoq va qo'rqqoqlik orqasidan xor-zor, qizillarga tutqun bo'ldi. Biroq bir kuni sabr kosasi to'ladi” deya baholardi. Tavallo yaratgan she'rlarda uning o'sha vaqtdagi kayfiyati yaqqol seziladi:

Shuncha Turkiston elinda nodon ahli ko'b vale,

Nosih o'lmas ersalar, aqli rasolardin nasud?!

Shoirni ayniqsa, millatning ertasi o'ylantirib, shu fikrlar asnosida muxammaslar bitdi.

Ey qo'lum, pul tutma hech, millatga yordamlashmasang,

Bo'lma xushnud, ey dilim, millat g'amin g'amlashmasang,

Ravshan o'lma, ey ko'zum, yoshing to'kub namlashmasang,

Fikrim, ochilma, agar she'ring yozib, xamlashmasang,

Chiq ichimdan, jonim, ey, san manga hamdamlashmasang...

Boshqa bir she'rida esa kinoya bilan qoloqlikni achchiq hajv qilib o'tadi:

Yovrupo ahli, siz quloq solingiz,  
 Biz hunarlar yozib tonushtiramiz.  
 Kelturing zanburak, qurol necha xil,  
 Bizni sopqon ila otushtiramiz.  
 Aftomobil, arobangiz qayda,  
 Ho'qand araba bilan chopushtiramiz.  
 Biz bilurmiz, siz to'g'ri so'zni quli,  
 Lek biz yolg'onlar qotushtiramiz.  
 Do'stni dushman edub, solib ig'vo,  
 Gap toshub o'rta choqushtiramiz.  
 Qo'lda bid'at maromnomasi bor,  
 Kim yaqin kelsa, biz yopushtiramiz...

Bu albatta qadimchilardek jadid taraqqiyparvarlarga to'siq bo'lgan toifaga kinoya tarzida bitilgan. Shu singari Tavallo ijodida yana boshqa kinoyaviy, hajv yo'sinidagi boshqa she'rlar ham mavjud:

Teskari, demang, zamon, bizning yurishlar teskari,  
 Eldin ibrat olmayin bizda turushlar teskari.  
 Qo'ysa gar millat qadam, rohi taraqqiy izlasa,  
 Dar mahal done o'lub yo'ldin urushlar teskari...  
 Yo'q, demang, bizda muharrir, shoir, ey ahiboblar,  
 "Oy yuzingdan, voy, ko'zingdan", deb yozishlar teskari...  
 Yoki yana bir she'rida shunday satrlar bor:  
 Falak, bizga xabar ber, nechun bee'tibor etding,  
 Jahonda barcha ellar ichra bizni sharmisor etding.  
 Jaholat rishtasiga band etib, rahm etmading hargiz,  
 Falokat handaqi uzra bugun bizni duchor etding.  
 Sharorat yomg'urini yog'durib millatni boshig'a,  
 Adovat otig'a otlandurub bizni suvor etding...

Millat dardi bilan yashagan shoir boshqa xalqlar bilan ham do'stona munosabatlar tarafdori edi. Xususan, ruslar orasida ham do'stlari ko'p bo'lib, o'zbek va rus tillari uyg'unligida g'azal ham yozgan edi. Ma'lumki, rus tili fonetik xususiyatiga ko'ra, aruz qonunlariga

bo‘ysunmaydi. Biroq Tavallo buni ham uddalab, “Vot she’r” sarlavhasi bilan “Mushtum” jurnalining 1928-yil 3-sonida chop ettiradi:

“Mushtum” chirog‘im, so‘yla-chi: kak ты pojivayesh?

Har kimni so‘kib, sam sebe dushman najivayesh.

Tekkanga tegib, tegmasa shutish, pochemu tak?

Xullas, jim o‘tir, muncha vseгда zadevayesh

Yesli popadet senga birov mulla qilursan,

Har qanday asov bo‘lsa-da, uzda nadevayesh.

Bir kun chiqasan chyorny kiyib, ertaga boshqa,

Otkuda chopon haftada nadevayesh?

Hech bir sojalet etma, yozib tur nima ko‘rsang.

Inache bugun vaqti g‘animatni teryayesh.

Mayli, xorosho, razny qiliqlarni yozib tur,

Bizlar bilamiz, vezde byvayesh.

Vot endi bugun man yozaman, san smotri,

Sen dema meni “mag‘zava” tezda zabivayesh [3].

“Mushtum”ga murojaat shaklida yozilgan ushbu g‘azal o‘sha vaqtda katta shov-shuvlarga sabab bo‘lgan. Ayrim ko‘rolmaslar esa, To‘lagan ichkilikka berilganidan shunday she’rlar yoza boshladi, deya gap tarqatishadi. Uning ichkilikka berilishi aslida 1931-yilda o‘g‘li Mahmudning vafotidan so‘ng bo‘lgandi. Maqsud, Sanobar va Rahbar ismli farzandlari esa otasining dardini anglashardi. Ammo tabiatan intiluvchan, g‘ayratli Tavallo xatarli vaziyatlarda ham millat haqida qayg‘urardi. Ana shu qayg‘u-alamlar Tavalloni 1937-yilning sentabrida qatag‘on domiga tortdi. Natijada unga “xalq dushmani” deya soxta, to‘qima ayblov qo‘yilib, o‘sha yilning 10-noyabrida NKVD uchligi Tavalloni otib o‘ldirdi.

Tavallodan turli janrlarda yozilgan yuzga yaqin she’r, jadid adibi degan nom meros bo‘lib qolgan.

Xorazmning Gurlan tumanida tug‘ilgan shoir Tursunboy Karimov 1980-yillarda tuman kino idorasi rahbari sifatida Toshkentga borganida, u yerda Tavalloni tanigan-bilgan qariyalardan yozib olgan she’rlarni o‘qib, jadid adabiyoti namoyondasining hajv yo‘sinida ash’orlar bitganiga amin bo‘lasiz. Ushbu she’rlar hali hech bir nashrda yoritilmagan bo‘lib, Tavalloning hajv yo‘li bilan taraqqiyotdan ortda qolmaslikka, ma’rifatli, shijoatli bo‘lishga zamondoshlarini undaganini anglaymiz:

Toshkentda ko‘p istirohat bog‘imiz,

Hech kelishmas anga borib bizning sayr etmog‘imiz,

Yoz fasli oq badanlar oq kiyimlar kiysalar,  
 Paxtalikni tashlamay, yelkaga chiqqan yog'imiz.  
 Uch qavat kamzulning ustidan yana bir  
 Kattakon bog'labon mahkam qilib sakkiz quloch belbog'imiz.  
 Skameyka uzra o'ltirsa nechalar rohat qilib,  
 Kavfshimiz loyi bilan biz ustida yotmog'imiz.

O'qiganingizdek, Tavallo jadid shoirlari kabi jamiyatda ma'naviyat va ma'rifatni yuksaltirishga, davrdoshlarini o'z qobig'iga o'ralib, zamondan orqada qolmaslikka undab, kamchilik va nuqsonlar, muammolardan ko'z yummay, chorizm bosqinini, so'nggi davrlardagi holatni hajv qilib she'rlar bitgan:

Ruslar otib bir zambarak,  
 Borlarni qildi bedarak.  
 Biz bog'da chalib tar-tarak,  
 Sopqon otolmaymiz hanuz.  
 Ruslar uchsa osmon,  
 Mashinasi aeroplan.  
 Nechun bizlar tramvaydan  
 Yerga tusholmaymiz hanuz?!  
 Bizlar katta narvon qo'yib,  
 Tomdan tusholmaymiz hanuz.

Yuqoridagi hajviy she'rlar, ehtimol, Tavalloni tanigan-bilganlardan insonlardan keyin umuman unitilib ketgandir? Balki shu boisdanmi, Tavalloning o'sha she'rlari hanuzgacha tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolib ketmoqda. Umuman, Tavalloning ijodiy merosini o'rganish jadid adabiyoti xazinasini to'ldirishga, qolaversa, mustamlakachilik davri qurbonlarining ruhini shod qilishga sabab bo'lardi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. U.Bekmuhammad "Tavallo she'riyati", "Darakchi" gazetasi, 2002-yil avgust.
2. B.Qosimov "Milliy Uyg'onish", "Ma'naviyat" nashriyoti, Toshkent-2002-yil.
3. Tavallo "Vot she'r", "Mushtum" jurnali, 1928-yil 3-son.

**FALSAFA****IBN SINO ASARLARIDA IJTIMOIIY-AXLOQIIY QARASHLAR.****UO‘K 550. 11**

**Ilg'orbek  
BABAJONOV**

**Urganch  
avtomobil va  
yo'llar texnikumi  
o'quv bo'limi  
uslubchisi**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada buyuk mutafakkir olim Abu Ali ibn Sinoning axloq haqidagi qarashlarining bo'lajak o'qituvchilar ilmiy dunyoqarashini shakllanishidagi ahamiyati haqida yoritilgan.

**Аннотация:** в статье описывается значение взглядов великого ученого-мыслителя Абу Али ибн Сины на этику в формировании научного мировоззрения будущих учителей.

**Annotation:** this article describes the significance of the views of the great scientist-thinker Abu Ali ibn Sina on ethics in the formation of the scientific worldview of future teachers.

**Kalit so'zlar:** Abu Ali ibn Sino, ibrat-namuna, axloqiy qarash, tarbiya.

**Ключевые слова:** Абу Али ибн Сина, пример, моральные воззрения, образование.

**Key words:** Abu Ali ibn Sina, example, moral views, education.

Butun dunyoga dong'i ketgan faylasuf, olim Abu Ali ibn Sino "Faylasuflarning raisi", "Ustozlarning ustoz" nomlarini olgan. Sharqda shayxurrais, G'arbda Avitsenna o'laroq tanilgan Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn Sino Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida (980-1037) dunyoga kelgan. Otasining ismi Abdulloh, onasining ismi Sitara edi. O'tkir zakovatga ega Ibn Sino o'n yoshida Qur'oni karimni yodladi, Buxoro va Samarqandda davrining mashhur olimlaridan adabiyot, fiqh, matematika, fizika, mantiq, astronomiya, metafizika, tibbiyot va falsafa bo'yicha darslar oldi. Ibn Sino tibbiyotdan tortib astronomiyagacha, falsafadan tortib tafsirgacha bo'lgan turli yo'nalishlarda asarlar yozgan ensiplopedik olim edi. Abu Ali ibn Sino xaqida misrlik olim al-Axvoniy shunday deb yozgan edi. "U "Hujjatul Haq", "Sharaf-ul Malak", "Ash-Shayxur Rais", "Al-Hakimul Vazir", "Ad-Dastur" nomlariga sazovor bo'lgan Abu al-Husayn ibn al-Hasan ibn Abdulloh ibn al Hasan ibn Sinodir". Uning she'rlari va falsafiy qissalari asosida Renessans davriga xos ijtimoiy va axloqiy qarashlari haqida fikr-mulohazalar yuritish, allomaning nafakat buyuk hakim va mutafakkir, ayni paytda o'z davrining buyuk insonparvar adiblaridan biri ekanligini bildiradi. Chunki uning axloqiy va ilmiy-falsafiy dunyoqarashi faqat

tabiiy fanlarga oid asarlaridagina ifodalangan bo‘lmay, balki she‘r va qissalarida ham o‘z aksini topgan.



Ibn Sinoning “Risolat fi ilm al-axloq” (Ilmi axloq haqida risola), “Kitob bash-shifo”, “Donishnoma” “Risola fi tazkiyat an-nafs” (Nafsni pokiza tutish to‘g‘risida risola), “Kitob al-insof”, “Kitob ishorat va at-tanbehot” (“Ko‘rsatmalar va o‘git-nasihatlar kitobi”), “Kitob al-najot”, “Risolayi fil-ishq” (Ishq haqida risola) kabi asarlarida axloqiy qarashlari batafsil bayon qilingan [1].

Ibn Sino axloq ilmiga yaxshilik va yovuzlik, fazilat va razolat chegaralarini ajratib beruvchi, shuningdek, insonning haqiqiy baxt-saodatga erishish yo‘lini topish shart-sharoitlarini belgilab beruvchi fan

sifatida qaraydi. Ibn Sino axloqiy risolalarining asosiy mohiyati va ma‘nosi tahlil qilinsa, ularda axloqiy tafakkurning ikkita asosiy masalasi ko‘rib chiqilishining guvohi bo‘lamiz:

- 1) fazilatlar va illatlar hamda ularning turlari;
- 2) axloqiy maqsadlar.

Xususan, “ar-Risola fi-l-axloq” risolasining muqaddimasida alloma axloq ilmining asosiy maqsadini quyidagicha tushuntiradi: “Kimki o‘zini bilishga qiziqsa, qalbini poklashga ko‘maklashuvchi fazilatlar va ularni o‘zlashtirish yo‘llarini anglashni istasa, shuningdek, o‘z nuqsonlarini va ulardan saqlanish usullarini egallashni xohlasa, axloqiy fazilatlarining eng ma‘qulini, eng munosibini tanlashi lozim. Zero, inson tabiatida komillikdan kelib chiqadigan, bu hayotda ham, oxiratda ham baxtga erishishga yordam beradigan haqiqat bor”. Ibn Sinoning axloqiy ta‘limotiga ko‘ra, fazilat va illatlarning mutlaq ko‘pchiligi insonning hayotiy faoliyati davomida shakllanib, ular ta‘lim, malaka, odat va amaliyot bilan chambarchas bog‘liqdir. Shuningdek, u axloq ikki yo‘l bilan: odatlar orqali va tafakkur orqali erishiladi, deb hisoblaydi. Ibn Sino “Axloq haqida risola”sida nafsning ezgulikka xizmat qiluvchi fazilatlarini quyidagicha tasniflaydi:

- 1) axloqiy soflik;

2) saxovat;

3) me'yor, ya'ni mo'tadillik.

Alloma donolik, fikr ravshanligi, farosatlilik, ehtiyotkorlik, qat'iyat, ixlos, vafo, muhabbat, rahm-shafqat, uyatchanlik, mehnatsevarlik, yaxshi niyat va hayo kabi fazilatlarini o'ziga xos oqilona fazilatlar sifatida e'tirof etadi. Ibn Sinoning ushbu risoladagi va boshqa asarlaridagi axloqiy ta'limotining muhim jihati o'zaro munosabatlarda me'yorga amal qilishdir. Shu nuqtayi nazardan aytish mumkinki, alloma inson zotining hayotdagi asosiy maqsadi sifatida ezgulikka intilish, ezgu maqsadlarni amalga oshirish yo'lida g'ayratli bo'lish va shu orqali o'z-o'zini takomillashtirib borish kabilarni e'tirof etadi [2].

Ibn Sino o'zining "Axloq haqidagi risola"sida axloqiy xislatlardan or-nomus, sha'n, qadr-qimmat, qanoat, saxiylik, g'ayratlilik, sabr-toqat, halimlik, sirni saqlay bilishlik, ilm-ma'rifatli bo'lish, ochiqlik, vijdonlilik, do'stlik, sadoqatlilik, kamtarlik, saxiylik, adolatlilik kabi shaxs ma'naviyati kategoriyalariga ta'rif beradi: "G'ayratlilik" olimning fikricha, g'azabiy quvvatga mansub bo'lib, bunda inson har qanday og'riq va alamlarga befarq qaraydi. "Hikmat" tamyiziy quvvatga mansub bo'lib, insonni xato va yanglishishlardan asraydi. "Qanoat", ya'ni mo'tadillikka ta'rif berib, Ibn Sino uni tana uchun normadan ortiq ozuqani iste'mol qilishdan saqlanish yoki xulq normalariga to'g'ri kelmaydigan ishlarni qilmaslik deb tushuntiradi. "Sabr" insondagi shunday quvvatdirki, u orqali inson boshiga tushgan yomonlikdan holi bo'ladi. "Yumshoqlik" g'azabning yuz berishidan o'zini tutishdir. Kimki o'zini g'azabdan tuta olmasa, u oqibatda jinoyat sodir bo'ladigan fe'l-atvorga giriftor bo'ladi. G'azabdan o'zini tutishni Ibn Sino insonning olijanobligidir, deb juda to'g'ri ta'kidlaydi. "Vijdonlilik" tez fahmlash, his orqali berilgan biror narsaning haqiqiy ma'nosiga tez yetishdir va turli xil yomon ishlardan o'zini tiyib turishdir. "Rahmdillilik" omadsizlikka uchragan yoki boshqa og'ir kulfat tushgan insonlarga hamdard bo'lish. Ibn Sinoning axloqqa bag'ishlangan risolalaridan yana biri "Burch risolasi"dir. Bu asar 1910-yili Misrda chop etilgan. Bu yerda Ibn Sino, asosan, odam o'zini doimo pokiza tutishi kerakligi, insonlar bilan qanday muomala qilish lozimligi kabi masalalarga to'xtalib o'tadi. Bundan tashqari, Ibn Sinoning axloq mavzuidagi qarashlari uning "Kitob an-ansof" ("Adolat kitobi") da ham o'z ifodasini topgan [3].

Ibn Sino o'zining "Uyun al-hikma" ("Hikmat buloqlari") asarida ham ta'lim va axloqqa oid o'z fikrmulohazalarini bildiradi. Unda aytilishicha, axloq fani odamning chinakam baxtli bo'lishi uchun unga doimo yo'l-yo'riq ko'rsatib beradigan fandir. Bu fan kishining xulqi, fe'l-atvori ustidan rahbarlik qiladi. Bu fan shunday odamlarni tayyorlab berishi kerakki, ular faqatgina o'zi uchun yashamasdan, balki boshqalar va jamoat hamda uning manfaati uchun yashashga

intilishi kerak. Insonlar bir-biri bilan do‘st-inoq bo‘lib yashashi, ularda insonparvarlik ruhi rivojlanishi lozim. Insonlar kamtar, irodasi kuchli, tejamkor bo‘lishi zarur. Insonda mehnatga muhabbat, yaxshi axloqiy sifatlar va halollik doimo ustun turishi kerak. Yaxshi xulqli kishilarda insonlarning eng yaxshi hislatlari mujassamlashgan bo‘ladi. Shuningdek, asarda kishidagi odamshinavandalik, bir kori xayr qilishga ishonch, iroda, bu borada tadbirkorlik, do‘stga nisbatan hurmat-ehtirom, dushmanga nisbatan nafrat xislatlarining bo‘lishi kerakligi haqida fikr yuritiladi.

Ibn Sino o‘zining bir qancha risolalarida adolatlilik, saxiylik, shijoat, sabr, muloyimlik, iffat, qanoat, sirni saqlay bilishlik, ilm-ma‘rifatli bo‘lish, ochiqlik, farosatlilik, do‘stlik, vafodorlik, kamtarlik kabi axloqiy fazilatlariga ta‘rif beradi. Alloma kishi o‘zini pokiza tutish, odamlar bilan muomala qilish kabi masalalarga to‘xtaladi. Ayniqsa, nafsni pokiza tutishi zarurligi va ba‘zi dunyoviy lazzatlardan o‘zini tiya bilish, ichishning zarari xaqida “Nafsni pokiza tutish to‘g‘risida”, “Qonun”, “Siyosat al-badan” asarlarida fikr yuritadi. Abu Ali ibn Sinoning axloq haqidagi qarashlari uning shoh asarlari bo‘lmish “Tib qonunlari” va “Ash-shifo” da o‘z ifodasini topgan.

Ibn Sino fikricha, insonlar fe‘l-atvorida ayrim nuqsonlar bo‘ladi, qaysiki odamlar doimo bulardan o‘zini asrab-avaylab yurishi, iloji boricha ulardan qochishi lozim. Ana shu nuqsonlarni u sanab ko‘rsatadi. Bularga yolg‘onchilik, rashk, xusumat, qasd olish, tuhmat, irodasizlik kabi salbiy xislatlarni kiritadi. “Bular ichida eng katta nuqson, – deydi Ibn Sino, – kishining noyob fazilati bo‘lgan ilmga zid keladigan nodonligidir”. Ibn Sino kishi qalbiga bo‘lishi mumkin bo‘lgan mana shunday xislatlarni “Hayy ibn Yaqzon” asarida ramziy ishoralar bilan bayon qiladi, yaxshi-yomon xulq, fe‘l-atvorlarni iborali tarzda “kishi oshnalari” tariqasida talqin qiladi. Bu oshnalarning ba‘zisi ko‘p nomaqbul yo‘llarga boshlaydi, inson ana shu yo‘llarga kirishdan o‘zini ehtiyot qilishi lozimligini uqtiradi [4].

Ibn Sino insonlarda bor bo‘lgan adolat, pokizalik, bilimdonlik, irodalilik, ezgu niyat, himmat, saxovat, shijoat singari ijobiy fazilatlar bilan birga aldanchilik, qo‘rqoqlik, ikkiyuzlamachilik, xasislik, o‘g‘irlik, ig‘vogarlik, yalqovlik, fisq-u fasod kabi salbiy axloqiy illatlar haqida ham fikr yuritib, ularning har biri to‘g‘risida o‘z tushunchalarini ifoda etadi.

Ibn Sino insonning umumiy fazilati kishilarda yuz beradigan yaxshi va yomon xulqlarning paydo bo‘lish sabablarini “Axloq xaqida risola” asarida ko‘rsatib o‘tadi. Olim bu asarida yaxshi va yomon xulqlar odamlarning odatidan, hukumat ahillarining ta‘siridan paydo bo‘lishligini ta‘kidlaydi.

Ibn Sino aqliy tarbiya turli bilimlarni o'rganish natijasida amalga oshsa, ahloqiy tarbiya ko'proq yaxshi axloqiy xislatlarni mashq qildirish, odatlantirish, suxbat orqali amalga oshadi, deb ta'lim beradi [5].

Ibn Sino inson kamolotining muhim axloqiy jihatlarini ham tahlil etadi va har biriga ta'rif beradi. Masalan, adolatni ruhiy lazzatning bosh mezoni sanaydi. Inson qanoat, jasurlik, donolik bilan adolatga ega bo'ladi, yomon illatlardan o'zini tiyib, yaxshilikni mustahkamlaydi, haqiqiy ruhiy lazzat oladi, deydi olim.

Insondagi ijobiy axloqiy xislatlarga saxiylik, chidamlilik, kamtarlik, sevgi-muxabbat, mo'tadillik, aqllilik, ehtiyotkorlik, qat'iyatlilik, sadoqat, intilish, uyatchanlik, ijrochilik va boshqalarni kiritadi [6].

Ibn Sino kishi doimo erkin va ozod harakat qilishi lozim, o'z xatti-harakatlari uchun insonga mas'uliyat, burch yuklatilgan, deydi. Insonda, deydi u, yaxshi va yomon mayllar mavjud bo'ladi va inson o'z xarakterini shakllantirib boradi, agar yaxshilik fazilati moyillik inson tabiatini go'zallashtirsa, yomonlikka moyillik esa uning xulqini tubanlashtiradi, ya'ni ma'naviy qashshoqlikka olib keladi. Ibn Sino bola xulqini mo'tadillikda saqlashga katta e'tibor beradi. Bu o'rinda bolaning istak va mayllariga diqqat qilish zarur. Ana shundagina bola yoshlikdan yaxshi xulqli, es-hushli bo'lib tarbiyalanadi. Bunday tarbiya vositalar qo'llanilmaydigan oilalarda bolalar jizzaki, jahldor, qo'rqqoq va zaif bo'lib o'sadilar [7].

Ibn Sino har bir axloqiy xislatning ta'rifini beradi:

mo'tadillik – tan uchun zaruriy oziq va xulq me'yorlariga to'g'ri kelmaydigan ishlarni qilmaslik;

saxiylik – yordamga muhtoj kishilarga ko'maklashuvchi insoniy quvvat;

g'azab – biror ishni bajarishda shoshma-shosharlikdan saqlovchi quvvat;

ziyraklik – narsalar va xatti-harakatlarning haqiqiy ma'nosini tezlik bilan tushunishga yordam beruvchi quvvat;

achinish – kishilar baxtsizlik, azob-uqubatga duchor bo'lganda, ular bilan xushmuomalada bo'luvchi insoniy quvvat;

kamtarlik – xudbin ishlar bilan shug'ullanishdan to'xtatuvchi kuch sifatida ta'rif beradi.

Ibn Sino insonning kamolotga yetishida to'sqinlik qiluvchi nuqsonlar sifatida johillik, nodonlik, shafqatsizlik, takabburlik, nafratni ko'rsatib o'tadi.

Johillikni – ilmga, nodonlikni – zehni o'tkirlikka, shafqatsizlik, takabburlikni adolatga, nafratni — sevgi-muhabbatga qarama-qarshi illat sifatida ta'riflaydi. Ibn Sino yuksak axloqiy xislatlarga yana kishilarning bir-birlariga do'st bo'lib yashashi, hamkorlik qilishini ham kiritadi. Chunki har bir kishi jamiyatda, odamlar bilan birga yashar ekan, ular bilan do'stona yashashga intiladi.

Ibn Sino insonda yaxshi xulqning shakllanishida xushxulq, ilmi do'st muhim rol o'ynaydi, deydi. Olim do'stlikni shunday ta'riflaydi: “Har qanday qiyinchiliklarga qaramay o'z do'stini xavf-xatarda yolg'iz qoldirmaydigan do'stlik; Manfaatlari o'xshash va g'oyaviy yaqin do'stlik; O'z shaxsiy manfaati va ehtiyojini qondirishga qaratilgan do'stlik. Ibn Sino birinchi va ikkinchi xil do'stlikni haqiqiy do'stlik deb e'tirof etadi [8].

Ibn Sino jamiyat hayotidagi axloqiy munosabatlarni birinchi o'ringa qo'yadi.

Chunki axloqiy munosabatlar, uning fikri bo'yicha, xalqning ma'naviy sog'lomligini belgilaydi, ilm-fan va madaniyatning ravnaq topishiga yordam beradi, jamiyatning ma'naviy-axloqiy sog'lomligi va sobitligini ta'minlaydi. Bu esa kishilarni o'zaro hamjihatlikka va hamkorlikka undaydi, ularda bir-birlariga mehr-muhabbat va ishonch tuyg'ularini shakllantiradi, odamlarni jipslashtirib, har qanday yovuzlik va adolatsizlikning yo'qotilishi uchun zamin yaratadi [9].

Ming yil muqaddam bitilgan allomamizning bu fikrlari barkamol avlodlarimizni to'g'ri yo'lga solishga, ularni jismonan sog'lom, ma'nan yetuk qilishga, bugun mustaqil O'zbekistonimizning kelajagini yuksaklikka, bayrog'ini baland ko'tarishda benazir xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aziz Qayumov. Abu Rayhon Beruniy. Abu Ali ibn Sino. Toshkent, 1987-yil.
2. Ibn Sinoning “Ar-Risola fi-l-axloq” risolasi.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-jild. T., 2004.
4. Mo'minjon Xo'jayev, Dilmurod Jumanov “Sharq mutafakkirlari merosida odob turmush tarzi haqidagi g'oyalar”. Tarixiy-falsafiy va axloqiy tahlil. Toshkent “Istiqlol nuri”. 2013-yil.
5. Kamolova Shirin. Yosh avlodni tarbiyalashda tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning psixologik asoslari. Jurnal (2022).
6. Baratov N. “Ibn Sino etikasi” Toshkent, 1963-yil.
7. Jonmatova H. Abu Ali ibn Sino ta'lim-tarbiya to'g'risida. Toshkent, “O'qituvchi”, 1980-yil.
8. Abu Ali ibn Sino. Falsafiy qissalar, to'plovchi va tarjimon. A.Irisov. G'.G'ulom nomidagi badiy adabiyot nashriyoti, Toshkent, 1963-yil.
9. Muhammadjon Jakbarov. “Ibn Sino ma'naviy merosi”, “Akademiya” Toshkent – 2011-yil.

FALSAFA**ILMIY INTELLEKTUAL FAOLIYATNI RIVOJLANTRUVCHI MUHIM OMILLAR****316.32(575.1)**

**Odilbek  
RADJAPOV**

**Urganch davlat  
universiteti  
dotsent v.b, falsafa  
fanlari  
bo'yicha falsafa  
doktori, PhD**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada ilmiy intellektual faoliyat inson aqliy salohiyatini ro'yobga chiqaruchi muhim omillar sifatida aytib o'tilgan.

**Аннотация:** в статье научная интеллектуальная деятельность упоминается как важный фактор реализации интеллектуального потенциала человека.

**Annotation:** in this article, scientific intellectual activity is mentioned as an important factor that realizes human intellectual potential.

**Kalit so'zlar:** intellektual faoliyat, ixtiro, insoniyat, progress, mashina, axborotlashtirish, texnologiya, fundamental, potensial.

**Ключевые слова:** интеллектуальная деятельность, изобретение, человечество, прогресс, машина, информация, технология, фундаментальный, потенциал

**Key words:** intellectual activity, invention, humanity, progress, machine, information, technology, fundamental, potential.

Bugungi kunda ba'zi olimlarning jilovsiz tafakkuri insoniyat boshiga yana qanday savdolar solishi hali noma'lum bo'lgan yangi ixtiro va texnologiyalarni yaratish ishtiyoqi bilan yonishda davom etmoqda. Ular endilikda ko'pchilik fan arboblarni ham jiddiy xavotirga solayotgan, fan va texnikaning nanotexnologiyalar, mashina ziyoliligi, genetik meditsina kabi sohalarida izlanishlar olib bormoqdalar hamda sezilarli natijalarga erishmoqdalar. Oksford universiteti direktori, professor Nik Bostrom bu ishlarning salbiy oqibatlari haqida o'ylab ko'rilmayotgani haqida shunday deydi: "Texnologik progressning tezlashuvi tufayli insoniyat hozir o'z taraqqiyotining keskin burilish nuqtasiga katta tezlik bilan yaqinlashib kelayotgan bo'lishining ehtimoli katta. Insoniyatga yaxshi tanish bo'lib qolgan yadroviy xavf-u xatar yoniga endilikda nanotizimlar va mashina ziyoliligi kabi sohalarining jadal rivojlana boshlagan texnologiyalari misli ko'rilmagan o'z imkoniyatlari va xatarlari bilan qo'shilmoqda. Bizning kelajagimiz, agar u bor bo'lsa, bizning ana shu jarayonlarga munosabatimizga bog'liq. Hamon biz jadal rivojlanayotgan texnologiyalarga bog'liq ekanmiz, insoniyat jamiyatidan "post-insoniyat" jamiyatiga o'tish dinamikasini yaxshi

anglab yetishimiz kerak. Ayniqsa, tuzoq qayerda joylashganini, muqarrar o‘limga olib borishi mumkin bo‘lgan yo‘llarni payqay bilishimiz zarur” [1].

Intellectual faoliyat vositalari, birinchi navbatda, har xil turdagi axborot texnologiyalarini o‘z ichiga olgan holda, intellektual ishning boshqa ulushini o‘z ichiga oladi. Inson faoliyatining axborotlashtirish va intellektuallashtirishning o‘zaro bog‘liqligini anglatadi. Axborotlashtirish intellektual faoliyatni texnologiyalashtiradi, intellektual jarayonlar tezligini oshiradi. Intellektuallashtirish axborot texnologiyalarining murakkabligini oshiradi. Innovatorlar – bu yuqori darajadagi kasb-hunar ta’limi, umr bo‘yi ilm izlashga yo‘nalgan ijodkor subyektlar, shuningdek, muvaffaqiyatlarga erishish uchun texnologiyalar, strategiyalar, ustuvor yo‘nalishlardagi o‘zgarishlarga tez moslashish qobiliyatiga ega mutaxassislardir. “Mamlakatimizda yoshlarning tafakkuri va aqliy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur imkoniyatlarni yaratish masalasiga alohida e’tibor berib kelinmoqda. Innovatsiya – kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak” [2].

Ilmiy intellektual faoliyatning muhim obyektiv asoslaridan biri amaliyotdir. Insoniyat tarixida deyarli barcha kashfiyotlar, ixtirolar, fundamental tadqiqotlar ijtimoiy ehtiyojdan, amaliy zaruriyat talabi bilan yaratilgan. Shuning uchun ilmiy-amaliy faoliyatning strukturasi, mantig‘i, undagi stixiyali unsurlar, jihatlar intellektual faoliyatning ratsional va noratsional xususiyatlari namoyon bo‘lishining manbai va omili rolini o‘ynaydi. Ikkinchi turdagi obyektiv asosga misol qilib inson ruhini, ruhiy faoliyatining substrati bo‘lgan miyani ko‘rsatish mumkin. O‘ng va chap yarim sharlaridan tashkil topgan bosh miya inson ruhiy faoliyatining biofizilogik substratidir. Miya yarim sharlari ongli faoliyat funksiyalarini turlicha taqozo etadi. Miyaning chap yarim shari mantiqiy fikrlash, ratsional faoliyatini yuzaga keltirishga ixtisoslashgan bo‘lsa, inson ruhiyatining noratsional fikrlashi o‘ng yarim sharning funksional faolligi natijasidir.

Ilmiy-texnik ziyolilar inson va jamiyatning ijtimoiy, madaniy, ma’naviy rivojlanishiga zid bo‘lmagan ilmiy-texnik taraqqiyotni ta’minlab, texnik va gumanitar madaniyat o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etib, fan, texnika va madaniyat o‘rtasidagi bog‘lovchi rolini bajaradi. Ularning faoliyati keng qamrovli va quyidagilarni nazarda tutadi: moddiy madaniyatni rivojlantirish (moddiy-texnik ishlab chiqarishni saqlash va takomillashtirish, hayot sifatini oshirish va yanada qulay mehnat sharoitlarini yaratish maqsadida yangi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish); ma’naviy madaniyatni rivojlantirish (zamonaviy texnologiyalar va texnologiyalarni

insonparvarlashtirish); jamiyatning barcha jabhalarida, shu jumladan, elektron aloqa, axborot texnologiyalari va kompyuter texnologiyalarini tarqatish orqali ilmiy-texnik bilimlarni yaratish va tarqatish;

jamiyatning ilmiy-texnik taraqqiyotini uning atrof-muhitga, shaxsga, jamiyatga salbiy ta'sirini oldini olish uchun boshqarish. Shunday qilib, ziyolilarning kommunikativ-semantik vazifasi jamoaviy xotirani saqlab qolish, madaniy matnlarni talqin qilish va ularni aktuallashtirish, ularning asosida yangi nutq so'zlarini yaratish, intellektual va ekzistensial jihatdan ijtimoiy nutq orqali ta'sir qilishdir, ularning maqsadi haqiqatni oqilona anglash, umumbashariy ahamiyatga ega ma'nolarni yetkazishdir. Bizning fikrimizcha, o'zining ijtimoiy mas'uliyatini anglaydigan, aqliy va axloqiylikni dialektik ravishda bog'laydigan, subyektini shaxsiy va jamoaviy manfaatlarini anglash uchun obyektivga aylantirgan subyektning ijodiy g'oyasi ziyolilik madaniyati orqali yorqin namoyon bo'ladi.

Shaxs ziyolilik madaniyatining umummadaniy jihati esa uning insoniyat sivilizatsiyasi yutuqlaridan voqifligi, ma'naviy madaniyat mahsullaridan xabardorligi holati, madaniy faoliyatining ahvoli, uning mayllari, ehtiyoj va manfaatlar xarakteri, axloqiy qiyofasining o'ziga xos xususiyatlaridan tarkib topadi. Umummadaniy elementlarning ahamiyati, ayniqsa, beqiyos, chunki insoniyat sivilizatsiyasi davomida erishilgan yutuqlarni o'zlashtirmagan, ma'naviy madaniyatning noyob durdonalaridan xabardor bo'lmagan, xususan adabiyot, teatr, kinematografiya, muzey, musiqa va qo'shiqchilikka daxldor asarlarni bilmagan shaxsni madaniyatli deyish qiyin. Asrlar davomida shakllangan axloqiy qoidalar, umumijtimoiy ehtiyoj va manfaatlar, insonparvar maqsad-muddaolardan xabardorlik xususida ham shunday deyish mumkin. Madaniy saviya umummadaniy jihati rivoji katta ijtimoiy ahamiyatga ega. Chunki uning rivoji oxir-oqibatda jamiyat iqtisodiy potentsiallari yuksalishiga olib keladi, ijtimoiy sohadagi aloqalarning barqaror kasb etishiga, umumijtimoiy ijtimoiy-ma'naviy muhitning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Barcha ilmiy kategoriyalar kabi "shaxs madaniy saviyasi" ham o'z tarkibiy elementlariga ega. Mutaxassislar bu elementlarni "shaxs madaniy saviyasining asosiy parametrlari" deb nomlaydilar [3]. Bu elementlar turkumiga milliy va umuminsoniy qadriyatlardan xabardorlik darajasi, insoniyat tomonidan asrlar davomida shakllantirilgan insonparvarlik g'oyalaridan voqiflik me'yori, ijtimoiy va kasbiy bilimlarni o'zlashtirganligi darajasi kiradi.

Madaniy saviyaning dastlabki elementi milliy va umuminsoniy qadriyatlardan xabardorlikdir. Madaniy taraqqiyot yutuqlari, madaniyat mahsullari esa aynan qadriyatlarda jam bo'ladi. Binobarin, milliy qadriyatlardan voqiflik milliy madaniyat yutuqlaridan xabardorlikni, umuminsoniy

qadriyatlardan voqiflik esa umuminsoniy madaniyat yutuqlaridan xabardorlikni anglatadi. Aynan shuning uchun barkamol inson shaxsini shakllantirish, juz'an – shaxs madaniy saviyasini yuksaltirishning muhim vazifalaridan biri uning milliy va umuminsoniy qadriyatlardan xabardorligini oshirish masalalari bilan bog'lanadi [4].

Shaxs uchun milliy qadriyatlardan voqif bo'lishning ahamiyati beqiyos. Millatning har bir vakili asrlar mobaynida qaror topgan milliy madaniyat xususiyatlarini milliy qadriyatlar orqali qabul qiladi. Shuningdek, aynan millatning turfa qadriyatlari shaxs dunyoqarashini millat ehtiyoj va manfaatlariga moslashtiradi. O'z millatining qadriyatlarini chuqur o'zlashtirmagan, undan xabardor bo'lmagan shaxsni madaniyatli inson sifatida qabul qilish bag'oyat qiyin. Bu borada o'zga millat madaniyati, uning qadriyatlaridan xabardorlik ham "qutqarmaydi": shaxs o'z millati qadriyatlarini o'zlashtirganidan keyingina boshqa milliy qadriyatlar bilan tanishmog'i darkor. Aks holda, o'ziga xos "aksiologik nigilizmning" yuzaga kelish xavfi paydo bo'ladi: shaxs biror bir qadriyatlar tizimini tan olmay, ularga e'tibor bermay qo'yadi.

Biroq masalaning ikkinchi tomonini ham nazardan qochirib bo'lmaydi. Milliy qadriyatlardan xabardorlik ular bilan cheklanib qolishni anglatmaydi. Shaxs umumbashar madaniyatidan, butun insoniyat asrlar mobaynida qadrlab kelayotgan moddiy va ma'naviy qadriyatlardan ham xabardor bo'lmog'i shart. Motsart va Raxmaninovni, Shekspir va Dostoyevskiyni, Rembrandt va Mikalanjeloni, Fellini va Kitanoni, Pavorotti va Xvorostovskiyni bilmagan kishini madaniy saviyasi baland shaxs deb e'tirof etish mumkin emas. Milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlikda o'zlashtirgan shaxsgina madaniyatli inson sifatida baholanishi mumkin.

Ziyolilik madaniyatining keyingi elementi ijtimoiy va kasbiy bilimlarning o'zlashirilganligidir. Xususan, barcha zamonlarda jamiyat haqidagi bilimlar muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Zamonaviy sotsiumdagi, jahon maydonidagi ijtimoiy munosabatlar, iqtisodiy aloqalar, siyosiy vaziyat murakkablashgani sayin unga bo'lgan ehtiyoj, uni o'zlashtirish zaruriyati tobora ortib borayotir. Chunki ijtimoiy bilimlardan xabardor bo'lmasdan turib, bugungi kishilik jamiyatining o'ziga xos xususiyatlari, rivojlanish qonunlarini anglab bo'lmaydi. Bunday bilimlarni o'zlashtirgan inson o'z hayoti va faoliyatini jamiyat ehtiyoj va manfaatlariga muvofiqlashtira oladi. Shu sababdan o'zi yashayotgan jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlarning tub mohiyatini bilgan, ular ustida mantiqan fikrlay oladigan, jamiyat rivojining maqsad-muddaolari va mo'ljallarini tasavvur qilgan shaxsnigina muayyan madaniy saviyaga ega deymiz.

Lekin shaxs ziyolilik madaniyatining nuqul ijtimoiy bilimlarni o'zlashtirganlik bilan cheklanmaydi. Shuningdek, u muayyan kasb-korni egallagan, ma'lum kasbiy muvaffaqiyatlarga erishgan bo'lmog'i shart. Buning uchun shaxs ilmiy va tizimli xarakterga ega kasbiy bilimlardan xabardor bo'lishi kerak. Kasbiy bilimlar birmuncha murakkab tizimga ega. Masalan, jismoniy madaniyat o'qituvchisi egallashi zarur bo'lgan kasbiy bilimlar tabiatini tadqiq qilgan tadqiqotchilar I.Islomov va O.Parpiyevlar uning tarkibini quyidagicha tasavvur qiladi: maqsadli komponent; mazmunli komponent; texnologik komponent; natijali komponent [5]. Mualliflarning xulosalari asosida mulohaza yuritadigan bo'lsak, kasbiy bilimlar, qaysi sohaga taalluqli bo'lmasin, muayyan kasbning maqsadi, mazmuni va ijtimoiy ahamiyati, uni amalga oshirish jarayoni, ko'zlangan natijalarga erishish yo'llariga doir bilimlardan tarkib topadi. Boz ustiga, bunday bilimlar zamon talablariga muvofiq ravishda muttasil takomillashtirib borilmog'i darkor. Ana shunday xarakterga ega bo'lgan va takomil topib borayotgan kasbiy bilimlar shaxs madaniy saviyasining tarkibiy elementi sanaladi.

Ziyolilik madaniyatining yana bir muhim tarkibiy elementi insoniyat tomonidan asrlar davomida shakllantirilgan insonparvarlik g'oyalaridan voqiflik me'yori bilan bog'liq. Insonparvarlik yoki "gumanizm – lotincha ibora bo'lib, insoniylik tomon intilish yoki insonning insondek yashashi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish degan ma'noni bildiradi. Inson qachon o'zi haqida, o'zining olamdagi o'rni, o'z tabiatining mohiyati va o'zining nimalarga qodirligi, o'z borlig'ining ma'nosi va maqsadi haqida o'ylay boshlasa, ana o'shanda gumanizm sodir bo'ladi" [6]. Ushbu mulohazadan o'zgacha xulosa chiqarsa ham bo'ladi: shaxs gumanizm g'oyalarini o'zlashtirgach, o'zi, o'z hayotining mazmuni, intilmog'i lozim bo'lgan asl hayotiy maqsadlar, amallarining insoniy maqsadlarga mos yoki mos emasligi, o'z maqsadlarining jamiyat maqsad-muddalari bilan uyg'unligi xususida mulohaza yurita boshlaydi. Insonparvarlik g'oyalarini o'zlashtirmasdan turib, inson hayotining mazmuni va maqsadi, asl insoniy ehtiyoj va manfaatlar haqida tizimli va ratsional fikr yuritish birmuncha mushkul. Bu g'oyalardan xabardor bo'lmasdan turib, o'z hayotiy intilishlarini jamiyat, millat va Vatan manfaatlar bilan uyg'unlashtira bilish bag'oyat qiyin. Shu boisdan ham insonparvar g'oyalarni o'zlashtirgan, ularga asoslangan falsafiy mulohazalarga qodir insonnigina muayyan darajada madaniy saviyaga ega shaxs sifatida e'tirof etish, qadrlash mumkin.

Shunday qilib, shaxs madaniy saviyasi murakkab va o'ziga xos tarkibga ega. Ayni paytda, masalaning nozik jihati shundaki, bu tarkibiy elementlar inson hayoti va faoliyatida u yoki bu tarzda namoyon bo'lib boradi. Shaxs madaniy saviyasi tarkibiy elementlarining salmog'ini aniqlash uchun ularning namoyon

bo‘lish shakllarini aniqlash, bu shakllardan mezon sifatida foydalanish zarur. Bu mezonlar, avvalo, insonning madaniy saviyasini aniqlash, o‘lchash imkonini beradi, albatta. Shuning bilan bir qatorda bu mezonlar yordamida “madaniy saviya” tushunchasi mazmunini ham mufassalroq ilg‘ab olish mumkin. Masalaning yana bir jihatiga alohida e‘tibor bermoq darkor: shaxs madaniy saviyasi, bir tomondan, inson ongi bilan bog‘liq, ikkinchi jihatdan esa, uning faoliyatiga daxldor aspektlarni o‘zida mujassam qiladi. Shu sababdan madaniy saviyani o‘lchashda qo‘llaniladigan mezonlarning bir guruhi fenomenologik, ikkinchi guruhi esa praksiologik mohiyatga ega.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ник Бостром - Ph.D., is Director of Oxford University's new Future of Humanity Institute. Угрозы существованию человечества. Анализ сценариев вымирания. //2007. <http://www.nickbostrom.com/>
2. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. –Тошкент.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018.– 19-20 б.
3. Жигулин А.А. Общекультурные параметры личности// Гуманитарные научные исследования, 2012, № 3.
4. Рўзиева Р. Жамиятнинг маънавий янгиланишида миллий ва умуминсоний қадриятлар уйғунлигини шакллантириш
5. Исломов И.А., Парпиев О. А. Жисмоний маданият ўқитувчиси касбий тайёргарлиги жараёнининг айрим замонавий педагогик хусусиятлари.// НамДУ илмий ахборотномаси, 2020, №1.- 314 б.
6. Чориев А., Чориев С. Ренессанс даври Европа фалсафаси.- Т.: Тафаккур қаноти, 2015.- 13 б.

**PEDAGOGIKA****SHUM BOLA QISSASINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY INTERFAOL  
METODLARDAN FOYDALANISH.****316.32(575.1)**

**Asqarova  
Zulayxo  
UrDPI  
o‘qituvchisi**



**Matyakubova  
Nuriya  
UrDU  
o‘qituvchisi**



**Kamolova  
Marvarid  
UrDPI talabasi**

**Annotatsiya:** maqolada “Shum bola” qissasi va uning muallifi to‘g‘risida hamda qissani o‘qitishda zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish bo‘yicha bir nechta interfaol metodlar aks ettirilgan. Shuningdek, ayrim didaktik o‘yinlar orqali “Shum bola” qissasining qiziqarli va tushunarli bo‘lib o‘quvchiga yetkazilishida interfaol metodlarning xususiyatlari yoritib berilgan.

**Аннотация:** в статье описывается рассказ “Shum bola” и его автор а также несколько интерактивных приемов использования современных интерактивных меодов в обучении рассказу. Также посредством некоторых дидактических игросвещаются особенности интерактивных методов в донесении до читателя истории “Shum bola” в интересной и понятной форме.

**Annotation:** the article describes the “Shum bola” story and its author, as well as several interactive methods of using modern interactive methods in teaching the story. Also, through some didactic games, the features of interactive methods in conveying “Shum bola” story to the reader in an interesting and understandable way are highlighted.

**Kalit so‘zlar:** qissa, G‘.G‘ulom, interfaol metodlar, 6 shlyapa metodi, interaktiv metodika, darslik.

**Ключевые слова:** рассказ, Г.Гулям, интерактивные методы, метод 6 шляп, интерактивный метод, учебник.


**Key words:** short story, G.Ghulam, interactive methods, 6 hat method, interactive method, textbook.

Har bir xalqning ona tili va adabiyoti uning milliy ruhi va o‘zligining, madaniy-ma’rifiy olami, milliy g‘oyasining asosi hisoblanadi. Ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning “Har bir millatning borlig‘ini ko‘rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmak – millatning ruhini yo‘qatmakdur” degan hikmatli so‘zlari ham bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi. Shuning uchun ham qachonki bosqinchi va istilochi kuchlar el-yurtimizni o‘ziga qaram qilmoqchi bo‘lsa, avvalo, uni o‘z tili va dinidan, tarixi va madaniyatidan, milliy

gʻururidan judo etishga uringan. Oʻlkamiz qaramlik changaliga tushib qolgan istibdod davrlarida ona tilimizning rivojlanish imkoniyatlari cheklab qoʻyilgani hech kimga sir emas.

Oʻzbek tilining har tomonlama taraqqiy topishi va adabiy til sifatida maydonga chiqishida qadimiy turkiy til hissa qoʻshganini alohida taʼkidlash tabiiydir. Shu borada Mahmud Koshgʻariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Atoyi, Sakkokiy, Lutfiy, Alisher Navoiy kabi ilm-u fan va adabiyot namoyandalarining xizmati va qoldirgan merosi muhim oʻrin egallaganini qayd etish joiz.<sup>15</sup>

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning taʼkidlashicha: “Hukumatning tegishli vazirlik va idoralar hamda butun taʼlim tizimining, hurmatli domlalarimiz va professor-oʻqituvchilarning eng muhim vazifasi – yosh



avlodga puxta taʼlim berish, ularni jismoniy va maʼnaviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir. Farzandlarimiz uchun zamonaviy ish joylari yaratish, ularning hayotda munosib oʻrin egallashini taʼminlashga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga koʻtarishni davrning oʻzi taqozo etmoqda”.<sup>16</sup>

Shu fikrlarimizning dalili sifatida Oʻzbekiston Respublikasi 2017-2021-yillarga moʻljallangan “Harakatlar strategiyasi”da keltirilgan quyidagi fikrlarni keltirishimiz mumkin: “Alohida mexanizmlarini yaratish, oliy oʻquv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari

<sup>15</sup> Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish toʻgʻrisida. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. – Toshkent, 2016-yil 13-may.

<sup>16</sup> Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qatʼiy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi boʻlishi kerak. Toshkent: “Oʻzbekiston”, 2017. 97-bet.

huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish”.<sup>17</sup>

Ushbu maqolada o‘quvchilarni “Shum bola”ni o‘qitishda zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish bo‘yicha bir nechta interfaol metodlar aks ettirilgan. Shuningdek, ayrim didaktik o‘yinlar orqali “Shum bola” qissasini qiziqarli va tushunarli bo‘lib o‘quvchiga yetkazishda interfaol metodlarning xususiyatlari yoritib berilgan.


G‘ofur G‘ulom (1903-1966) – XX asr o‘zbek adabiyotida munosib o‘ringa ega iste’dodli ijodkorlardan biri. G‘.G‘ulom ilmga o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi orqali o‘zbek xalqining sevimli ijodkoriga aylandi. Uning hajviy hikoyalari, yumorga boy qissalari kitobxon o‘quvchilar va talabalar qalbidan chuqur joy olgan. Uning ko‘plab asarlari orqali shu davrni ruhini, hayotini his qilish, anglash mumkin. Shunday asarlaridan biri mashhur “Shum bola” qissasi hisoblanadi. Asarda tasvirlangan voqealar XX asr boshlarida Toshkent atrofidagi qishloqlarda bo‘lib o‘tadi. Asar qahramoni onasining qattiq koyinishidan ranjib uyidan chiqib ketadi va pul topish ilinjida turli ishlarga qo‘l uradi. Biz bu asarni **“Interfaol metodlar”** orqali o‘rgatishimiz mumkin.

**“Aqliy hujum” metodi** orqali o‘quvchilar yoki talabalarga shunday savollar bilan murojaat qilishimiz mumkin. “O‘ylab ko‘ring: siz “shum bola” deganda qanday bolani tasavvur qilasiz? “Shum bola” va “sho‘x bola” o‘rtasida qanday farqlar bor? Mahallangizda yoki sinfdoshlaringiz orasida ham shum bolalarni uchratganmisiz? Ularda boshqa bolalarga o‘xshamaydigan qanday xususiyatlarni kuzatgansiz?” kabi aqliy hujum interfaol metodi orqali 4-K modelidagi kreativligi, ya’ni ijodiy fikrlashini aniqlash maqsadida o‘tkazishimiz mumkin.

**“T sxemasi” grafik organayzeri** orqali esa “Shum bola” qissasi qahramonlarining ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlash topshirig‘i orqali 4-K modelidagi kritik, ya’ni tanqidiy fikrlashini aniqlash maqsadida topshiriqlar berishimiz mumkin.


### “Shum bola” asari qahramonlari

Qoravoy



<sup>17</sup> 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.

“Klaster” grafik organayzeri orqali esa asar qahramonlarini kimlar ekanliklarini ifodalang, yozing topshiriqini berish orqali ularga asardagi qahramonlarni yozdirishimiz mumkin.



“Shum bola” qissasida berilgan eskirgan soʻzlarimizni bugungi kunda nomlanishi va oldin qanday nomlanganligi boʻyicha **lugʻat ishi** qilishimiz mumkin.

“**Juft boʻlib ishlaymiz**” darslikda berilgan “Shum bola” asaridan berilgan parchani qismlarga ajrating. Har bir qismga sarlavha toping. Nima uchun shunday sarlavha qoʻyganligingizni izohlang.

**Guruhlarda ishlaymiz.** Shum bola filmidan siz mutoala qilgan bob lavhasini tamosha qiling. Shum bola va Sariboy ozrazlarini badiiy asar va uning kino talqinidagi farqli va oʻxshash jihatlarini topib, quyidagi jadvalni daftaringizga toʻldiring topshiriqi beriladi.

#### 1-guruh Shum bola

| Shum bola | Asarda | Kinoda |
|-----------|--------|--------|
|           |        |        |
|           |        |        |
|           |        |        |
|           |        |        |
|           |        |        |

#### 2-guruh Sariboy

| Sariboy | Asarda | Kinoda |
|---------|--------|--------|
|         |        |        |
|         |        |        |
|         |        |        |
|         |        |        |
|         |        |        |

Bu orqali kitobda berilgan va oʻzlari oʻqigan asar parchasini solishtirish asarni onli oʻrganishga hamda koʻz ongida gavdalanishiga, oʻz fikrlarini bermalol izihlab yozishga olib keladi.

Ta'lim interaktiv metodlarining maqsadli bilim berish emas, balki o'quvchi, talabalarda mustaqil ravishda o'qish izlanish, savollarga javob topish, qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantirishdir. Dars o'tishning talabalar faolligini oshiruvchi interaktiv metodlari ayrim adabiyotlarda noan'anaviy dars o'tish metodlari deb ham ta'riflanadi. Darsda o'rganilayotgan mavzuga qiziqish uyg'otishni ta'minlaydi;

- asarni talabalarga o'rgatish jarayonida **“Interaktiv metodika”** o'quv materialini puxta o'zlashtirish imkonini beradi;
- o'quvchi, talabaning tahliliy fikrlashini rivojlantiradi;
- barcha o'quvchi, talabalarni o'quv jarayoniga tortish, faolligini oshirish uchun sharoit yaratadi;
- guruhda ko'ngildagidek ijobiy psixologik iqlim, muhit yaratadi.

Biz yana G'.G'ulomning “Shum bola” asarini o'rganish jarayonida fikrlashning 6 xil usuli **“Olti shlyapa” metodidan** ham foydalanishimiz mumkin. Aslida bu metod 1970-yilda mashhur olim va psixolog Edvard de Bono<sup>5</sup> tomonidan “Шесть шляп мышления” ya'ni “O'qish ko'nikmalarini rivojlantirish” asari orqali bayon etilgan. Nima uchun aynan 6 shlyapa deb nomlanadi? Ingliz xalqida shunday ibora bor, “Birovning shlyapasini kiymoq – o'sha kabi fikrlamoq” degan ibora bor. Masalan politsiyachi, doktor, oshpaz, uchuvchi, tikuvchi kabi kasb egalarining bosh kiyimini kiysangiz, ular kabi fikrlaysiz degan tasavvur bor ingliz xalqida. Biz ushbu metodni o'quvchilarda va oliy ta'lim talabalarida ham qo'llashimiz mumkin. Ushbu metod o'quvchiga 6 xil rejimda fikrlashni o'rgatadi. Bu metod ko'pincha ona tili, tarbiya, adabiyot darslarida yoki biron bir masala yoki muammoli vaziyatnilarda fikrlashga qaratiladi. Buni o'tkazish tartibi quyidagicha:

G'ofur G'ulomning “Shum bola” asarini o'rganish jarayonida o'quvchilar va talabalarga bir hafta oldin yozuvchi hayoti va asarni o'qib kelish topshiriqi beriladi, o'qib kelgach doskaga 6 o'quvchi yoki talaba chiqariladi, ularning boshiga 6 xil randagi shlyapalar kiydiriladi.

1. Oq shlyapadagi o'quvchiga asar va uning muallifi haqidagi aniq ma'lumotlar keltirishini so'raydi, ushbu aniq fakt asosida o'quvchi bilganlarini gapirar ekan, u to'g'ri va haqqoniy dalilarga asoslanib gapirish kabi fikrlash ko'nikmasini rivojlantiradi.

2. Sariq shlyapa kiygan o'quvchi foyda va ijobiy tomonini gapiradi, sariq shlyapani kiygan o'quvchi asardagi ijobiy obrazlarning foydali tomonlarini axtarishga qaratiladi, nafaqat ijobiy balki salbiy obrazdagi qahramonning yaxshi taraflarini aytishga yo'naltiradi. Bu esa o'quvchida ijobiy fikrlash texnikasini o'stiradi.

3. Qora shlyapani kiygan o‘quvchi yoki talaba tanqidiy fikrlash orqali zararli tomonlari, salbiy munosabatlarini aytib beradi. Ushbu qora shlyapani kiygan o‘quvchi har bir vaziyat va asar voqealariga tanqidiy yondashishi kerak.

4. Qizil rangli shlyapani kiygan o‘quvchi emotsional holatlarni bildiradi. O‘quvchi asarni o‘qish jarayonida qanday hissiyotlar, hayajonlar bilan to‘qnashdi, xafa yoki xursand yoki xavotir kabi kechinmalarni boshqalar bilan ulashadi. Bu esa o‘quvchida his tuyg‘ularni baham ko‘rish xususiyatini oshiradi.


5. Yashil shlyapa kiygan o‘quvchi yoki talaba ijodiy fikrlash, yaratuvchanlik va o‘zgartirish ramzi bo‘lib, ushbu shlyapani kiygan o‘quvchidan agar unga imkoniyat berilsa, o‘qigan asarida qaysi vaziyatni yoki qahramon taqdirini qanday o‘zgartirishi so‘raladi. Bunda o‘quvchilarning ujdoy fikrlash malakasi oshishiga xizmat qiladi.

6. Moviy ranli shlyapa xulosalar, yechimlar, takliflar ramzi sanaladi. Har bir o‘qituvchi o‘z o‘quvchisini xarakter xususiyatini biladi.

Bu metodda hayotga ijobiy qaraydigan o‘quvchi qora shlyapani, har doim har bir vaziyatga salbiy yoki tanqidiy yondashadigan o‘quvchisiga sariq shlyapani, emotsional tuyg‘ulardan yiroq o‘quvchiga esa qizil shlyapani kiygazishi kerak. Maqsad bu yerda o‘quvchi ongida fikrlashning turli xil sifatlarini o‘stirish sanaladi.

“Bosh kiyimlari”dan to‘rt xil foydalanish:

1. Shlyapa kiying
2. Shlyapani olib tashlang
3. Shlyapani o‘zgartiring
4. Fikrlash tarzingizga e’tibor bering.



O‘quvchilar va talabalarda sinab ko‘rish orqali ularning fikrlash qobiliyati rivojlanganligini, o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin. Ayniqsa, O‘zbekiston ta’lim tizimida o‘quvchilarni, talabalarni fikrlashga qaratilgan e’tibori nihoyatda balnd ekanligini inobatga olsak, ushbu metod hozirgi kunda bizga judayam asqotadi.



Xulosa qilib aytganda, o'zbek adiblarini hayot yo'llari va asarlarini o'rganar ekanmiz, kelajagimizni yanada mustahkam qilib qurishimizda poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shu asosda interfaol metodlarning o'rni ayniqsa ahamiyatli ekanligini biz yuqorida G'ofur G'ulomning "Shum bola" asari orqali bilib oldik. Asarda tasvirlangan voqealar XX asr boshlarida Toshkent atrofidagi qishloqlarda bo'lib o'tganlari voqelarni ham biz interfaol metodlarni orqali o'sha davrlarni

akslantirishimiz mumkin yoki AKT yordamida video, audio shaklda ham namoyish qildirsak, o'quvchilarda, talabalarda o'sha davr nafasi, muhitini his qildirsa olgan bo'lamiz. Tarbiyaviy ahamiyat ham juda katta. Chunki 100 yillar burun bolalar och-nahor, o'g'irlik oddiy ish, shumlik ham shunga yarasha, yurt egasiz, kissavor ko'p, boylarda insof yo'q kunlar o'tgan. **"Bugunning bolalari esa shum qadam va shum taqdir emas, xush qadam, xush taqdirlar"**<sup>6</sup>. Umuman olganda, G'ofur G'ulom Shum bolaning sarguzashtlari orqali biz uchun yaqin va oddiy odamlar o'z hayoti bilan andarmon bo'ladigan manzillarda xalq hayotining, inson ichki olami turfa manzalarining guvohi bo'lamiz. Endilikda ushbu adabiy asar orqali Toshkent viloyatining bu joylari haqida geografik va tarixiy ma'lumotlardan farqli o'laroq bir bola nigohi bilan o'sha davr nafasini his qilgandek bo'lamiz. O'zbek professor olimlari tomonidan bugungi kunda o'zbek adiblarimizning asarlarini o'rganishda davom qilmoqdalar. Ularni nafaqat o'zbek tilida, balki qardosh tillarga, rus tili va ingliz tillariga ham tarjimalar orqali o'rganilmoqda. Boqiy asarlarimiz kabi yana asarlar dunyoga kelishi uchun yoshlarimizga bilim berishda o'tmishni unutmagan holda, "Yangi renessans" avlodlarini tarbiyalashimiz, yaratishimiz va kashf qilishimiz lozim deb o'ylaymiz.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 56-b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 488-b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi.- Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni (Xalq so‘zi. 2017-yil, 8-fevral).
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.
6. Mirzayeva Zulxumor, Jalilov Komil, “Yangi nashr”, Toshkent-2022, “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinf uchun darslik” 18-30-betlari.
7. [t.me/boshlangich\\_ta\\_lim\\_metodlari](https://t.me/boshlangich_ta_lim_metodlari) telegram kanali.
8. Musayev Abdulaziz “Shum bolaning sarguzashtlari kechgan qishloq, bozor, mahalla, daryo bugun qanday nomlanadi?”. Etnograflar uchun qo‘llanma nomli maqolasi.
9. Edvard de Bono “Шесть шляп мышления”, ya’ni “O‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish” asari

**IQTISODIYOT****IQTISODIY IMKONIYATLARNI YUZAGA CHIQARISHDA  
EHTIYOJLARNING O'RNI.**

**Doniyor  
SAPORBOYEV**

**Urganch davlat  
universiteti  
o'qituvchisi**

**316.32(575.1)**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada iqtisodiy imkoniyatlarni yuzaga chiqarishda ehtiyojlarni o'rni, ularning mazmuni va ularni turlaridan foydalanishni ahamiyati hamda o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

**Аннотация:** в статье освещается роль потребностей, их содержание и важность использования их видов и особенностей в создании экономических возможностей.

**Annotation:** this article highlights the role of needs, their content and the importance of using their types and specific features in the creation of economic opportunities.

**Kalit so'zlar:** imkoniyat, iqtisodiy imkoniyat, iqtisodiyot, resurs, iqtisodiy faoliyat, ehtiyoj, tovar.

**Ключевые слова:** возможность, экономическая возможность, экономика, ресурс, экономическая деятельность, потребность, товар.

**Key words:** opportunity, economic opportunity, economy, resource, economic activity, need, commodity.

Ma'lumki, jamiyatda kishi ehtiyojini qondirish uchun iqtisodiy imkoniyatlarni yuzaga chiqarish zarur bo'ladi. Iqtisodiy imkoniyat mamlakatning iqtisodiy salohiyati va qudratini belgilaydi. Iqtisodiy imkoniyat deganda mavjud zaruratni haqiqatga aylantirish, ya'ni tovarlar, xizmatlar va boshqa nomoddiy qadriyatlarga bo'lgan favqulodda ehtiyojlarni qondirish uchun moddiy va nomoddiy shartlar yig'indisidir. Jamiyatning iqtisodiy imkoniyatlari va ehtiyojlari bir-biriga bog'liqdir. Chunki har qanday iqtisodiy tizimni rivojlantirishning yakuniy maqsadi jamiyat ehtiyojlarini qondirishdir. Bunga tovarlar va xizmatlarni iste'mol qilish, korxona ixtiyorida bo'lgan resurslarni sarf qilish bilan bog'liq ishlab chiqarish jarayoni kiradi. Ehtiyojlarni qondirish iqtisodiyotdagi eng muhim inson bilan bog'liq muammolarni hal qilishga qaratiladi.

Insonning normal hayotiy faoliyati, yaxlit, dinamik va o'z-o'zini tartibga soluvchi biologik tizimni ifodalovchi ijtimoiy mavjudot sifatida qaraladi. U bevosita biologik, psixologik va ma'naviy ehtiyojlar to'plami bilan ta'minlanadi. Mazkur ehtiyojlarni qondirish inson o'sishi, rivojlanishi va atrof-muhit bilan uyg'unligini belgilaydi. Insonning hayotiy faoliyati vaqt va makonda atrof-muhit sharoitida inson hayotini qo'llab-quvvatlash omillarga bog'liq

bo‘ladi. Inson ehtiyojlari – insonning yashashi va kamol topishi uchun zarur bo‘lgan barcha moddiy va nomoddiy buyumlarga bo‘lgan xohish va istaklaridir [1]. Inson ehtiyoji shaxs yoki kishi ehtiyoji sifatida iqtisodiy qonuniyatlarga asoslanadi. Iqtisodiy rivojlanish muammolari resurslarni sarflash bilan bog‘liq quyidagi iqtisodiy qonuniyatlarga asoslanadi:

ehtiyojlarning cheksizligi va yaroqsizligi;

tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun zarur resurslarning cheklanganligi yoki kam uchrashi.

Iqtisodiy imkoniyatlarni qondirish asosida ehtiyojlar va ulardan samarali foydalanish yotadi. Bu holatda ehtiyojlarni qondiradigan vositalar tovarlar sifatida talqin qilinadi va resurs bo‘lib namoyon bo‘ladi. Resurslar iqtisodiy yoki cheklangan tovarlarni ishlab chiqarish uchun qo‘llaniladigan omillar bo‘lib hisoblanadi. Kishining ehtiyoji cheksiz va resurslar kam bo‘lganligi sababli barcha ehtiyojlarni qondirib bo‘lmaydi. Jamiyat cheklangan iqtisodiy resurslar sharoitida ehtiyojlarni yuqori darajada qondirish uchun tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishni tanlashi lozim. Bunday holatda iqtisodiyotni oqilona boshqarish muammosi mavjud bo‘lib, ularni iqtisodiy imkoniyatlarni yuzaga chiqarish orqali hal qilish mumkin bo‘ladi.

Iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanish uchun iqtisodiy faoliyat amalga oshiriladi. Iqtisodiy faoliyatning maqsadi insonning iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishdir. Ushbu imkoniyatlar orqali iqtisodiy ehtiyojlar qondirilib, uning asosiy yo‘nalishi sifatida moddiy va ma‘naviy tovarlarni iste‘mol qilish kabilardan iborat bo‘ladi. Bu holatda moddiy noz-ne‘matlarni iste‘mol qilish uchun kishilar iqtisodiy tizim sharoitida mehnat qilib, uni qo‘llab-quvvatlaydilar. Ehtiyojlarni qondirish iqtisodiyotda ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun rag‘bat sifatida qaraladi. Buning uchun iste‘mol qilingan mahsulotlar o‘rniga yangi mahsulotlarni yaratish lozim bo‘ladi. Qondirilgan ehtiyoj esa zarur bo‘lgan talablarni keltirib chiqaradi.

Iqtisodiy ehtiyojlar shaxs, ijtimoiy guruh, korxona yoki jamiyatning hayoti va rivojlanishini ta‘minlash uchun obyektiv zarur bo‘lgan narsaning yetishmasligini anglatadi. Iqtisodiyotda ehtiyojlar faol iqtisodiy faoliyatning ichki harakatlantiruvchilari sifatida namoyon bo‘ladi [2]. Shunga asosan iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanish asosida kishining ehtiyojlari ko‘payib boradi. Ular ehtiyojlarning oshishi iqtisodiy imkoniyatlardan ustun turib, haqiqiy iste‘mol hajmi va turli xilligi bilan o‘zaro mos kelmaydi. Shunga asosan jamiyatning iqtisodiy ehtiyojlari cheksiz bo‘lib, iqtisodiy resurslar cheklangan bo‘ladi. Ammo bu ishlab chiqarish jarayonini rag‘batlantiruvchi qarama-qarshi holat bo‘lib, u orqali jamiyat rivojlanadi, ehtiyojlar tarkibi o‘zgaradi va bu holat bevosita

aholining daromad darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Ijtimoiy ehtiyojlar darajasini aks ettiruvchi talab miqdori xaridorlar daromadlari, ya’ni ularning xarid qobiliyati bilan chegaralanadi [3].

Ehtiyojlarning tuzilishi moddiy va ma’naviy ehtiyojlar hamda iste’mol qilinadigan tovarlar va xizmatlar hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlik bilan belgilanadi. Iqtisodiy ehtiyojlar ishlab chiqarish, almashinuv va iste’mol bilan bog‘liq bo‘ladi hamda ularning xilma-xil turlariga ajratiladi. Maslou ehtiyojlar tarkibida ehtiyojlar piramidasi shaklidagi quyidagi guruhlarini ajratib ko‘rsatadi:

fiziologik ehtiyojlar (ovqatlanish va kiyim-kechak kiyish);

ekzistensial ehtiyojlar (xavfsizlik, kelajakka ishonch, yashash sharoitlari barqarorligi va boshqalar);

ijtimoiy aloqalarga bo‘lgan ehtiyoj (aloqa va do‘stlik);

nufuzli ehtiyojlar (rasmiy o‘sish va tan olish);

ijodiy ehtiyojlar (o‘z-o‘zini anglash).

Aniqroq qilib aytganda, mazkur tasnif asosida ehtiyojlar quyidagi guruhlariga ajratiladi (1-rasm).



**1-rasm. Ehtiyojlarning tasnifi va guruhlanishi**

Iqtisodiy imkoniyatlarni yuzaga chiqarishda ehtiyojlar pastki yoki fiziologik turidan yuqori yoki ijtimoiy turigacha rivojlanib borib, ular iqtisodiy hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Ehtiyojlarning tarkibi umumiy aholining daromad darajasi va uning alohida guruhlariga bog‘liq bo‘ladi. Ehtiyojlarni qondirish iqtisodiy manfaat uchun muhim yo‘nalish bo‘lib hisoblanadi. Iqtisodiy

manfaatlar – kishilarning ehtiyojlarini qondirish istagiga asoslangan iqtisodiy faoliyatni obyektiv rag‘batlantirishdir [4].

Ehtiyojlarning ortib borishi Engel qonuni bilan izohlanadi. Ushbu qonunga ko‘ra, kishi daromadlarini o‘sishi bilan ularning oziq-ovqat sotib olishga ketadigan ulushi kamayib, boshqa tovarlarni sotib olishga sarflanadigan qismi ko‘payadi. Shu bois, ushbu qonunga muvofiq sotib olingan tovarlar va xizmatlar turi hamda iste‘molchining daromad darajasi o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liqlik mavjud bo‘ladi. Ehtiyojlarni qondirish mavjud muammo sifatida amaliy ahamiyatga ega. Ushbu muammolarni hal qilish uchun tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur bo‘ladi. Ya’ni, unga ko‘ra, ehtiyojlarni ijtimoiy-iqtisodiy tahlil qilish va davlat iqtisodiy siyosati mezonini aniqlash uchun moddiy tovarlarni iste‘mol qilishning oqilona me‘yorlari ilmiy ishlab chiqiladi. Biroq, biznesni tashkil qilishda xaridorlarning tovarlar va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyoji holati, darajasi va dinamikasi to‘g‘risida aniq ma’lumotga ega bo‘lish talab qilinadi.

Xulosa shuki, kishini hozirgi va kelajakdagi ehtiyojlarini hisoblab borish va ularni prognoz qilib borish lozim. Ehtiyojning mavjudligi va uning qondirilishi orqali kishiga zarur biror-bir narsaning etishmasligi his qilinadi va turli vaziyat omillariga qarab o‘zgarib boradi. Bu esa jamiyat va davlatning iqtisodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga imkon beradi. Natijada, ehtiyojlarning yuksalishi orqali mamlakatning iqtisodiy salohiyati va qudrati ta’minlanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shodmonov Sh.Sh., G‘afurov U.V., Minavarova G.T., Xalilov M.Sh. “Iqtisodiyot nazariyasi” fanidan ta’lim texnologiyasi. Uslubiy qo‘llanma “Iqtisodiy ta’limda o‘qitish texnologiyalari” seriyasidan. - T.: TDIU, 2010. – 24-b.
2. Янова В.В. Экономика. Курс лекций: Учебное пособие для вузов. – М.: Издательство “Экзамен”, 2005. - с. 45.
3. Журухин Г.И. и др. Экономика. Учебник для студентов неэкономических профилизаций. Екатеринбург: Изд-во Рос. гос. проф.-пед. ун-та, 2016. - с. 11.
4. Сидоров В.А., Кузнецова Е.Л., Болик А.В. Общая экономическая теория. Учебник для студентов высших учебных заведений [Электронный ресурс]: - Майкоп: ООО «ЭЛИТ», 2017. - с. 24.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
URGANCH INNOVATION UNIVERSITETI NTM

# INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT

5 (15)  
2024-yil, may.

|                  |              |
|------------------|--------------|
| Bosh muharrir:   | M.Eshmurodov |
| Mas’ul kotib:    | U.Bekimmetov |
| Musahhih:        | J.Sobirov    |
| Texnik muharrir: | M.Kuranbayev |
| Navbatchi:       | M.Kuranbayev |

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va  
ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 10-fevral kuni  
№062869 raqamli guvohnoma berilgan.

Bosishga topshirish vaqti: 14:00. Topshirildi: 14:00.

Qog‘oz bichimi: A4. Adadi: 200 nusxa.

Hajmi: 4,875 b.t. Buyurtma №15/24.

Nashr ko‘rsatkichi: 1404.

Bahosi kelishilgan narxda.

“Milleniumus print” MCHJda ofset usulida chop etildi.

Urganch tumani, “Shermatlar” MFY, Tadbirkorlar ko‘chasi, 69-uy.

Tel: (+998) 91-994-24-00

---

Urganch innovatsion universiteti  
220100, Urganch shahri, “Mustaqillik” MFY,  
Gurlan ko‘chasi, 2-uy.  
Tel: (+998) 90-436-20-22